O'zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi



MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AMALIYOT: INNOVATSIYA – TAHLIL – NATIJA



MAKTABGACHA TA'LIM

BOSHLANG'ICH TA'LIM

INKLYUZIV TA'LIM



www. buxoromoi.uz
info..youtube.com/c/eduuz

scan or visit
www.website .com/ scholar30

RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI

2026-YIL 23-OKTABR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AMALIYOT: INNOVATSIYA – TAHLIL – NATIJA

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2026-yil 23-oktabr

BUXORO – 2025

“MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AMALIYOT: INNOVATSIYA – TAHLIL – NATIJA” respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Buxoro – 2026.

Tahrir hay’ati

A.A.Xamidov – Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

N.X.Aslanova – “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedra mudiri, dotsent (PhD)

G.Sh.Karimova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

S.S.To‘rayeva – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

G.O.Ochilova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

N.I.To‘ymurodova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Mazkur respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya 2026-yil 23-oktabr kuni Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazida “M**aktabgacha va boshlang‘ich ta’limda amaliyot: innovatsiya – tahlil – natija**” mavzusida zamonaviy ta’limni takomillashtirish maqsadida o‘tkazildi va unga tegishli maqolalar to‘plam sifatida jamlandi.

To‘plam Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasida 2026-yil 19-oktabr kuni 8-sonli yig‘ilishida muhokama etilgan, 2026-yil 22-oktabrda BVPM markazi ilmiy kengashining navbatdan tashqari yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy-nazariy fikrlarning mazmuni va ishonchliligi hamda imloviy savodxonligiga mualliflar mas’uldir.

I SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA’LIM: INNOVATSION METODLAR VA AMALIY NATIJALAR

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM PEDAGOGLARINING KASBIY VA TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Akmal Xamidov
Buxoro viloyati PMM direktori,
p.f.f.d (PhD) dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada pedagogik prognozlash asosida mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalar va mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda kasbiy hamda transversal kompetensiyalarni oldindan aniqlashning ahamiyati asoslangan. Kompetensiyalarni prognozlash diagnostika, prognozlash, rivojlantirish va monitoring bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz jarayon sifatida tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik prognozlash, kasbiy faoliyat, kompetensiyalarni prognozlash, kasbiy kompetensiya, transversal kompetensiyalar, diagnostika, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, monitoring, raqamli savodxonlik, uzluksiz kasbiy rivojlanish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты совершенствования профессиональной деятельности специалистов на основе педагогического прогнозирования. Обосновывается значимость прогнозирования профессиональных и трансверсальных компетенций с учетом социально-экономических изменений, развития цифровых технологий и требований рынка труда. Прогнозирование компетенций представлено как непрерывный процесс, включающий диагностику, прогнозирование, развитие и мониторинг.*

Ключевые слова: *педагогическое прогнозирование, профессиональная деятельность, прогнозирование компетенций, профессиональные компетенции, трансверсальные компетенции, диагностика, индивидуальная траектория профессионального развития, мониторинг, цифровая грамотность, непрерывное профессиональное развитие.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of improving professionals’ performance through pedagogical forecasting. It substantiates the importance of anticipating professional and transversal competencies in response to socioeconomic changes, digital transformation, and evolving labor market requirements. Competency forecasting is presented as a continuous process comprising diagnosis, forecasting, development, and monitoring. The article explores mechanisms for assessing current competencies, identifying future professional development needs, designing individual professional development pathways, and monitoring progress.*

Keywords: *pedagogical forecasting, professional activity, competency forecasting, professional competencies, transversal competencies, diagnosis, individual professional development pathway, monitoring, digital literacy, continuous professional development.*

Zamonaviy ta’lim tizimida mutaxassisning kasbiy faoliyati faqat mavjud bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanmaydi. Tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalar, mehnat bozori talablari hamda kompetensiyalarga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim subyektlaridan “bugun” bilan birga “kelajak”ni ham ko‘ra bilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan pedagogik prognozlash mutaxassis kasbiy rivojini boshqarish, kutilayotgan ehtiyojlarni aniqlash va

rivojlanish yo‘nalishlarini oldindan belgilashning samarali metodologiyasi sifatida tobora muhimlashib bormoqda.

Pedagogik prognozlash orqali kasbiy faoliyatni takomillashtirish quyidagi mantiqiy zanjirga tayanadi: diagnostika → prognoz → loyihalash → amalga oshirish → monitoring → tuzatish.

Bu zanjir mutaxassisning real holatini aniqlash (diagnostika), kelajakdagi ehtiyoj va natijalarni oldindan ko‘rish (prognoz), individual yoki institutsional rivojlanish rejasini yaratish (loyihalash) va natijalarni boshqarish (monitoring) imkonini beradi. Shunga mos ravishda asosiy takomillashtirish yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi.

Kompetensiyalarni prognozlash - mutaxassis kasbiy rivojining strategik asosi hisoblanadi. Pedagogik prognozlash tizimida kompetensiyalarni prognozlash mutaxassis kasbiy faoliyatini takomillashtirishning eng muhim va markaziy yo‘nalishlaridan biri sanalanadi. Ushbu yo‘nalishning mazmuni kelajakda mehnat bozori, ta’lim tizimi va ijtimoiy ehtiyojlar tomonidan talab etiladigan kasbiy (professional) hamda transversal (umumkasbiy) kompetensiyalarni oldindan aniqlash va ularni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyatning tezkor o‘zgarishi, yangi texnologiyalar paydo bo‘lishi va kasblar mazmunining transformatsiyalashuvi mutaxassis tayyorlash jarayonini retrospektiv emas, balki prospektiv yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi. Shu sababli kompetensiyalarni prognozlash mavjud malaka va ko‘nikmalarni baholash bilan cheklanmay, balki mutaxassisning rivojlanish potensialini aniqlashga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetensiyalarni prognozlash muayyan kasb yoki lavozim doirasida mutaxassisdan kelajakda talab etiladigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini oldindan belgilashni nazarda tutadi. Bu jarayonda kasb mazmunining evolyutsiyasi, kasbiy faoliyatda qo‘llanilayotgan texnologiyalar, professional standartlar va normativ talablar, ta’lim natijalariga qo‘yilayotgan yangi mezonlar hisobga olinadi.

Masalan, pedagog faoliyatida an’anaviy fan bilimlari bilan bir qatorda, ta’limni loyihalash, baholash tizimlarini ishlab chiqish, raqamli resurslardan samarali foydalanish, inklyuziv ta’limni tashkil etish kabi kompetensiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prognozlash ushbu kompetensiyalarning qaysi biri qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda ustuvor bo‘lishini aniqlash imkonini beradi.

Kompetensiyalarni prognozlashda transversal, ya’ni kasblararo va umumiy ahamiyatga ega kompetensiyalar alohida o‘rin tutadi. Ushbu kompetensiyalar mutaxassisning turli faoliyat sharoitlarida moslashuvchanligini ta’minlaydi hamda kasbiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Prognozlash jarayonida aynan

ushbu transversal kompetensiyalarning kelajakda kasbiy muvaffaqiyatga ta’siri kuchayib borayotgani aniqlanadi. Natijada ta’lim dasturlari faqat tor kasbiy bilimlarga emas, balki moslashuvchan, ko‘p funksiyali mutaxassisni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Kompetensiyalarni prognozlash bir qator metodologik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Mehnat bozori va ijtimoiy buyurtmani tahlil qilish, professional standartlar va kompetensiya modellarini solishtirish, ekspert baholash va foresight tadqiqotlari, ta’lim natijalari va kasbiy faoliyat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuvlar asosida kompetensiyalarning ustuvorligi, rivojlanish sur’ati va shakllanish bosqichlari aniqlanib, ta’lim mazmuni va metodikasiga moslashtiriladi.

Kompetensiyalarni prognozlash natijalari o‘quv rejalari va dasturlarini yangilash, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini individuallashtirish, mutaxassisning kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini asoslash uchun xizmat qiladi. Shu tariqa kompetensiyalarni prognozlash pedagogik prognozlash tizimida mutaxassis kasbiy rivojini strategik rejalashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘lib, ta’lim tizimining barqaror va istiqbolli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kompetensiyalarni prognozlashning amaliy modeli *(diagnostika – prognoz – rivojlantirish – monitoring)* kompetensiyalarni prognozlash pedagogik faoliyatda uzluksiz sikl sifatida amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich. Diagnostika bosqichi bo‘lib, ushbu bosqichda mutaxassisning joriy kompetensiya holati aniqlanadi. Diagnostika kasbiy bilim va ko‘nikmalarni baholash (test, amaliy topshiriqlar), pedagogik faoliyatni kuzatish, portfel tahlili, o‘quv natijalari va ta’lim samaradorligi ko‘rsatkichlari, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya manbalari orqali amalga oshiriladi. Natijada mavjud kompetensiyalar darajasi va rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi.

2-bosqich. Prognozlash bosqichida diagnostik ma’lumotlar asosida mutaxassis uchun kelajakda zarur bo‘ladigan kompetensiyalar aniqlanadi. Bu jarayonda ta’lim tizimidagi islohotlar, kasbiy standartlar va mehnat bozori talablari, ta’lim texnologiyalarining rivoji, ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yangi talablar hisobga olinadi. Prognozlash qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga yo‘naltiriladi. Natijada ustuvor kasbiy va transversal kompetensiyalar ro‘yxati shakllantiriladi.

3-bosqich. Rivojlantirish va loyihalash bosqichida prognoz natijalariga asoslangan holda individual yoki institutsional rivojlanish rejasi ishlab chiqiladi. Unda modulli va maqsadli malaka oshirish kurslari, mentorlik va coaching, mustaqil

ta’lim va reflektiv faoliyat, amaliy tajriba almashish kabi mexanizmlar belgilanadi. Natijada individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi (IKRT) yaratiladi.

4-bosqich. Monitoring va tuzatish bosqichi bo‘lib, rivojlanish jarayoni davomida kompetensiyalar shakllanish dinamikasi, ta’lim natijalari, pedagogik faoliyat samaradorligi doimiy monitoring qilinadi. Monitoring natijalari asosida prognoz va rivojlanish rejasiga tuzatishlar kiritiladi. Natijada kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni moslashuvchan va samarali bo‘ladi.

Kasbiy va transversal kompetensiyalarni siklik prognozlash

Kompetensiya turi	Mazmuni	Prognozlash obyekti	Rivojlantirish mexanizmlari	Kutilayotgan natija
Kasbiy	Muayyan kasb doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar	Fan mazmuni, metodika, baholash, ta’lim texnologiyalari	Malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar, metodik laboratoriyalar	Ta’lim sifati va kasbiy samaradorlik oshadi
Muloqot	Jamoa, o‘quvchi va ota-onalar bilan samarali muloqot	Hamkorlik, liderlik, konfliktlarni boshqarish	Treninglar, jamoaviy loyihalar, coaching	Ijtimoiy moslashuv va jamoada ishlash kuchayadi
Tanqidiy fikrlash	Muammolarni tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish	Analitik va reflektiv tafakkur	Case-study, muammoli vaziyatlar, tadqiqot faoliyati	Innovatsion yondashuv va qaror sifati oshadi
Ijodiy	Yangi g‘oya va yechimlar yaratish	Innovatsion faoliyat	Kreativ topshiriqlar, loyiha ishlari	Pedagogik innovatsiyalar paydo bo‘ladi
Raqamli savodxonlik	Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	EdTech, LMS, analitika	Raqamli treninglar, onlayn platformalar	Ta’limning moslashuvchanligi oshadi
O‘z-o‘zini rivojlantirish	Uzluksiz kasbiy o‘sishga tayyorlik	Refleksiya va o‘rganish motivatsiyasi	Individual ta’lim rejalari, portfel	Kasbiy barqarorlik va moslashuvchan

Kompetensiyalarni prognozlash ta’lim mazmunini kelajak ehtiyojlariga moslashtirish, malaka oshirishni formallikdan chiqarish, o‘qituvchi faoliyatini strategik boshqarish, kasbiy risklarni erta aniqlash, ta’lim sifatini barqaror oshirish imkonini beradi. Shu sababli kompetensiyalarni prognozlash zamonaviy pedagogik faoliyatda diagnostika va loyihalash bilan integratsiyalashgan markaziy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANLGAN ADABIYOT

1. Александровская, Л.Н. Управление качеством: роль образования / Л.Н. Александровская // Высшее образование сегодня. – 2004. – № 1. – С. 9.
2. Быстров, И.Е. Управление кадровым обеспечением регионов на основе прогнозирования потребности в спесиалистах с высшим профессионалным образованием: дис. …канд. техн. наук / И.Е. Быстров. - СПб., 2003. - 101 с.

3. Бляхеров, И. Многоступенчатое высшее профессиональное образование: профилный подход / И. Бляхеров, С. Руднев, Э. Соколов, Н. Фролов // Высшее образование в России. - 2003. - № 4. - С. 31.

TA’LIMNING UNIVERSAL DIZAYNI TAMOYILLARI: O‘QUVCHI UCHUN PSIXOLOGIK XAVFSIZ MUHITNI TASHKIL ETISH

Aslanova Nozima Xakimovna
Buxoro viloyati PMM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’limning universal dizayni (TUD) tamoyillari asosida o‘quvchilar uchun psixologik xavfsiz, inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Psixologik xavfsizlikning o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi, xatolardan o‘rganishi, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta’siri tahlil qilingan. Ta’limning universal dizayni doirasida o‘quvchilarni ta’limga jalb etishning turli usullarini qo‘llash, axborotni taqdim etish shakllarini diversifikatsiya qilish, bilim va ko‘nikmalarni namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’limning universal dizayni, psixologik xavfsizlik, inklyuziv ta’lim, individual yondashuv, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, emotsional farovonlik, o‘quvchi faolligi, ijobiy qayta aloqa, teng imkoniyatlar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты организации психологически безопасной, инклюзивной и поддерживающей образовательной среды для учащихся на основе принципов универсального дизайна обучения (УДО). Анализируется влияние психологической безопасности на активность учащихся в образовательном процессе, развитие самостоятельного мышления, способность учиться на ошибках, раскрытие индивидуального потенциала и социально-эмоциональное развитие. Особое внимание уделяется использованию различных способов вовлечения учащихся в обучение, разнообразию форм представления учебной информации и расширению возможностей демонстрации знаний и умений в соответствии с принципами УДО.*

Ключевые слова: *универсальный дизайн обучения, психологическая безопасность, инклюзивное образование, индивидуальный подход, педагогическая поддержка, эмоциональное благополучие, активность учащихся, позитивная обратная связь, равные возможности.*

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of creating a psychologically safe, inclusive, and supportive learning environment based on the principles of Universal Design for Learning (UDL). It analyzes how psychological safety influences students’ engagement, independent thinking, willingness to learn from mistakes, ability to demonstrate their potential, and social-emotional development. Particular attention is given to providing multiple means of engagement, diversifying the presentation of learning materials, and expanding opportunities for students to demonstrate their knowledge and skills in accordance with UDL principles.*

Keywords: *Universal Design for Learning, psychological safety, inclusive education, individualized approach, pedagogical support, emotional well-being, student engagement, constructive feedback, equal opportunities.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga oladigan ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Ta’lim sifati faqat o‘quv dasturlarining mazmuni yoki pedagogik texnologiyalarning samaradorligi bilan belgilanmaydi. O‘quvchining o‘zini qanday his qilishi, o‘z fikrini erkin ifoda eta

olishi, savol berishdan cho‘chimasligi, xatoga yo‘l qo‘yganda kamsitilmasligi va jamoaning teng huquqli a’zosi sifatida qabul qilinishi ham ta’limning ijobiy natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, psixologik xavfsiz ta’lim muhitini tashkil etish zamonaviy ta’limning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Psixologik xavfsizlik o‘quvchining ta’lim jarayonida o‘zini himoyalangan, qadrlangan va qabul qilingan deb his etishi, fikr bildirish, yordam so‘rash, tashabbus ko‘rsatish hamda xatolarini tan olish imkoniyatiga ega bo‘lishini anglatadi. Bunday muhitda o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini namoyon etishga intiladi, o‘quv topshiriqlarida faol ishtirok etadi va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Ta’limning universal dizayni (TUD) mazkur vazifalarni hal etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. CAST tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan TUD ko‘rsatmalarining 3.0-versiyasi ta’limdagi to‘siqlarni oldindan aniqlash, o‘quvchilarning xilma-xilligini hisobga olish, o‘zaro daxldorlik hissini kuchaytirish va ta’lim oluvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi (CAST, 2024).

Ta’limning universal dizayni — ta’lim maqsadlari, metodlari, o‘quv materiallari, baholash vositalari va ta’lim muhitini o‘quvchilarning individual farqlarini hisobga olgan holda loyihalashtirishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Uning asosiy g‘oyasi barcha o‘quvchilarga bir xil usulni qo‘llash emas, balki ularning ta’lim olishdagi ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan turli yo‘llarni taqdim etishdan iborat.

TUDning asosiy tamoyillari uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni qamrab oladi:
Ta’limga jalb etishning turli usullaridan foydalanish. O‘quvchilarning qiziqishlari, motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va emotsional ehtiyojlari turlicha bo‘ladi. Shu sababli pedagog tanlov imkoniyatlarini yaratishi, topshiriqlarning maqsadini tushuntirishi, hamkorlikni rag‘batlantirishi va o‘quvchilarda jamoaga daxldorlik hissini shakllantirishi lozim.

Axborotni taqdim etishning turli shakllaridan foydalanish. O‘quv materiallarini matn, rasm, diagramma, audio, video, namoyish va amaliy faoliyat orqali taqdim etish o‘quvchilarning axborotni idrok etishidagi farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, nutqiy, sensor, kognitiv yoki boshqa individual ehtiyojlari mavjud o‘quvchilar uchun muhimdir.

Bilim va ko‘nikmalarni namoyon etishning turli imkoniyatlarini taqdim etish. O‘quvchiga o‘z bilimini og‘zaki javob, yozma ish, rasm, loyiha, amaliy namoyish yoki raqamli mahsulot orqali ko‘rsatish imkoniyatini berish uning haqiqiy o‘zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Psixologik xavfsizlik esa ushbu imkoniyatlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-emotsional sharoitni yaratadi. Masalan, o‘quvchiga javob berishning turli shakllari taklif etilishi mumkin, biroq uning fikri masxara qilinadigan yoki xatosi uchun jazolanadigan muhitda u o‘z bilimini namoyon etishdan qochishi ehtimoli mavjud. Demak, ta’limning universal dizayni va psixologik xavfsizlik bir-birini to‘ldiruvchi pedagogik yondashuvlardir.

Psixologik xavfsiz ta’lim muhitini tashkil etish o‘quvchining jismoniy xavfsizligini ta’minlash bilan cheklanmaydi. U o‘quvchining shaxsiy qadr-qimmati, hissiy holati, ijtimoiy munosabatlari va ta’lim jarayonidagi ishtirokini ham qamrab oladi. Bunday muhitning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat.

Shaxsiy qadr-qimmatni hurmat qilish. Har bir o‘quvchi qobiliyati, o‘zlashtirish tezligi, tili, ijtimoiy kelib chiqishi yoki individual xususiyatlaridan qat’i nazar, hurmatga loyiqdir. Pedagog o‘quvchilarni bir-biri bilan taqqoslash, kamsituvchi iboralarni ishlatish va salbiy tamg‘alashdan saqlanishi kerak.

Xatoga nisbatan ijobiy munosabat. Xato ta’lim jarayonining tabiiy tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi lozim. O‘quvchining xatosini jazolash yoki masxara qilish o‘rniga, uning sabablarini aniqlash, to‘g‘ri yechimga olib boradigan savollar berish va keyingi urinishini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Erkin fikr bildirish imkoniyati. O‘quvchilar savol berish, o‘z nuqtayi nazarini ifodalash, tushunmagan jihatlarini aytish va yordam so‘rash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Pedagog turli fikrlarni tinglashi va o‘quvchining javobi kutilgan natijadan farq qilgan taqdirda ham uning ishtirokini qadrlashi zarur.

Teng ishtirok va daxldorlik hissi. Guruhli faoliyatda barcha o‘quvchilar uchun mazmunli vazifalar belgilanishi, ayrim bolalarning doimiy ravishda chetda qolib ketishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim. Jamoada o‘zaro yordam, hamkorlik va bir-birining muvaffaqiyatidan quvonish madaniyati rivojlantirilishi kerak.

Tazyiq va kamsitishlarning oldini olish. Masxara qilish, haqoratlash, tahdid, kiberbulling va ijtimoiy chetlatish holatlariga nisbatan aniq munosabat bildirilishi zarur. O‘quvchilar muammo yuzaga kelganda kimga murojaat qilishlari va qanday yordam olishlarini bilishlari muhim.

Emotsional qo‘llab-quvvatlash. O‘quvchining xavotiri, qo‘rquvi, charchog‘i yoki o‘ziga ishonchsizligi e’tiborsiz qoldirilmasligi kerak. Zarur holatlarda pedagog, maktab psixologi, ota-ona va boshqa mutaxassislar o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi lozim. Mazkur mezonlar ta’lim jarayonida o‘quvchining o‘zini xavfsiz his etishi va o‘rganishga faol jalb qilinishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Psixologik xavfsiz muhitni yaratish alohida tadbirlar bilan cheklanmaydi. Bu pedagogning darsni rejalashtirishidan boshlab, topshiriqlarni taqdim etishi,

o‘quvchilar bilan muloqoti, baholashi va refleksiya jarayonigacha davom etadigan tizimli faoliyat hisoblanadi.

O‘quvchining ta’limga qiziqishi va ichki motivatsiyasi psixologik xavfsizlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagog o‘quvchilarga topshiriqlarni bajarish usulini tanlash, individual yoki guruhda ishlash, muayyan vazifani bajarish ketma-ketligini belgilash imkoniyatini berishi mumkin.

Masalan, boshlang‘ich sinfda “Tabiatni asraylik” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarga rasm chizish, kichik matn yozish, og‘zaki hikoya tuzish yoki guruhli loyiha tayyorlash variantlari taklif etiladi. Bunda barcha o‘quvchilar umumiy o‘quv maqsadiga yo‘naladi, ammo o‘z imkoniyatlariga mos ifoda usulini tanlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchining mustaqilligini qo‘llab-quvvatlaydi va topshiriqni bajarish jarayonidagi ortiqcha psixologik bosimni kamaytirishi mumkin.

Ta’lim materiallarining yagona shaklda taqdim etilishi ayrim o‘quvchilar uchun tushunish qiyinchiliklarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli pedagog yangi mavzuni tushuntirishda og‘zaki izoh, vizual material, namuna, amaliy mashq va zarur hollarda audio yoki raqamli vositalardan foydalanishi lozim. Masalan, matematik masalani o‘rgatishda masala shartini matn orqali o‘qish, asosiy ma’lumotlarni rangli belgilar bilan ajratish, predmetlar yoki rasmlar yordamida vaziyatni modellashtirish va yechim bosqichlarini ko‘rsatish lozim. Bu usul o‘quvchining mavzuni tushunmaganligi sababli o‘zini noqulay his etishining oldini olishga, mustaqil ishlashiga va o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini faqat bitta usul, masalan, yozma nazorat ishi orqali baholash ularning barcha imkoniyatlarini to‘liq ochib bermasligi mumkin. Shu sababli baholash usullari o‘quv maqsadiga mos ravishda xilma-xil bo‘lishi talab etiladi. O‘quvchi bilimini og‘zaki tushuntirish yoki hikoya qilish, yozma topshiriq orqali, rasm, jadval yoki diagramma tuzish orqali, tajriba yoki amaliy ishni namoyish etish orqali, loyiha yoki portfolio taqdim etish orqali, raqamli vositalar yordamida natija yaratish kabi shakllarda namoyon etishiga imkon berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda baholash mezonlari oldindan tushuntirilishi, topshiriqning murakkabligi o‘quv maqsadiga mos bo‘lishi va zarur yordam imkoniyatlari belgilanishi lozim. Muqobil ifoda shakllari o‘quv maqsadini pasaytirishni emas, balki o‘quvchiga o‘z bilimini maqbul shaklda namoyon etish imkonini berishni nazarda tutadi.

Pedagogning nutqi, ovoz ohangi, yuz ifodasi, tinglash madaniyati va o‘quvchiga munosabati psixologik xavfsizlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. “Sen buni bilmaysan” yoki “Nega yana xato qilding?” kabi iboralar o‘quvchining shaxsiy qadr-qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ularning

o‘rniga “Masalani yana bir bor tahlil qilamiz”, “Qaysi bosqichda qiyinchilik yuzaga kelganini aniqlaymiz” yoki “Sizning fikringiz qiziqarli, uni qanday asoslash mumkin?” kabi qo‘llab-quvvatlovchi jumlalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Samarali qayta aloqa uchta muhim savolga javob berishi kerak: O‘quvchi nimani muvaffaqiyatli bajardi?, Qaysi jihatni takomillashtirish kerak?, Keyingi bosqichda qanday harakatni amalga oshirish mumkin? Bunday muloqot o‘quvchining xatosini shaxsiy kamchilik sifatida emas, balki o‘rganish jarayonidagi rivojlanish nuqtasi sifatida ko‘rishga yordam beradi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro yordam, tinglash, fikr almashish va umumiy maqsad sari intilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Biroq guruhli ishning o‘zi avtomatik ravishda psixologik xavfsizlikni ta’minlamaydi. Guruhdagi munosabatlar, vazifalarning taqsimlanishi va har bir o‘quvchining ishtiroki pedagog tomonidan e’tiborga olinishi zarur. Buning uchun guruh a’zolarining vazifalarini aniq belgilash, o‘zaro hurmat va tinglash qoidalarini birgalikda ishlab chiqish, juftlikda ishlash orqali tortinchoq o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarga yordam so‘rash va yordam taklif etish imkoniyatini yaratish, faoliyat yakunida individual va jamoaviy refleksiya o‘tkazish va boshqa usullardan foydalanish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarga o‘z hissiyotlarini tanish, ifodalash, boshqalarning holatini tushunish va kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rgatish muhimdir. TUD tamoyillarini samarali qo‘llash pedagogdan nafaqat metodik mahoratni, balki refleksiv, kommunikativ va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni ham talab etadi.

Birinchidan, pedagog o‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlarni kamchilik sifatida emas, balki ta’lim jarayonining tabiiy xususiyati sifatida qabul qilishi lozim.

Ikkinchidan, darsni rejalashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni oldindan aniqlash zarur. Bunday to‘siqlarga murakkab til, ortiqcha axborot yuklamasi, noaniq topshiriqlar, vaqt taqsimoti, muhitdagi shovqin, harakatlanishdagi cheklovlar yoki o‘quvchining javob berishdan qo‘rqishi kabilar kiradi.

Uchinchidan, pedagog o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi kerak. Bunda “Qaysi o‘quvchilar darsda faol qatnashdi?”, “Kimlar o‘z fikrini bildirishdan tortindi?”, “Qaysi topshiriqlar ayrim o‘quvchilar uchun to‘siq bo‘ldi?” va “Keyingi darsda qanday o‘zgarishlar kiritish mumkin?” kabi savollar muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, pedagog ota-onalar, psixolog, maxsus pedagog, logoped va maktab ma’muriyati bilan hamkorlik qilishi zarur. Ayniqsa, o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlash va zarur qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilash jamoaviy yondashuvni talab qiladi.

Beshinchidan, psixologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha umumiy qoidalar barcha ishtirokchilar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. O‘quvchilar o‘zaro hurmat, shaxsiy chegaralarga rioya qilish, maxfiylik, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik va muammo yuzaga kelganda yordam so‘rash tartiblarini mutaxassisklar jamoasida muhokama qilishni bilishlari lozim.

Psixologik xavfsiz muhitni tashkil etish samaradorligini aniqlash uchun faqat o‘quv natijalariga tayanish yetarli emas. O‘quvchilarning o‘zini qanday his qilishi, darsdagi ishtiroki, o‘zaro munosabatlari va yordam olish imkoniyatlari ham o‘rganilishi kerak.

Buning uchun quyidagi monitoring yo‘nalishlarini tavsiya etish mumkin:

Monitoring yo‘nalishi	Aniqlanadigan ko‘rsatkichlar	Ma’lumot to‘plash usuli
Emotsional xavfsizlik	O‘quvchining o‘zini erkin va xotirjam his etishi	Anonim so‘rovnoma, suhbat
Erkin fikr bildirish	Savol berish, javob berish va yordam so‘rashga tayyorlik	Kuzatish, refleksiya
Teng ishtirok	Guruhli va individual faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlari	Kuzatish varaqasi
O‘zaro hurmat	Masxara, kamsitish va chetlatish holatlarining oldini olish	Suhbat, murojaatlarni tahlil qilish
Pedagogik qo‘llab-quvvatlash	Ijobiy qayta aloqa va individual yordamning mavjudligi	Dars tahlili, pedagogik kuzatish
Ta’limga daxldorlik	O‘quvchining jamoaga mansublik va qabul qilinganlik hissi	Anonim so‘rovnoma, guruhiy muhokama

Monitoring vositalarini qo‘llashda o‘quvchilarning yoshi, rivojlanish xususiyatlari va muloqot imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. So‘rovnomalar o‘quvchini ayblash yoki uning psixologik holatiga tashxis qo‘yish uchun emas, balki ta’lim muhitidagi to‘siqlarni aniqlash va pedagogik sharoitlarni yaxshilash uchun xizmat qilishi kerak. Olingan ma’lumotlar asosida pedagog darsni tashkil etish usullarini qayta ko‘rib chiqishi, zarur yordam shakllarini kengaytirishi va o‘quvchilarning fikrlarini inobatga olishi mumkin. Shu tariqa monitoring bir martalik nazorat emas, balki ta’lim muhitini uzluksiz takomillashtirish jarayoniga aylanadi. Ta’limning universal dizayni tamoyillari asosida psixologik xavfsiz muhitni tashkil etish inklyuziv ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik shartlaridan biridir. Bunday muhit o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlaydi, mustaqil fikrlashiga sharoit yaratadi, xatolardan o‘rganish imkoniyatini kengaytiradi va jamoada o‘zini teng huquqli ishtirokchi sifatida his etishiga yordam beradi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, psixologik xavfsizlik va ta’limning universal dizayni o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’limdagi to‘siqlarni kamaytirish hamda har bir o‘quvchining ishtirokini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, psixologik xavfsiz muhitni shakllantirish uchun pedagog o‘quvchilarning individual farqlarini hisobga olishi, ta’lim materiallarini turli shakllarda taqdim etishi va bilimlarni namoyon etishning muqobil usullarini yaratishi zarur.

Uchinchidan, ijobiy qayta aloqa, xatolarga konstruktiv munosabat, erkin fikr bildirish imkoniyati va hamkorlikka asoslangan faoliyat o‘quvchilarning emotsional farovonligi hamda ta’lim jarayonidagi faolligini qo‘llab-quvvatlaydi.

To‘rtinchidan, psixologik xavfsizlikni ta’minlash faqat pedagogning individual faoliyati bilan cheklanmasligi, balki maktab rahbariyati, psixolog, maxsus pedagog, ota-onalar va boshqa mutaxassislarning hamkorligiga asoslanishi lozim.

Beshinchidan, psixologik xavfsiz muhitni baholashda o‘quvchilarning fikrlari, darsdagi ishtiroki, o‘zaro munosabatlari va yordam olish imkoniyatlari muntazam o‘rganilishi kerak.

Ta’limning universal dizayni tamoyillari asosida tashkil etilgan psixologik xavfsiz muhit har bir o‘quvchining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ta’limdagi tenglikni ta’minlash va inklyuziv pedagogik madaniyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. CAST. CAST Universal Design for Learning Guidelines Version 3.0. Lynnfield, MA: CAST. 2024. https://udlguidelines.cast.org/
2. Meyer, A., Rose, D. H., & Gordon, D. (2014). Universal Design for Learning: Theory and Practice. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing.
3. Edmondson, A. Psychological Safety and Learning Behavior in Work Teams. Administrative Science Quarterly, 44(2), 1999. 354.
4. Rose, D. H., & Meyer, A. (Eds.). A Practical Reader in Universal Design for Learning. Cambridge, MA: Harvard Education Press. 2006.
5. Florian, L., & Black-Hawkins, K. Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal, 2011. 37(5), 820.

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHINI STRATEGIK BOSHQARISH USULLARI

Mansurov Farrux Najmitdinovich,
Samarqand viloyati pedagogik
mahorat markazi Pedagogika, psixologiya
va ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini strategik rejalashtirish va boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Muallif globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish ta’lim tizimi barqarorligining muhim omili ekanini ta’kidlaydi. Maqolada kasbiy rivojlanishning mazmuni, strategik rejalashtirishning mohiyati hamda bu jarayonni samarali tashkil etishning asosiy yondashuvlari — tizimli, kompetensiyaviy va motivatsion yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, strategik rejalashtirish, boshqaruv jarayoni, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, motivatsion yondashuv, ta’lim sifati, pedagogik salohiyat, ichki motivatsiya, innovatsion fikrlash.*

Аннотация. *В данной статье раскрываются научно-теоретические основы стратегического планирования и управления процессом профессионального развития учителей. Автор подчеркивает, что в условиях глобализации и цифровой трансформации повышение профессионального потенциала педагогических кадров является важным фактором устойчивости системы образования. В статье анализируются содержание профессионального развития, сущность стратегического планирования, а также основные подходы к эффективной организации данного процесса — системный, компетентностный и мотивационный подходы.*

Ключевые слова: *профессиональное развитие учителей, стратегическое планирование, управленческий процесс, системный подход, компетентностный подход, мотивационный подход, качество образования, педагогический потенциал, внутренняя мотивация, инновационное мышление.*

Annotation. *This article highlights the scientific and theoretical foundations of strategic planning and management in the process of teachers ʹprofessional development. The author emphasizes that in the context of globalization and digital transformation, enhancing the professional capacity of teaching staff is a crucial factor for the stability of the education system. The study analyzes the content of professional development, the essence of strategic planning, and the main approaches to effectively organizing this process — the systemic, competency-based, and motivational approaches.*

Keywords: *teachers ʹprofessional development, strategic planning, management process, systemic approach, competency-based approach, motivational approach, quality of education, pedagogical potential, intrinsic motivation, innovative thinking.*

Kirish. Globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omiliga aylanmoqda. Har bir jamiyatning barqaror taraqqiyoti, eng avvalo, uning pedagog kadrlarining kasbiy salohiyatiga, yangiliklarga ochiqligi va o‘z ustida ishlash madaniyatiga bog‘liq. Shu bois, ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan rahbarlar va pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayonini strategik rejalashtirish va boshqarish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kasbiy rivojlanish — bu oddiy malaka oshirish jarayoni emas, balki o‘qituvchining o‘z kasbiy kompetensiyalarini, qadriyatlarini, motivatsiyasini va refleksiv tafakkurini uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan dinamik tizimli

jarayondir. Bunday jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish esa, o‘z navbatida, strategik boshqaruv tamoyillarini chuqur tushunish va ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishni talab qiladi. Zamonaviy boshqaruv nazariyalari (F. Teylor, G. Fayol, P. Drucker, H. Mintzberg) hamda ta’lim menejmenti kontsepsiyalariga ko‘ra, strategik rejalashtirish — bu kelajakni oldindan ko‘ra bilish, mavjud resurslar asosida uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun aniq yo‘nalishlar belgilash demakdir. Ta’lim sohasida bu jarayon, bir tomondan, o‘qituvchilarning kasbiy o‘sish yo‘lini tizimlashtirsa, ikkinchi tomondan, ta’lim muassasasining umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashgan boshqaruv mexanizmini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan PF–79-son Farmoni (2023-y.), PQ–231-son Qarori (2024-y.) hamda XTVning 246-son buyrug‘i (2024-y.) kabi normativ-huquqiy hujjatlar, pedagog kadrlar faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, ularning kasbiy rivojlanishini strategik yondashuv asosida boshqarish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Ushbu hujjatlar asosida o‘qituvchilar uchun individual rivojlanish rejalari, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi va kasbiy rivojlanishning indikatorlari (KPI) joriy etilmoqda. Biroq, kasbiy rivojlanishni strategik rejalashtirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud: o‘qituvchilarning strategik fikrlash madaniyatining yetarli emasligi, rejalashtirishda maqsadli ko‘rsatkichlarning aniq belgilanmaganligi, monitoring va tahlil mexanizmlarining sust ishlashi kabi omillar bu yo‘nalishda ilmiy-nazariy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishni talab qiladi.

Asosiy qism. Strategik rejalashtirish mohiyatan tashkilot yoki tizimning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, istiqbolni aniqlash va resurslarni oqilona taqsimlashga qaratilgan boshqaruv faoliyatidir. P. Drucker strategiyani “kelajakni hozirdan qurish san’ati” deb atagan bo‘lsa, H. Mintzberg uni “doimiy tahlil, tanlov va qaror qabul qilish jarayoni” sifatida talqin etadi. Ta’lim tizimida strategik rejalashtirish o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, ularni maktab maqsadlari va davlat siyosati bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayonini boshqarishda bir nechta ilmiy yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. **Tizimli yondashuv** o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini ta’lim tizimining barcha tarkibiy qismlari — rahbariyat, metodik xizmat, o‘qituvchilar jamoasi va tashqi muhit bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadi. Bu yondashuvda rivojlanish individual emas, balki butun maktab jamoasi miqyosida boshqariladigan jarayon sifatida qaraladi.

Bu yondashuvda o‘qituvchilarni rivojlantirish quyidagi savollar asosida amalga oshiriladi:

- **Kimni** rivojlantirish kerak (diagnostika)?

- **Nimani** rivojlantirish kerak (kompetensiyalar, ehtiyojlar)?
- **Qanday rivojlantirish kerak** (usullar, strategiyalar, shakllar)?
- **Qaysi resurslar yordamida** (moddiy, tashkiliy, inson resurslari)?
- **Natija qanday baholanadi** (monitoring, refleksiya, tahlil)?

Kompetensiyaviy yondashuv o‘qituvchining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini real pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatiga urg‘u beradi. Bunda asosiy e’tibor nazariy bilimlarni emas, balki o‘quvchilarning o‘qish motivatsiyasini oshirish, differensial yondashuvni qo‘llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish kabi amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida bilim, ko‘nikma va malakalarni shunchaki o‘zlashtirish emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuv o‘quvchini yoki pedagogni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga, muloqot qilishga va o‘z faoliyatini baholay olishga o‘rgatadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning markazida “nima biladi?” emas, balki “nima qila oladi?” degan savol turadi. Ya’ni o‘qituvchi yoki o‘quvchi o‘z bilimini real hayotiy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi faqat fan bo‘yicha bilimli bo‘lishi emas, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, hamkorlikda ishlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi kasbiy kompetensiyalarni egallashi lozim. Kompetensiyaviy yondashuvning afzalligi shundaki, u ta’limni hayot bilan bog‘laydi, o‘quvchi va o‘qituvchini faol subyektga aylantiradi hamda ta’lim natijasini aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Shu bois, ushbu yondashuv zamonaviy ta’limning poydevori sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida bilim, ko‘nikma va malakalarni shunchaki o‘zlashtirish emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuv o‘quvchini yoki pedagogni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga, muloqot qilishga va o‘z faoliyatini baholay olishga o‘rgatadi. Bu yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi faqat fan bo‘yicha bilimli bo‘lishi emas, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, hamkorlikda ishlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi kasbiy kompetensiyalarni egallashi lozim. Kompetensiyaviy yondashuvning afzalligi shundaki, u ta’limni hayot bilan bog‘laydi, o‘quvchi va o‘qituvchini faol subyektga aylantiradi hamda

ta’lim natijasini aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Shu bois, ushbu yondashuv zamonaviy ta’limning poydevori sifatida qaralmoqda.

Motivatsion yondashuv esa o‘qituvchilarning ichki ehtiyojlari, kasbga sadoqati, o‘z faoliyatida ma’no topish va o‘z-o‘zini anglash jarayoniga e’tibor qaratadi. Zamonaviy boshqaruv nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchini majburiy kurslar emas, balki o‘z kasbiy o‘sishini o‘zi rejalashtira oladigan, erkin tanlov va individual yo‘nalish asosidagi rivojlanish dasturlari yanada samarali natija beradi. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi — bu faqat tashkiliy yoki metodik jarayon emas, balki ichki ehtiyoj va istak bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Shu sababli o‘qituvchilarning malakasini oshirishda **motivatsion yondashuv** muhim o‘rin tutadi. Motivatsion yondashuvning mohiyati — o‘qituvchini o‘zini rivojlantirishga undovchi **ichki turtkilarni shakllantirish** va ularni doimiy qo‘llab-quvvatlashdir. Bunday turtkilar o‘qituvchining o‘z ishidan mamnun bo‘lishi, kasbiy muvaffaqiyat hissi, jamiyatda e’tirof topish, o‘quvchilarning yutuqlaridan faxrlanish kabi omillar orqali yuzaga keladi. Motivatsion yondashuvda rahbariyatning rag‘batlantirish tizimi, do‘stona muhit, tan olish va baholash mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Chunki tashqi rag‘bat ichki motivatsiyani kuchaytiradi, ichki motivatsiya esa o‘qituvchini uzluksiz o‘sishga undaydi. Demak, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishda motivatsion yondashuv ularning faolligini oshiradi, o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi va natijada ta’lim sifati ham sezilarli darajada yuksaladi.

Strategik boshqaruv jarayoni o‘qituvchilarning hozirgi kasbiy salohiyatini tahlil qilishdan boshlanadi. Diagnostika bosqichida o‘qituvchilarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, so‘ng ularning ehtiyojlariga mos rivojlanish maqsadlari belgilanadi. Rejalashtirish bosqichida o‘qituvchining individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish, resurslarni taqsimlash va zarur shart-sharoitlarni yaratish ko‘zda tutiladi. Amalga oshirish bosqichida esa rejalashtirilgan faoliyatlar — seminarlar, treninglar, tajriba almashuvlar, loyiha ishlarining bajarilishi ta’minlanadi. Oxirida monitoring va baholash bosqichi orqali natijalar tahlil qilinadi, o‘qituvchining kasbiy o‘sish dinamikasi aniqlanadi va keyingi strategiya uchun tahliliy asos yaratiladi. Shunday qilib, o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishni strategik boshqarish bu uzluksiz, reflektiv, maqsadli va ilmiy asoslangan jarayondir. U o‘qituvchining kasbiy yetukligini oshirish bilan birga, maktab jamoasida o‘zaro o‘rganish va innovatsion madaniyatni shakllantiradi.

Xulosa. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini strategik rejalashtirish va boshqarish-bu zamonaviy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi eng muhim boshqaruv mexanizmlaridan biridir. Ushbu jarayon o‘qituvchining

bilim, koʻnikma va qadriyatlarini muntazam yangilash, ularning kasbiy salohiyatini oshirish hamda taʼlim sifatini yuqori bosqichga koʻtarish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Tizimli, kompetensiyaviy va motivatsion yondashuvlar integratsiyasi oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini kompleks tarzda boshqarish imkonini beradi. Tizimli yondashuv jarayonni butun taʼlim muassasasi darajasida boshqarishni taʼminlasa, kompetensiyaviy yondashuv oʻqituvchining amaliy faoliyatda samarali ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Motivatsion yondashuv esa oʻqituvchining ichki motivlarini faollashtirib, oʻz ustida ishlashga, yangilikka intilishga undaydi. Strategik rejalashtirish oʻqituvchilarning kasbiy rivojlanishini ilmiy asoslangan, maqsadga yoʻnaltirilgan va natijadorlikka qaratilgan jarayonga aylantiradi. Bunday yondashuv orqali har bir pedagog oʻz kasbiy yoʻlini ongli rejalashtira oladi, taʼlim muassasalari esa oʻzining umumiy rivojlanish strategiyasini samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladi. Shu bois, oʻqituvchilarni kasbiy rivojlantirishni strategik boshqarish taʼlim tizimida sifatli oʻzgarishlar, innovatsion fikrlash va barqaror natijalarga erishishning muhim garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Выготский Л. С. Психология развития человека. — М.: Смысл, 2005.
2. Fullan M. *The New Meaning of Educational Change.* — New York: Teachers College Press, 2007.
3. Hargreaves A., Fullan M. *Professional Capital: Transforming Teaching in Every School.* — New York: Teachers College Press, 2012.
4. Mintzberg H. *The Rise and Fall of Strategic Planning.* — New York: Free Press, 1994.
5. Drucker P. *Management: Tasks, Responsibilities, Practices.* — New York: Harper & Row, 1973.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-dekabrdagi PF–79-son Farmoni.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-yanvardagi PQ–231-son Qarori.
8. Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining 2024-yil 8-maydagi 246-son buyrugʻi.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLIKLARIDAGI SHE’RLARDA TAKROR SO‘ZLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Usmonova Dilnoza Komildjonovna
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi
boshlang‘ich ta’lim metodisti,

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf «O‘qish kitobi» darsliklaridagi she’rlarda qo‘llanilgan takror vositalari – so‘z takrori, takroriy va juft so‘zlar, anafora, epifora, naqarat va tovush takrori – lingvopoetik va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Takrorning she’r ritmini yaratish, obrazni kuchaytirish, matnni eslab qolish hamda o‘quvchining o‘qish texnikasi va nutqini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab beriladi. Muallif tomonidan «Takror ovchisi», «Aks-sado o‘qish», «Ritm zinapoyasi», «Takror xaritasi» kabi metodlar va ularni qo‘llashga oid dars namunasi taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, o‘qish darsi, bolalar she’riyati, takror, takroriy so‘zlar, anafora, naqarat, ritm, ifodali o‘qish, o‘qish savodxonligi.*

Аннотация. *В статье с лингвопоэтической и методической точки зрения анализируются средства повтора в стихотворениях учебников «Книга для чтения» начальных классов: лексический повтор, повторные и парные слова, анафора, эпифора, рефрен и звуковой повтор. Обосновывается роль повтора в создании ритма, усилении образа, запоминании текста, развитии техники чтения и речи учащихся. Автор предлагает методы «Охотник за повторами», «Чтение-эхо», «Ритмическая лесенка», «Карта повторов» и образец урока по их применению.*

Ключевые слова: *начальное образование, урок чтения, детская поэзия, повтор, повторные слова, анафора, рефрен, ритм, выразительное чтение, читательская грамотность.*

Abstract. *The article analyzes, from linguopoetic and methodological perspectives, the devices of repetition in poems from primary school reading textbooks: lexical repetition, reduplicated and paired words, anaphora, epiphora, refrain and sound repetition. It substantiates the role of repetition in creating rhythm, strengthening imagery, supporting memorization, and developing pupils’ reading fluency and speech. The author proposes the methods «Repetition Hunter», «Echo Reading», «Rhythm Ladder» and «Repetition Map», together with a sample lesson.*

Keywords: *primary education, reading lesson, children’s poetry, repetition, reduplication, anaphora, refrain, rhythm, expressive reading, reading literacy.*

KIRISH. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining badiiy matn bilan ilk jiddiy uchrashuvi ko‘pincha she’r orqali yuz beradi. Kichik hajmli, ohangdor va oson yodlanadigan she’rlar «O‘qish kitobi» darsliklarining salmoqli qismini tashkil etadi. Davlat ta’lim standartida ham boshlang‘ich sinfda ifodali o‘qish va badiiy matnni tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy talablardan biri sifatida belgilangan [1; 2]. Ularda Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Anvar Obidjon kabi bolalar shoirlarining asarlari bilan bir qatorda xalq og‘zaki ijodi namunalari – qo‘shiqlar, tez aytishlar, sanamalar ham o‘rin olgan.

3. Деркач А.А., Зазыкин В.Г. Акмеология: учебное пособие. — СПб.: Питер, 2003.
4. Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. — М.: Магистр, 1997.
5. Подымова Л.С. Подготовка учителя к инновационной деятельности. — Pedagogik adabiyotlar asosida muallif tomonidan to‘ldiriladi.

PISA VA TIMSS TOPSHIRIQLARINING HAYOTIYLIGI VA XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORGARLIKDA RIVOJLANTIRILADIGAN KO‘NIKMALAR

Teshayeva Mohidil Botirovna
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
fizika - astronomiya fani metodisti

Annotatsiya. *Maqolada PISA va TIMSS topshiriqlarining hayotiy vaziyatlarga yaqinligi hamda xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchilarda rivojlantiriladigan ko‘nikmalar tahlil qilinadi. Funksional savodxonlik, tanqidiy va mantiqiy fikrlash, muammolarni hal etish hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается жизненная направленность заданий PISA и TIMSS, а также навыки, развиваемые у учащихся при подготовке к международным исследованиям. Раскрываются пути формирования функциональной грамотности, критического и логического мышления, умения решать проблемы и применять знания на практике. Даны рекомендации для учителей.*

Annotation. *The article examines the real-life relevance of PISA and TIMSS tasks and the skills developed in students while preparing for international assessments. It highlights ways to build functional literacy, critical and logical thinking, problem-solving, and the ability to apply knowledge in practice. Recommendations for teachers are also provided.*

Kirish. Xalqaro baholash tadqiqotlari bugungi kunda ta’lim sifatini mamlakatlar kesimida solishtirishning asosiy vositalaridan biriga aylangan. Ular orasida PISA (Programme for International Student Assessment) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) tadqiqotlari o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha tayyorgarligini baholashda eng ko‘p e’tirof etilgan dasturlardir. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish va ularda yutuqlarga erishish vazifasi qo‘yilgan.

Biroq amaliyotda bu tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘pincha namunaviy topshiriqlarni yechtirish bilan cheklanib qolmoqda. Holbuki, PISA va TIMSS topshiriqlarining asosiy xususiyati ularning mazmuni emas, balki topshiriqlarda qo‘llaniladigan fikrlash usullari va hayotiy kontekstidir. Shu sababli tayyorgarlikning samarali yo‘li “test mashq qildirish” emas, balki topshiriqlar talab qiladigan ko‘nikmalarni dars jarayonida izchil shakllantirishdir.

Mazkur maqolaning maqsadi - PISA va TIMSS topshiriqlarining hayotiyligini tahlil qilish hamda xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rishda qaysi ko‘nikmalarga alohida e’tibor qaratish lozimligini aniqlashdir.

PISA va TIMSS: maqsad, mazmun va asosiy farqlar

PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan har uch yilda o‘tkaziladi va 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika hamda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholaydi. Uning asosiy savoli: majburiy ta’limni tugatayotgan o‘quvchi o‘rgangan bilimini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladimi? Shu sababli PISA o‘quv dasturining muayyan mavzularini emas, balki bilimni qo‘llash qobiliyatini tekshiradi.

TIMSS tadqiqoti esa Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan har to‘rt yilda o‘tkaziladi va 4- hamda 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishini o‘lchaydi. TIMSS ko‘proq o‘quv dasturi mazmuniga asoslanadi, ya’ni mamlakatlarning o‘quv rejalarida qamrab olingan mavzularning o‘zlashtirilish darajasini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, uning topshiriqlari ham uch fikrlash sohasiga bo‘linadi: bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish.

Quyidagi jadvalda ikki tadqiqotning asosiy farqlari keltirilgan.

Mezon	PISA	TIMSS
Tashkilotchi	OECD	IEA
Davriylik	Har 3 yilda	Har 4 yilda
Baholanuvchilar	15 yoshli o‘quvchilar	4- va 8-sinf o‘quvchilari
Yo‘nalishi	Savodxonlik: bilimni hayotda qo‘llash	O‘quv dasturi mazmunining o‘zlashtirilishi

Mezon	PISA	TIMSS
Fanlar	O‘qish, matematika, tabiiy fanlar	Matematika, tabiiy fanlar
Fikrlash sohalari	Jarayon kompetensiyalari (masalan, tabiiy fanlarda: hodisani tushuntirish, tadqiqotni baholash, ma’lumotni talqin qilish)	Bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish
Topshiriq xususiyati	Hayotiy kontekstdagi matn va ma’lumotga asoslangan murakkab vaziyatlar	Dastur mavzulari bo‘yicha, ammo qo‘llash va mulohazaga yo‘naltirilgan topshiriqlar

Ikki tadqiqot yondashuvi jihatidan farq qilsa-da, ularning topshiriqlarida umumiy xususiyat bor: ikkalasi ham yodlangan ma’lumotni takrorlashni emas, balki tushunish, qo‘llash va asoslashni talab qiladi. Shu sababli bir tadqiqotga tayyorgarlikda rivojlangan ko‘nikmalar ikkinchisida ham natijaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Topshiriqlarning hayotiyligi

PISA topshiriqlari odatda “birlik” (unit) shaklida tuziladi: avval o‘quvchiga hayotiy vaziyat taqdim etiladi (qisqa matn, jadval, grafik, diagramma, reklama, hujjat yoki tajriba tavsifi), so‘ng shu vaziyat bo‘yicha bir nechta savol beriladi. Savollar yopiq (bitta to‘g‘ri javobli), murakkab ko‘p tanlovli yoki ochiq turdagi bo‘lib, ochiq savollarda o‘quvchi javobini o‘zi shakllantirib, asoslab yozishi kerak bo‘ladi. Vaziyatlar kontekstiga ko‘ra shaxsiy, mahalliy yoki milliy va global muammolarga bo‘linadi: oziq-ovqat va sog‘liq, energiya va suv iste’moli, atrof-muhit, texnologiya, moliyaviy qarorlar va hokazo.

Hayotiylik bu yerda ikki ma’noda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, topshiriq mavzusi o‘quvchining kundalik hayotiga yaqin bo‘ladi. Ikkinchidan, savolga javob berish uchun o‘quvchi aynan hayotda kerak bo‘ladigan harakatlarni bajaradi: jadvaldan kerakli ma’lumotni topadi, ikki variantni solishtiradi, e’londagi da’voni tekshiradi, narx yoki miqdorni hisoblaydi, qaror qabul qiladi. TIMSS topshiriqlarida ham, ayniqsa “qo‘llash” va “mulohaza yuritish” sohalarida, formulani bevosita qo‘yishdan ko‘ra vaziyatni tahlil qilib, yechim yo‘lini o‘zi tanlash talab etiladi.

Hayotiy topshiriqning xarakterini ko‘rsatish uchun quyida muallif tomonidan tuzilgan (rasmiy testlardan ko‘chirilmagan) namunaviy topshiriqlar keltirilgan.

Fan	Namunaviy hayotiy vaziyat	Talab qilinadigan fikrlash
Matematika	Ikki mobil aloqa tarifi: birida abonent to‘lovi yuqori, ammo daqiqa narxi past; ikkinchisida aksincha. Oila oyiga taxminan 300 daqiqa gaplashadi. Qaysi tarif foydaliroq?	Vaziyatni matematik modelga aylantirish, hisoblash, natijani izohlash va qaror asoslash
Fizika	Qishda uyning devori va derazasi orqali issiqlik yo‘qotilishi diagrammasi berilgan. Isitish xarajatini kamaytirish uchun avval qaysi qismni yaxshilash kerak?	Diagrammadan ma’lumot olish, sabab-oqibatni aniqlash, dalil bilan tanlov qilish

Fan	Namunaviy hayotiy vaziyat	Talab qilinadigan fikrlash
Biologiya	Ijtimoiy tarmoqda “ma’lum o‘simlik choyi shamollashni bir kunda davolaydi” degan e’lon va kichik tajriba ma’lumotlari berilgan. E’lon qanchalik ishonarli?	Dalilning yetarliligini baholash, nazorat guruhining ahamiyatini tushunish, tanqidiy xulosa chiqarish
Kimyo	Yuvish vositasi yorlig‘ida tarkib va ehtiyot choralari ko‘rsatilgan. Uni boshqa tozalash vositasi bilan aralashtirish xavfliligini qanday aniqlash mumkin?	Matndan ma’lumot ajratish, kimyoviy bilimni yangi vaziyatga qo‘llash
Geografiya ekologiya	Hudud bo‘yicha yillik yog‘in miqdori va suv sarfi grafigi berilgan. Suv tanqisligi xavfi qaysi oylarda kuchayadi va qanday chora ko‘rish mumkin?	Grafikni o‘qish va talqin qilish, tendensiyani aniqlash, taklif ishlab chiqish

Ko‘rinib turibdiki, bu topshiriqlarning har birida to‘g‘ri javobdan tashqari, o‘quvchining fikrlash yo‘li ham muhim. Shuning uchun PISA va TIMSS natijalari o‘quvchi nimani bilishidan ko‘ra, bilganini qanday ishlata olishini ko‘rsatadi.

Tayyorgarlikda e’tibor beriladigan asosiy ko‘nikmalar

PISA va TIMSS topshiriqlarini tahlil qilish natijasida tayyorgarlik jarayonida quyidagi ko‘nikmalarni ustuvor rivojlantirish maqsadga muvofiq ekani aniqlandi.

1. Funksional o‘qish va matn bilan ishlash. Ikkala tadqiqotda ham topshiriq sharti ko‘pincha uzun, ma’lumotga boy bo‘ladi. O‘quvchi kerakli ma’lumotni topishi, ortiqcha ma’lumotni ajratishi, matn ma’nosini tushunishi va uni talqin qilishi lozim. Matematika va tabiiy fanlardagi xatoning katta qismi bilim yetishmasligidan emas, savol sharti noto‘g‘ri tushunilganidan kelib chiqadi.

2. Ko‘p shaklli ma’lumot bilan ishlash. Jadval, grafik, diagramma, xarita, sxema va rasmni o‘qish, ularni o‘zaro bog‘lash hamda matn bilan solishtirish topshiriqlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu ko‘nikma o‘quvchi bir shakldagi ma’lumotni boshqa shaklga o‘tkaza olishini (masalan, jadvalni grafikka yoki matnni tenglamaga) ham o‘z ichiga oladi.

3. Matematik modellashtirish va miqdoriy fikrlash. Hayotiy vaziyatni matematik tilga o‘tkazish, mos amalni tanlash, taxminiy hisoblash, nisbat va foizlar bilan ishlash, olingan natijani vaziyatga qaytarib izohlash – PISA matematikasining markaziy talabi, TIMSS dagi “qo‘llash” sohasining ham asosidir.

4. Tabiiy-ilmiy mulohaza va tadqiqot ko‘nikmalari. Hodisaning sababini ilmiy tushunchalar asosida tushuntirish, farazni tekshirish uchun tajriba rejalashtirish, o‘zgaruvchilarni nazorat qilish, kuzatuv ma’lumotlaridan xulosa chiqarish va xulosaning cheklovlarini ko‘rsatish - tabiiy fan topshiriqlarida eng ko‘p uchraydigan talablardir.

5. Tanqidiy fikrlash. O‘quvchi da’voni dalil bilan asoslay olishi, dalilning ishonchliligini baholashi, muqobil tushuntirishni ko‘rishi kerak. Ochiq savollarda baho ko‘pincha javobning to‘g‘riligidan tashqari, uning asoslanganligiga ham beriladi.

6. Fikrni yozma bayon qilish. Ochiq javobli topshiriqlarda o‘quvchi o‘z yechim yo‘li va xulosasini aniq, qisqa va mantiqiy ketma-ketlikda yozishi lozim.

Ko‘plab o‘quvchilar to‘g‘ri o‘ylasa-da, buni yozma ifodalay olmagani sababli ball yo‘qotadi.

7. Raqamli savodxonlik. Hozirgi bosqichda tadqiqotlar asosan kompyuterda o‘tkaziladi. Shu bois ekranda matn va grafikni o‘qish, interaktiv elementlar (surish, tanlash, jadvalni to‘ldirish) bilan ishlash, ekrandagi kalkulyator va boshqa vositalardan foydalanish ko‘nikmalari natijaga bevosita ta’sir qiladi.

8. O‘z-o‘zini boshqarish va vaqtni taqsimlash. Testning davomiyligi, topshiriqlarning murakkabligi va ketma-ketligi o‘quvchidan diqqatni uzoq saqlash, qiyin savolda to‘xtab qolmay keyingisiga o‘tish, oxirida qaytib tekshirish kabi qobiliyatlarni talab qiladi.

Sanalgan ko‘nikmalarning hammasi, aslida, hayotiy ko‘nikmalar (qaror qabul qilish, muammoni hal etish, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash) bilan bir butun bo‘lib, ularni alohida “test tayyorgarligi” sifatida emas, dars jarayonining tabiiy qismi sifatida rivojlantirish zarur.

Amaliy tavsiyalar va xulosa

Yuqoridagi tahlil asosida xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlikni tashkil etishda quyidagi yo‘nalishlarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. **Dars topshiriqlarini kontekstli qilish.** Darslikdagi tayyor masalalarning bir qismini hayotiy vaziyat (tarif, retsept, dori yo‘riqnomasi, suv va energiya sarfi, mahalliy ekologik muammo) asosida qayta tuzish. Bunda shartda ortiqcha yoki yetishmayotgan ma’lumot bo‘lishi ham mumkin.
2. **Bitta savolni turli shaklda berish.** Bir xil mazmunni matn, jadval, grafik va diagramma ko‘rinishida taqdim etib, o‘quvchini ma’lumot shakllari o‘rtasida o‘tishga o‘rgatish.
3. **“Nima uchun?” va “qanday bilasan?” savollarini muntazam qo‘llash.** Har bir javobdan keyin o‘quvchidan dalil va asoslashni so‘rash, ochiq javobli topshiriqlarni oyiga kamida bir necha marta berish.
4. **Baholashda jarayonga e’tibor berish.** Rubrika yordamida faqat natijani emas, yechim yo‘li, dalil va xulosaning asoslanganligini ham baholash; o‘quvchilarga o‘zaro baholash imkonini berish.
5. **Raqamli muhitga ko‘niktirish.** Kompyuter yoki planshetda topshiriq bajarishni, ekrandan o‘qishni va interaktiv elementlar bilan ishlashni muntazam mashq qilish.
6. **Vaqt bilan ishlashga o‘rgatish.** Chegaralangan vaqtda topshiriqlarni bajarish mashqlarini o‘tkazib, o‘quvchida o‘z kuchini taqsimlash va qiyin savolni keyinga qoldirish odatini shakllantirish.
7. **O‘qituvchilar malakasini oshirish.** Metodik qo‘llanmalarda o‘tgan yillarda e’lon qilingan namunaviy topshiriqlarni birgalikda tahlil qilish, ularning qaysi ko‘nikmani tekshirishini aniqlash va shu asosida o‘zining mahalliy topshiriqlar bankini yaratish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tayyorgarlik faqat namunaviy test savollarini ko‘p yechtirishga aylanib qolsa, bu o‘quvchining ko‘nikmalarini emas, faqat test shakliga moslashuvini oshiradi va uzoq muddatli samara bermaydi. Aksincha,

hayotiy vaziyatlarga asoslangan o‘qitish o‘quvchining haqiqiy savodxonligini oshirib, xalqaro tadqiqotlardagi natijalarga tabiiy ravishda ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. PISA va TIMSS topshiriqlari bilim hajmini emas, bilimni hayotiy vaziyatda qo‘llash, ma’lumotni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini tekshiradi. Shu sababli tayyorgarlikda funksional o‘qish, ko‘p shaklli ma’lumot bilan ishlash, modellashtirish, ilmiy mulohaza, argumentatsiya, yozma bayon, raqamli savodxonlik va vaqtni boshqarish ko‘nikmalariga ustuvor e’tibor berilishi lozim. Bu ko‘nikmalar dars jarayonining har bir bosqichiga singdirilsa, o‘quvchilarning xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarligi ham, ularning hayotga tayyorligi ham sifat jihatdan oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021 y., 09/21/545/0832-son; 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son.
2. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6268/0700-son; 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son.
3. M.Q.Oripova, PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturining ahamiyati // Konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. 166-169 B.
4. A.A.Ismailov, O‘quvchilarning yutuqlarini xalqaro tadqiqot dasturlari asosida baholash // “Ta’limdagi xalqaro tadqiqotlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami – Toshkent: Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2022. – 21-26 b.
5. Шляйхер А. Образование Мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? //Издательство Национальное образование. ФИОКО Москва. 2019. - 27с.
6. OECD&UNESCO. Literacy skills for the world of tomorrow. Further results from PISA 2000. OESD, UNESCO, 2003.
7. OECD. Measuring student knowledge and skills. A new Framework for Assessment. OECD, 1999.

XORIJIY DAVLATLARDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASINI RIVOJLANISH TARIXI

Toshtemirova Maftuna Karimovna
Denov tadbirkorlik hamda pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, xususan, maktabgacha ta’lim jarayonida STEM-ta’lim yondashuvini qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda STEM-ta’limning mazmun-mohiyati, uning fanlararo integratsiyaga asoslanganligi, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik va matematikaning o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilingan. Shuningdek, modellashtirish, konstruksiyalash, robototexnika, dasturlash va 3D-loyihalash kabi zamonaviy yo‘nalishlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligi, ijodiy va mantiqiy fikrlashi, tadqiqotchilik hamda amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada STEM-ta’limning shakllanish tarixi, AQSH va Rossiya ta’lim tizimida rivojlanishi hamda uning maktabgacha va umumiy ta’lim bosqichlariga tatbiq etilishi haqida fikrlar bayon etilgan. Shu bilan birga, STEM yondashuvining nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, bolalarda muammoli vaziyatlarni hal etish, kashf qilish va tadqiq etish kompetensiyalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar. *STEM-ta’lim, maktabgacha ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, fanlararo integratsiya, tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, muhandislik, modellashtirish, konstruksiyalash, robototexnika, dasturlash, 3D-loyihalash, vizualizatsiya, amaliy faoliyat, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, kompetensiya, innovatsion ta’lim.*

KIRISH. Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida o‘qitish sifatini oshirish maqsadida pedagogik innovatsiyalar va kompyuter metodologiyalarini faol joriy etish amalga oshirilmoqda, chunki sifat ta’lim jarayoni samaradorligining belgilovchi mezonidir. Maktabgacha ta’lim pedagoglari ushbu texnologiyalarni o‘z ishlariga faol tatbiq etmoqdalar, shu sababli ularning asosiy vazifasi bolalar bilan ishlashni tashkil etish usullari va shakllarini aniqlashdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari — bu TRIZ metodikasidan tortib, negizida loyiha ustida jamoaviy ishlash yotadigan STEM-ta’limni rivojlantirishgacha bo‘lgan turli innovatsiyalarni sinab ko‘rish uchun haqiqiy poligondir. Bundan tashqari, STEAM ijodkorlik, emotsiyalar va tuyg‘ular uchun javob beradigan miyaning o‘ng yarim sharini ishga solishga imkon beradi. [1]

Zamonaviy dunyo ta’lim oldiga murakkab vazifalarni qo‘ymoqda: o‘rganish qiziqarli bo‘lishi, ta’lim maroqli shaklda o‘tishi, bilim esa amaliyotda qo‘llanilishi kerak. Yuqori texnologik mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ta’limdagi integratsion tendensiya rolining ortishi zamonaviy jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida — axborot bosqichida mavjud bo‘lishiga olib keldi. Axborot texnologiyalari ishlab chiqarishda, kundalik hayotda, ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda hamda jamiyat rivojlanishini tezlashtirishga qodir. Yuqori texnologik innovatsiyalar, shiddatli axborot oqimlari va ishlanmalar hayotimizning barcha sohalarini o‘zgartirmoqda, shuningdek jamiyat rivojlanishini tezlashtirishga qodir. Yuqori texnologik innovatsiyalar, shiddatli axborot oqimlari va ishlanmalar hayotimizning barcha sohalarini o‘zgartirmoqda,

shuningdek, shaxsning qiziqishlari hamda jamiyat ehtiyojlari ham o‘garib bormoqda.

Modellashtirish, robototexnika, dasturlash, konstruksiyalash, 3D-loyihalash va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar — butun dunyodagi zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o‘quvchilarini qiziqtirayotgan omillardir. Ushbu qiziqishlarni amalga oshirish uchun esa yanada murakkab kompetensiyalar va ko‘nikmalar talab etiladi. Faqat bilish va uddalashning o‘zi yetarli emas, balki kashf qilish hamda tadqiq etish ham muhimdir. [4]Bir vaqtning o‘zida matematika va fan, muhandislik hamda texnologiya kabi asosiy akademik sohalarda rivojlanish talab etiladi, bularni bir so‘z bilan — STEM (science, technology, engineering and mathematics) deb birlashtirish mumkin. Ushbu qisqartma (abbreviatura) ham ushbu fanlarni birlashtirish, ham ta’lim jarayoniga alohida yondashuvni belgilash uchun qo‘llaniladi.

STEM-yondashuvning mohiyati shundaki, bilimlarni egallash asolida ilmiy hodisalarni ko‘rgazmali tasvirlash (vizualizatsiya) yotadi, bu esa barcha nazariy qonuniyatlarni va ularning amaliy qo‘llanilishini ko‘rgazmali tarzda ko‘rish hamda u yoki bu hodisa, jarayon, tabiat qonuni va hokazolarni tushunish imkonini beradi. STEM-ta’lim asosida fanlar alohida-alohida emas, balki hammasi birgalikda va amaliy masalalarga tatbiq etilgan holda o‘rganiladi. Aynan shunday integrativ yondashuv shunchaki bilimlar majmuasini yodlamasdan, vaziyatni yaxlit (birtutash) ko‘rish imkonini beradi.

STEM-ta’limning paydo bo‘lishi amerikalik olim R. Kolvell nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u 1990-yillarda "STEM" qisqartmasini taklif etgan, keyinchalik AQSH Milliy fan jamg‘armasi ushbu atamani tabiiy fanlar, texnika, muhandislik va matematikani birlashtiruvchi atama sifatida faol qo‘llay boshlagan. Ushbu g‘oya AQSH jamoat tashkilotlari, hukumati va ko‘plab korporatsiyalari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Natijada STEM tamoyillari ko‘plab Amerika universitetlarida ta’lim dasturlarini shakllantirish uchun faol qo‘llanila boshlandi. [5]

Bugungi kunda AQSH oliy ta’lim tizimida tayyorlov dasturlari STEM konsepsiyasiga muvofiq tuzilgan yuzlab ilmiy va muhandislik mutaxassisliklari mavjud. Bunda talabaning diplom ishi texnologik kompaniyadagi amaliyot hamda mutaxassislar bilan yelkama-yelka murakkab texnologik loyihalarda ishtirok etish bilan birlashtiriladi. Bu tufayli texnologik kompaniyalar universitetni bitirish bilanoq yuqori malakali mutaxassislarga ega bo‘ladilar. Keyinchalik ushbu yondashuv dunyoning ko‘plab mamlakatlari tomonidan ommalashtirildi. Hozirgi vaqtda STEM-mutaxassislarni tayyorlash Fransiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Xitoy, Kanada, Turkiya va bir qator boshqa mamlakatlar OOTlarida olib borilmoqda. Geografiyaning kengayishi bilan bir vaqtda STEM-yondashuv

elementlarining ta’lim piramidasi bo‘ylab pastga, ya’ni maktab va maktabgacha ta’lim tizimiga yoyilishi ham yuz berdi.

Rossiyada STEM-ta’limning faol rivojlanishi 2010-yildan boshlandi. Ko‘plab OOTlar fan, texnologiya va matematika (STEM) sohasidagi ta’lim yetakchilarining nufuzli xalqaro tarmog‘iga a’zo bo‘ldilar. 2014-yilda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V. Putin Federal Majlisga Yo‘llagan murojaatnomasida muhandislik ta’limini jahon darajasiga olib chiqish vazifasini topshirdi, bu esa RF Prezidentining 01.12.2016-yildagi 642-sonli "Rossiya Federatsiyasining ilmiy-texnologik rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmonida o‘z aksini topdi.[1] Bu jamiyatimiz va davlatimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini berdi. Bolalar ta’lim muassasalari, maktablar va institutlarda esa loyihalash, robototexnika, modellashtirish va konstruksiyalash yetakchi o‘rinni egallay boshlamoqda.

STEM-ta’lim — bu, eng avvalo, tabiiy fanlarni muhandislik, texnologiya va matematika bilan birgalikda o‘rganishni o‘z ichiga olgan to‘laqonli va tizimli ta’limdir. Shuningdek, bu o‘quvchilarga amaliy va fanlararo (pantara) yondashuvni qo‘llagan holda ta’lim berish g‘oyasi asosida loyihalashtirilgan o‘quv rejasidir.

Zamonaviy ilg‘or tizim, an’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, o‘rganilayotgan ilmiy metodni kundalik hayotda qanday qo mezonlarda qo‘llash mumkinligini amalda ko‘rsatishga imkon beruvchi aralash muhitni ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘quvchilar matematika va fizikadan tashqari dasturlash hamda robototexnikani ham tadqiq etadilar. Bolalar aniq fanlar bilimlarining amalda qo‘llanishini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar.

STEM-ta’lim o‘quv jarayoni, karyera va keyingi kasbiy o‘sishni bog‘laydigan o‘ziga xos ko‘prikdir. Innovatsion ta’lim konsepsiyasi bolalarni texnik jihatdan rivojlangan dunyoga professional darajada tayyorlash imkonini beradi.

STEM-ta’limning tamoyillari va texnologiyalari.

STEM-yondashuvning **asosiy maqsadi** — an’anaviy ta’limga xos bo‘lgan amaliy masalalarni yechishdan uzilib qolganlikni bartaraf etish hamda o‘quvchilar uchun o‘quv fanlari o‘rtasida tushunarli aloqalarni o‘rnatishdir.

STEM-ta’lim asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. Ta’limni tashkil etishning loyiha shakli va STEMning amaliy yo‘naltirilganligi (an’anaviy sinf-dars ta’limiga nisbatan) Davlat ta’lim standartlari (DTS / FGOS) talablarini amalga oshirish uchun yanada qulay motivatsion va predmetli zamin yaratadi:

— faol o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

— ijtimoiy ahamiyatga ega mehnatda ishtirok etish va amaliy tajriba ortirish;

— olingan bilimlarni amaliyotda, shu jumladan ijtimoiy-loyihaviy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini shakllantirish;
— tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlikda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish;
— kasblar olamida mo‘ljal olish hamda kelajakdagi kasbni tanlashning asos sifatida barqaror bilish qiziqishlarini shakllantirish.

2. Fanlararo aloqadorlikka yo‘naltirilganlik va STEM doirasida toplanib borilgan matematika va tabiiy fanlarni kompleks o‘zlashtirish tajribasi quyidagilar uchun yanada qulay sharoitlarni yaratadi:

— ta’limiy masalalarni yechishda matematik va tabiiy-ilmiy bilimlarni qo‘llash;
— gipotezalarni (taxminlarni) shakllantirish, tajribalarni rejalashtirish va o‘tkazish, olingan natijalarni baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
— insonning kundalik hayotida matematika va informatikaning ahamiyatini anglash;
— real vaziyatlarni algebra va geometriya tillarida modellashtirish hamda qurilgan modellarni matematik usullar bilan tadqiq etish ko‘nikmasini shakllantirish;
— statistik ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
— mashina va mexanizmlar, harakatlanish va aloqa vositalari, maishiy texnikalar, sanoat texnologik jarayonlari va hokazolarning fizik asoslari hamda ishlash tamoyillarini tushunish.

Metodik darajada STEM-yondashuv shuni nazarda tutadiki, texnologik masalalarni yechishdan tashqari, loyiha faoliyatida bolalar:
— jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar;
— konstruktiv (bunyodkorona) tanqid qilish va o‘z fikrini himoya qilishni o‘rganadilar;
— taqdimot qilish (prezentatsiya) kompetensiyalarini o‘zlashtiradilar;
— noaniqlik sharoitida g‘oyalarni generator qilishni (ishlab chiqishni) o‘rganadilar;
— mahsulot yaratish va uni ommalashtirish uchun dizayn hamda marketing tamoyillarini qo‘llaydilar;
— faoliyatning turli sohalarida texnologiyalarni qo‘llashning ijodiy potensialini anglaydilar.

Shunday qilib, o‘quv-tarbiya jarayonida ham "qattiq" ko‘nikmalarni (*hard skills*), ham "yumshoq" ko‘nikmalarni (*soft skills*) shakllantirish va rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Sanders M. STEM, STEM Education, STEMmania // The Technology Teacher. — 2009. — Vol. 68, No. 4. — P. 20–26.

2. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. — Arlington, VA: NSTA Press, 2013. — 130 p.
3. Kelley T.R., Knowles J.G. A conceptual framework for integrated STEM education // International Journal of STEM Education. — 2016. — Vol. 3. — Article 11.
4. National Research Council. Successful K-12 STEM Education: Identifying Effective Approaches in Science, Technology, Engineering, and Mathematics. — Washington, DC: The National Academies Press, 2011.
5. Honey M., Pearson G., Schweingruber H. (Eds.). STEM Integration in K-12 Education: Status, Prospects, and an Agenda for Research. — Washington, DC: The National Academies Press, 2014.
6. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. — Virginia Polytechnic Institute and State University, 2008.
7. Российская Федерация. Указ Президента Российской Федерации от 01.12.2016 № 642 «О Стратегии научно-технологического развития Российской Федерации».
8. Федеральный государственный образовательный стандарт дошкольного образования. — Москва: Министерство образования и науки Российской Федерации, 2013.
9. Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста: парциальная модульная программа развития интеллектуальных способностей. — Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2018.
10. Кузнецова В.А. STEM-образование как инновационный подход в современном образовательном процессе // Современные проблемы науки и образования. — Москва.
11. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — Москва: Народное образование, 1998. — 256 с.

O‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATINI O‘ZINI TAHLIL QILISH, REJALASHTIRISH VA NATIJADORLIGINI BAHOLASH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Melliyeva Dilfuza O‘ralovna
Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida pedagogik refleksiya, o‘quv faoliyatini tahliliy monitoring qilish, baholash va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyalarining o‘rni yoritilgan. Ta’lim sifatini ta’minlashda an’anaviy ma’muriy nazoratdan ko‘ra, pedagogning o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, dars jarayonini monitoring qilishi, hamkasblari bilan hamkorlikda rejalashtirish va kasbiy tajriba almashishining samaradorligi asoslangan. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy o‘z-o‘zini anglashi uning «Men» konsepsiyasini shakllantiruvchi muhim psixologik-pedagogik omil sifatida tahlil etilib, uning kognitiv, affektiv va faoliyatli sathlari ochib berilgan. Maqolada pedagogik faoliyatni mezonli*

baholash, o‘z-o‘zini baholash, refleksiv tahlil hamda dars natijalarini korreksiyalash mexanizmlarining o‘qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Pedagogik refleksiya asosida o‘qituvchining o‘z faoliyatidagi muammolarni aniqlashi, ularning sabablarini tahlil qilishi, muqobil yechimlarni ishlab chiqishi va keyingi pedagogik faoliyatini prognostik rejalashtirishi uzluksiz kasbiy rivojlanishning muhim sharti sifatida asoslangan. Shuningdek, D. Sho‘nning reflektiv amaliyot konsepsiyasi asosida pedagogning o‘z faoliyatini anglash, baholash va takomillashtirish jarayonlari nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar. P*edagogik refleksiya, kasbiy rivojlanish, o‘qituvchining o‘z-o‘zini anglashi, kasbiy «Men» konsepsiyasi, reflektiv amaliyot, tahliliy monitoring, pedagogik faoliyat, o‘z-o‘zini baholash, mezonli baholash, kasbiy kompetensiya, metakognitiv boshqaruv, pedagogik hamkorlik, jamoaviy rejalashtirish, kasbiy hamkorlik, dars tahlili, prognostik rejalashtirish, pedagogik korreksiya, uzluksiz kasbiy rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье освещается роль педагогической рефлексии, аналитического мониторинга образовательной деятельности, оценочных и самооценки компетенций в профессиональном развитии учителя. Обеспечение качества образования основывается на эффективности регулярного анализа учителем собственной деятельности, мониторинга процесса урока, планирования в сотрудничестве с коллегами и обмена профессиональным опытом, а не на традиционном административном контроле. Также анализируется профессиональное самосознание учителя как важный психолого-педагогический фактор, формирующий его концепцию «я», раскрывая ее когнитивный, аффективный и деятельностный уровни. В статье показана важность критериальной оценки педагогической деятельности, самооценки, рефлексивного анализа и механизмов коррекции результатов уроков для повышения профессиональных навыков учителя. На основе педагогической рефлексии способность учителя выявлять проблемы в своей работе, анализировать их причины, разрабатывать альтернативные решения и прогнозно планировать свою будущую педагогическую деятельность рассматривается как важное условие непрерывного профессионального развития. Кроме того, на основе концепции рефлексивной практики Д. Шёна теоретически освещаются процессы понимания, оценки и совершенствования собственной работы учителя.*

Ключевые слова: *педагогическая рефлексия, профессиональное развитие, самосознание учителя, концепция профессионального «я», рефлексивная практика, аналитический мониторинг, педагогическая деятельность, самооценка, критериальная оценка, профессиональная компетентность, метакогнитивное управление, педагогическое сотрудничество, командное планирование, профессиональное сотрудничество, анализ уроков, прогнозное планирование, педагогическая коррекция, непрерывное профессиональное развитие.*

Abstract: *This article highlights the role of pedagogical reflection, analytical monitoring of educational activities, and assessment and self-assessment of competencies in teacher professional development. Ensuring the quality of education is based on the effectiveness of regular teacher analysis of their own activities, monitoring of the lesson process, planning in collaboration with colleagues, and sharing professional experiences, rather than on traditional administrative control. The article also analyzes the teacher's professional self-awareness as an important psychological and pedagogical factor shaping their self-concept, revealing its cognitive, affective, and activity-based levels. The article demonstrates the importance of criteria-based assessment of pedagogical activity, self-assessment, reflective analysis, and mechanisms for correcting lesson results in improving teachers' professional skills. Based on pedagogical reflection, the teacher's ability to identify problems in their work, analyze their causes, develop alternative solutions, and plan their future teaching activities predictively is considered an important condition for continuous professional development. Furthermore, based on D. Schön's concept of reflective practice, the processes of understanding, evaluating, and improving a teacher's own work are theoretically illuminated.*

Key words: *pedagogical reflection, professional development, teacher self-awareness, concept of professional self, reflective practice, analytical monitoring, pedagogical activity, self-assessment, criteria-based assessment, professional competence, metacognitive management, pedagogical collaboration, team planning, professional collaboration, lesson analysis, predictive planning, pedagogical correction, continuous professional development.*

Pedagogik refleksiya, darsni tahliliy monitoring qilish va kasbiy hamkorlik modellari Tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda o‘qituvchining kasbiy o‘sishini faqat tashqi ma'muriy nazorat yoki an'anaviy tekshiruvlar orqali ta'minlash samarasiz ekanligi o‘tgan asrning 70–80-yillaridayoq o‘z isbotini topgan [6; 124-128-b]. Natijada ta'lim sifatini oshirishning hal qiluvchi omili sifatida o‘qituvchilarning bevosita ish joyida o‘z faoliyatini tahlil qilish, darslarni birgalikda rejalashtirish va monitoring mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish tizimiga o‘tildi [2; 100-105-b]. Dastlabki yillarda pedagogik tahlil tizimsiz va qat'iy mezonlarsiz shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik bu jarayon institutsional tus oldi hamda o‘qituvchi faoliyatini kompleks qo‘llab-quvvatlashning quyidagi ustuvor mexanizmlari amaliyotga joriy etildi:

Jamoaviy pedagogik rejalashtirish va moslashuvchan yondashuv: O‘quv jarayonini rejalashtirish faqat yakka tartibdagi majburiyat emas, balki fan o‘qituvchilari, metodistlar va amaliyotchi psixologlardan iborat pedagogik guruhning hamkorlikdagi prognostik faoliyatiga aylandi [7; 17-40-b]. Dars rejalari o‘quvchilarning real o‘zlashtirish sur'ati va aqliy imkoniyatlarini oldindan prognoz qilgan holda, muqobil o‘qitish ssenariylari asosida tuzila boshlandi [5; 301-305-b].

Sinfdagi dars jarayonini interaktiv monitoring qilish: Dars xonasida o‘quvchilar sonining me'yorlashtirilishi hamda fanni o‘qitishda ikki nafar pedagogning (yetakchi mutaxassis va koordinator-o‘qituvchining) hamkorlikdagi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi har bir o‘quvchining kognitiv faolligini bevosita darsning o‘zida aniq monitoring qilish imkonini berdi [4; 75-79-b]. Bu esa o‘qituvchiga dars o‘rtasida o‘qitish metodikasini zudlik bilan qayta moslashtirish (operativ korreksiya) imkonini yaratdi. Refleksiv tahlil va o‘zaro kasbiy ko‘mak madaniyati: Maktablarda bir martalik rasmiy attestatsiyalardan ko‘ra, o‘qituvchilarning darslarini muntazam kuzatish, o‘zaro tajriba almashish va tahliliy muhokama qilish doimiy amaliyotga kiritildi [1; 5-31-b]. O‘qituvchi o‘z darsidagi kamchiliklarni ochiq anglab yetishi, xatolarini kasbiy o‘sish imkoniyati sifatida qabul qilishi uchun qulay psixologik muhit shakllantirildi [3; 135-146-b].

Mezonli baholash va uzluksiz malaka oshirish tizimi: Pedagoglarning faoliyatini baholash faqat o‘quvchilarning yakuniy baholari orqali emas, balki o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan kasbiy maqsadlariga erishish dinamikasi, portfolio tahlili va amaliyotdagi tadqiqotchilik ko‘nikmalari asosida mezonlashtirildi. Shu bilan birga, maktab rahbarlari va pedagoglar uchun bevosita

ish jarayonidan uzilmagan holda har yili qat’iy belgilangan soatlarda maxsus refleksiv treninglar hamda mahorat darslaridan o‘tish amaliy normaga aylantirildi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, pedagogning kasbiy rivojlanishi tashqi ma’muriy bosim bilan emas, balki uning o‘z faoliyatini anglash darajasi, prognostik rejalashtirish salohiyati, dars jarayonidagi doimiy monitoringi hamda o‘z ish natijalarini mezonli baholay olish layoqati bilan bevosita belgilanadi [5; 148-b].

O‘qituvchining o‘z-o‘zini anglashi: kasbiy «Men» konsepsiyasining konseptual asosi va strukturaviy sathlari

Pedagogik faoliyatni metakognitiv boshqarish tizimida o‘qituvchining o‘z-o‘zini anglashi uning kasbiy «Men» konsepsiyasini shakllantiruvchi va uzluksiz rivojlanish trayektoriyasini belgilovchi tayanch didaktik-psixologik poydevor hisoblanadi. Tadqiqotimiz doirasida o‘qituvchining o‘z-o‘zini anglashi deganda, pedagogning o‘z kasbiy-qadriyatli qarashlari, faoliyat motivatsiyasi, metodik kompetensiyalarining real holati (kuchli va zaif jihatlari), hissiy-emotsional barqarorligi hamda ta’lim oluvchilar bilan subyekt-subyekt munosabatlarini xolisona idrok etish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan integral intellektual salohiyati tushuniladi [2; 155-157-b].

Mazkur refleksiv jarayon ko‘p qirrali murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, o‘qituvchining kasbiy o‘z-o‘zini anglashi quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq funksional sathlar integratsiyasida namoyon bo‘ladi:

1. **Kognitiv sath:** O‘qituvchi o‘zining fan doirasidagi nazariy-metodik bilim zaxirasi, didaktik vositalarining zamonaviylik darajasi hamda ularning dars jarayonidagi amaliy samaradorligini chuqur tushunadi, mavjud bilimlari bilan o‘quv dasturi talablari o‘rtasidagi tafovutni aniq tasavvur etadi [4; 68-70-b].
2. **Affektiv sath:** O‘quv jarayonidagi kognitiv zo‘riqishlar va ziddiyatli holatlarni boshqarish, auditoriyada qulay psixologik iqlimni saqlash, o‘zining stressga chidamliligini ta’minlash hamda hissiy holatini ongli nazorat qila olish layoqatini ifodalaydi [7; 20-24-b].
3. **Faoliyatli sathi:** O‘zining pedagogik muloqot va yetakchilik uslubining (avtoritar, demokratik yoki liberal) o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi hamda o‘quv yutuqlariga ko‘rsatayotgan bevosita ta’sirini tanqidiy tahlil qilish va kerakli tuzatishlarni kiritishda namoyon bo‘ladi.

Ushbu jarayon D. Sho‘nning reflektiv amaliyot konsepsiyasiga to‘la mos kelgan holda [6; 234-237-b], o‘qituvchini an’anaviy qotib qolgan didaktik stereotiplar va reproduktiv andozalardan xalos etadi hamda uni o‘z faoliyatini ongli loyihalashtiruvchi, mustaqil tadqiqotchi-mualliflik pozitsiyasiga olib chiqishning fundamental didaktik sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Baholash va o‘z-o‘zini baholash qobiliyati: Natijaviy-korreksion mexanizm va kasbiy yuksalish omili

Pedagogik jarayonning yaxlit tizimida baholash va o‘z-o‘zini baholash faoliyati o‘quv-tarbiya jarayonining natijaviy-korreksion hamda metakognitiv yakunlovchi bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu didaktik hodisa ikki tomonlama, o‘zaro uzviy bog‘liq yo‘nalishda amalga oshiriladi: birinchisi — o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kognitiv rivojlanish dinamikasini baholash bo‘lsa, ikkinchisi — o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyati, qo‘llagan metodikasi va erishilgan natijalarni tanqidiy-tahliliy baholashidir.

Pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashda aynan o‘z-o‘zini baholash kompetensiyasi hal qiluvchi katalizator vazifasini o‘taydi. Mazkur qobiliyat quyidagi konseptual mexanizmlar orqali o‘qituvchining kasbiy mahoratini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi:

1. **Mezonli (kriterial) diagnostik tahlil:** O‘qituvchi o‘tkazilgan dars va o‘quv faoliyati natijalarini subyektiv hissiyotlar, hissiy taassurotlar yoki tasodifiy omillar asosida emas, balki oldindan aniq belgilangan kognitiv, operatsional va amaliy indikatorlar doirasida xolisona audit qiladi.

2. **Nedeterministik sabab-oqibatli tahlil madaniyati:** Ta’lim oluvchilar tomonidan materialning yetarli o‘zlashtirilmasligi sabablarini biryoqlama tarzda faqat o‘quvchining shaxsiy iqtidori yoki motivatsiyasining pastligi bilan bog‘lab qo‘ymasdan, o‘zining darsni loyihalash, axborotni taqdim etish va monitoring qilishdagi metodik kamchiliklarini xolis aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashda namoyon bo‘ladi.

«Harakatdan keyingi refleksiya»: D. Sho‘nning reflektiv amaliyot modeliga muvofiq, yakunlangan dars yoki pedagogik siklni retrospektiv tahlil qilish, yuzaga kelgan didaktik qiyinchiliklar va erishilgan yutuqlarni konseptual idrok etish hamda kelgusi mashg‘ulotlarni prognostik tahlil qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Black P. Developing the theory of formative assessment / P. Black, D. Wiliam // Educational Assessment, Evaluation and Accountability. – 2009. – Vol. 21. – № 1. – P. 5–31.

2. Day C. Developing Teachers: The Challenges of Lifelong Learning / C. Day. – London: Falmer Press, 1999. – 240 p.

3. Guskey T.R. Evaluating Professional Development / T.R. Guskey. – Thousand Oaks, CA: Corwin Press, 2000. – 336 p.

4. Kyriacou C. Effective Teaching in Schools: Theory and Practice / C. Kyriacou. – 3rd ed. – Cheltenham: Nelson Thornes, 2009. – 168 p.

5. Pollard A. Reflective Teaching in Schools / A. Pollard. – 4th ed. – London: Bloomsbury Academic, 2014. – 600 p.

6. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action / D.A. Schön. – New York: Basic Books, 1983. – 384 p.
7. Vangrieken K. Teacher collaboration: A systematic review / K. Vangrieken, F. Dochy, E. Raes, E. Kyndt // Educational Research Review. – 2015. – Vol. 15. – P. 17–40.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN INNOVATSION METODLAR VA AMALIY NATIJALAR

To‘ymurodova Nilufar Ismoil qizi
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish imkoniyatlari O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflari uchun yaratilgan darsliklar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy manbalarini 1-sinf “Ona tili”, 1-sinf “Matematika”, 2-sinf “Matematika”, 4-sinf “Ona tili” va 4-sinf “Matematika” darsliklarida berilgan mashq, topshiriq, masala, matn, savol va amaliy faoliyatlar tashkil etdi. Darsliklardagi o‘quv materiallarini innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Jumladan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Sinkveyn”, “Muammoli vaziyat”, “Matematik domino”, “Men izlayman”, “Rolli o‘yin”, “Loyiha” va “Bumerang” metodlarini boshlang‘ich sinf darsliklaridagi topshiriqlarga moslashtirish usullari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida innovatsion metodlardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma nutq, matematik tafakkur, muammoni hal qilish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan. Maqolada boshlang‘ich sinf darslarida innovatsion metodlarni qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, innovatsion metod, darslik, pedagogik texnologiya, interaktiv metod, mustaqil fikrlash, matematik tafakkur, nutqiy kompetensiya, muammoli ta’lim, amaliy natija.*

Аннотация. *В статье анализируются возможности использования инновационных методов в начальном образовании на основе учебников, предназначенных для начальных классов общеобразовательных школ Узбекистана. Основными источниками исследования являются учебники «Родной язык» для 1 класса, «Математика» для 1 и 2 классов, «Родной язык» и «Математика» для 4 класса. Рассматриваются педагогические возможности интеграции учебного материала с инновационными методами. Предлагаются способы адаптации методов «Мозговой штурм», «Кластер», «Инсерт», «Синквейн», «Проблемная ситуация», «Математическое домино», «Я ищу», «Ролевая игра», «Проект» и «Бумеранг» к заданиям учебников. Обосновано, что целенаправленное применение инновационных методов способствует повышению активности учащихся, развитию самостоятельного мышления, устной и письменной речи, математического мышления, навыков решения проблем и сотрудничества.*

Ключевые слова: *начальное образование, инновационный метод, учебник, педагогическая технология, интерактивный метод, самостоятельное мышление, математическое мышление, речевая компетентность, проблемное обучение, практический результат.*

Abstract. *This article analyzes the possibilities of using innovative methods in primary education based on textbooks designed for primary school students in Uzbekistan. The main sources of the study include the Grade 1 Mother Tongue textbook, Grade 1 and Grade 2 Mathematics textbooks, and Grade 4 Mother Tongue and Mathematics textbooks. The study examines the pedagogical potential of integrating textbook materials with innovative teaching methods. Methods such as brainstorming, clustering, INSERT, cinquain, problem-based situations, mathematical dominoes, role-play, project-based learning, and the boomerang method are adapted to textbook exercises and learning tasks. The study demonstrates that purposeful application of innovative methods can increase students’ classroom engagement and contribute to the development of independent thinking, oral and written communication, mathematical reasoning,*

problem-solving and collaboration skills. Practical recommendations for applying innovative methods in primary school lessons are also proposed.

Keywords: *primary education, innovative method, textbook, pedagogical technology, interactive method, independent thinking, mathematical reasoning, speech competence, problem-based learning, practical outcomes.*

KIRISH. Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchiga tayyor bilimlarni yetkazish bilan bir qatorda, uning mustaqil fikrlashi, savol berishi, muammoni aniqlashi, yechim izlash va o‘z fikrini asoslay olish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning keyingi ta’lim faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning dastlabki poydevorini yaratishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi mavhum tushunchalardan ko‘ra aniq predmetlar, rasmlar, harakatlar, savollar, o‘yinlar va hayotiy vaziyatlar orqali bilimni osonroq o‘zlashtiradi. Shu sababli mazkur bosqichda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quv materialini bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlarni qo‘llashning muhim manbalaridan biri darslik hisoblanadi. Darslik faqat bilim beruvchi manba emas, balki o‘quvchini mustaqil ishlashga, fikrlashga, savollarga javob topishga va amaliy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiruvchi didaktik vositadir.

Masalan, 1-sinf “Ona tili” darsligida o‘quvchilarning til birliklarini kuzatishi, so‘z va gaplar bilan ishlashi, o‘qish va yozishga oid topshiriqlarni bajarishi uchun turli mashqlar berilgan. Darslik T. G‘afforova, E. Shodmonov va X. G‘ulomova tomonidan yaratilgan bo‘lib, 2019-yilda “Sharq” nashriyotida chop etilgan.
1-sinf “Matematika” darsligida esa sonlar, amallar, ketma-ketlik, mantiqiy tushunchalar, geometrik shakllar va qiziqarli masalalar bilan bog‘liq topshiriqlar berilgan. Darslik M. Ahmedov, N. Abdurahmonova va M. Jumayevlar tomonidan tayyorlangan.

Shu jihatdan darsliklarda mavjud topshiriqlarni innovatsion metodlar bilan qayta tashkil qilish o‘quv materialining mazmunini o‘zgartirmagan holda ta’lim jarayonining metodik samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinf darsliklaridagi o‘quv topshiriqlarini innovatsion metodlar asosida tashkil etish imkoniyatlarini aniqlash va ularning amaliy natijalarini asoslash.
Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich sinf darsliklaridagi topshiriqlarning metodik imkoniyatlarini aniqlash;
- darslik materiallariga mos innovatsion metodlarni tanlash;
- ona tili va matematika darslari uchun amaliy metodik modellar ishlab chiqish;

- innovatsion metodlarning o‘quvchi faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish;
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda darslik materiallarini kontent-tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini quyidagi darsliklar tashkil etdi:

1. 1-sinf “Ona tili” darsligi;
2. 1-sinf “Matematika” darsligi;
3. 2-sinf “Matematika” darsligi;
4. 4-sinf “Ona tili” darsligi;
5. 4-sinf “Matematika” darsligi.

Mazkur darsliklarning elektron nusxalari O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligining Axborot-ta’lim portalida joylashtirilgan. Portalda boshlang‘ich sinflar uchun darsliklar bilan bir qatorda videodarslar, multimedia ilovalari, interaktiv mashqlar, testlar, boshqotirmalar va boshqa elektron ta’lim resurslari ham mavjud.

Tadqiqot davomida innovatsion metodlarni tanlashda uchta mezon asos qilib olindi:

- metodning darslik mazmuniga mosligi;
- metodning o‘quvchi yoshiga mosligi;
- metod orqali aniq o‘quv natijasiga erishish imkoniyati.

BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARINING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Boshlang‘ich sinf darsliklarining mazmuni o‘quvchini faqat tayyor ma’lumotni qabul qilishga emas, balki topshiriqlarni bajarish, savollarga javob berish, taqqoslash, fikrlash va amaliy faoliyatga yo‘naltiradi.

Masalan, 2-sinf “Matematika” darsligida mashqlar og‘zaki va yozma bajariladigan topshiriqlarga ajratilgan, “o‘ylab top!” turidagi topshiriqlar, multimedia ilovasidan foydalanish va uy vazifalari uchun alohida belgilar mavjud. Bu topshiriqlarni innovatsion metodlar bilan quyidagicha bog‘lash mumkin:

Darslikdagi faoliyat	**Innovatsion metod**	**Rivojlantiriladigan ko‘nikma**
Savol-javob	“Aqliy hujum”	Tezkor fikrlash
Matn bilan ishlash	“Insert”	Tahliliy o‘qish
So‘z va gaplar	“Klaster”	Tizimlashtirish
Masala yechish	“Muammoli vaziyat”	Mantiqiy fikrlash
Hisoblash	“Matematik domino”	Tezkor hisoblash
Rasm asosida hikoya	“Rolli o‘yin”	Nutqiy kompetensiya
Murakkab topshiriq	“Loyiha”	Mustaqil faoliyat

Darslikdagi faoliyat	Innovatsion metod	Rivojlantiriladigan ko‘nikma
Takrorlash	“Bumerang”	Bilimni mustahkamlash

Demak, innovatsion metod darslikni almashtirmaydi. Aksincha, darslikdagi tayyor topshiriqning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION USULLAR

“Klaster” metodidan foydalanish

1-sinf “Ona tili” darsligidagi so‘z va gaplar bilan bog‘liq topshiriqlarni “Klaster” metodi asosida tashkil etish mumkin. Masalan, “Maktab” tushunchasi markazga yoziladi va o‘quvchilar u bilan bog‘liq so‘zlarni mustaqil aytadilar:

MAKTAB

→ o‘qituvchi
→ o‘quvchi
→ kitob
→ daftar
→ qalam
→ sinf
→ doska

Keyingi bosqichda o‘quvchilar hosil bo‘lgan so‘zlardan gap tuzadilar.

Masalan:

Maktabimiz katta.

Men maktabga bordim.

Bu usulda bitta topshiriqning o‘zi uch bosqichda bajariladi: so‘z topish, so‘zlarni guruhlash va gap tuzish.

Amaliy natija: o‘quvchining lug‘at boyligi kengayadi, so‘zlarni mazmunan bog‘lash va mustaqil gap tuzish ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Aqliy hujum” metodi

Darslikdagi matn yoki mavzu asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga ochiq savollar beradi.

Masalan:

“Yaxshi o‘quvchi qanday bo‘lishi kerak?”

O‘quvchilar o‘z fikrlarini aytadilar:

- bilimli;
- odobli;
- mehnatsevar;
- kitobsevar;

- do‘stlariga yordam beradigan.

Keyinchalik aytilgan javoblar guruhlanadi va ulardan gaplar tuziladi.
Bu metodning afzalligi shundaki, o‘quvchi javobni darslikdan aynan ko‘chirmaydi, balki o‘z fikri asosida shakllantiradi.

O‘QISH DARSLARIDA “ROLLI O‘YIN”LAR

Boshlang‘ich sinf o‘qish materiallari orasida ertak, hikoya, she’r va dialogik mazmundagi matnlar mavjud. Axborot-ta’lim portalida 1–3-sinflar uchun turli o‘qish materiallari, videodarslar, animatsiyalar va interaktiv mashqlar ham berilgan.

Masalan, matnda ikki yoki undan ortiq qahramon ishtirok etsa, o‘quvchilarga qahramonlarning rollarini taqsimlash mumkin.
Bir o‘quvchi — muallif,
ikkinchi o‘quvchi — birinchi qahramon,
uchinchi o‘quvchi — ikkinchi qahramon rolini bajaradi.
Bunda matn oddiy o‘qilmaydi, balki obrazli ijro etiladi.
Amaliy natija: ifodali o‘qish, talaffuz, intonatsiya, muloqot va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi.

MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION USULLAR

Boshlang‘ich matematika darslarida innovatsion metodlardan foydalanish uchun darslikdagi sonlar, arifmetik amallar, ketma-ketlik, mantiqiy topshiriqlar, geometrik shakllar va masalalardan foydalanish mumkin.

1-sinf “Matematika” darsligining mazmunida ketma-ketlikni davom ettirish, mantiqiy tushunchalar, turli shakllar yasash va qiziqarli masalalar kabi topshiriqlar mavjud.

“Matematik domino” usuli

O‘qituvchi kartochkalar tayyorlaydi. Birinchi kartochkada misol, keyingi kartochkada esa shu misolning javobi beriladi.
Masalan:
7 + 3 → 10
10 – 4 → 6
6 + 5 → 11
11 – 3 → 8

O‘quvchilar kartochkalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiradilar.
Bu metod orqali oddiy hisoblash mashqi o‘yin shakliga keltiriladi.

Amaliy natija: hisoblash tezligi, diqqat va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash qobiliyati rivojlanadi.

“Muammoli vaziyat” usuli

4-sinf “Matematika” darsligida chizma asosida masala tuzish, sonlarni taqqoslash, tenglamalarni yechish va hayotiy mazmundagi masalalar mavjud.

Masalan, darslikda kitoblarning turli yillarda nashr etilgan nusxalari sonini taqqoslashga oid topshiriq keltirilgan.

Bunday topshiriqni quyidagicha tashkil qilish mumkin:

Muammo: 2013-yilda ma’lum miqdorda, 2017-yilda esa undan ko‘proq kitob nashr etilgan. Qaysi yilda qancha ko‘p kitob nashr etilgan?

O‘quvchilar:

1. masala shartini ajratadi;
2. ma’lum va noma’lum miqdorlarni aniqlaydi;
3. amal tanlaydi;
4. hisoblaydi;
5. javobni izohlaydi.

Bu jarayonda o‘qituvchi tayyor amalni aytmaydi. O‘quvchining o‘zi qaysi amalni bajarish kerakligini aniqlaydi.

Amaliy natija: matematik masalani tushunish, muammoni tahlil qilish va matematik model tuzish ko‘nikmasi rivojlanadi.

“MEN IZLAYMAN” USULLAR

Mazkur metodni 4-sinf “Ona tili” darsligidagi matn va grammatik topshiriqlar bilan bog‘lash mumkin.

Masalan, darslikdagi matndan o‘tgan zamon fe’llarini topish topshirig‘i mavjud. “Rahmdilning daraxti” matnida “bordi”, “uchratdi”, “sotib oldi”, “o‘tkazdi”, “suv quydi” kabi fe’l shakllari bilan ishlanadi.

O‘quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi:

“Men izlayman”

1. Matnni o‘qing.
2. Harakat bildirgan so‘zlarni toping.
3. Ularni daftariga yozing.
4. Fe’lning zamonini aniqlang.
5. O‘zingiz shu fe’llardan foydalanib ikkita gap tuzing.

Bu metodda o‘quvchi bir vaqtning o‘zida o‘qiydi, izlaydi, tahlil qiladi va yangi gap yaratadi.

Amaliy natija: grammatik tushunchani yodlashdan ko‘ra, uni matn ichidan mustaqil aniqlash ko‘nikmasi shakllanadi.

“BIR TOPSHIRIQ — BIR NECHA NATIJA” METODIK MODELI

Boshlang‘ich sinf darsliklari asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, bitta darslik topshirig‘ini bir nechta kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirish mumkin.

Masalan, 4-sinf “Ona tili” darsligidagi matn asosida quyidagi faoliyatni tashkil etish mumkin:

1-bosqich: matnni o‘qish.
2-bosqich: fe’llarni topish.
3-bosqich: fe’llarni zamoniga ko‘ra ajratish.
4-bosqich: topilgan fe’llar yordamida yangi gaplar tuzish.
5-bosqich: gaplarni guruhda tekshirish.
6-bosqich: guruh natijasini taqdim etish.
Natijada bitta grammatik topshiriq:

- o‘qish;
- tahlil qilish;
- grammatik bilim;
- yozish;
- nutq;
- hamkorlik

ko‘nikmalarini birlashtiradi.

INNOVATSION USULLARNING AMALIY NATIJALARI

Darslik materiallari asosida ishlab chiqilgan metodik modelni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Metod	**Darslik materiali**	**Asosiy faoliyat**	**Kutiladigan natija**
Aqliy hujum	Savol va mavzu	Fikr bildirish	Mustaqil fikrlash
Klaster	So‘z va tushunchalar	Guruhlash	Tizimli fikrlash
Rolli o‘yin	Hikoya, ertak, dialog	Obrazga kirish	Nutqiy faollik
Muammoli vaziyat	Matematik masala	Yechim izlash	Mantiqiy tafakkur
Matematik domino	Misollar	Ketma-ketlikni topish	Tezkor hisoblash
Men izlayman	Grammatik matn	Kerakli birlikni topish	Tahliliy o‘qish
Loyiha	Mavzuga oid material	Mustaqil izlanish	Tadqiqotchilik
Bumerang	Takrorlash materiali	Savol-javob	Mustahkamlash
Sinkveyn	Matn yoki tushuncha	Qisqa ijodiy ifoda	Lug‘at va nutq
Insert	Matn	Belgilab o‘qish	Ongli o‘qish

Ushbu jadvaldagi natijalar **aniq eksperimental foizlar sifatida emas**, balki darslik topshiriqlarini innovatsion metodlar bilan tashkil etishdan kelib chiqadigan pedagogik natijalar sifatida talqin qilinadi. Real sinov natijalari alohida pedagogik tajriba-sinov orqali aniqlanishi lozim.

MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinf darsliklari tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodlarni joriy etish uchun darslik mazmunini tubdan o‘zgartirish shart emas. Muhimi, mavjud topshiriqlarga yangi pedagogik faoliyat shaklini berishdir.

Masalan, darslikda “misolni yeching” tarzida berilgan topshiriqni individual ish shaklida bajarish mumkin. Ammo o‘sha topshiriqni “Matematik domino” yoki “Kim tez topadi?” shaklida tashkil etish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi mumkin.

Xuddi shuningdek, ona tili darsligidagi “so‘zlarni ko‘chiring” topshirig‘i oddiy yozma mashq bo‘lib qolmasdan, “Men izlayman” metodi asosida matndan ma’lum grammatik birliklarni topish va ulardan yangi gaplar tuzish topshirig‘iga aylantirilishi mumkin.

Bu yerda innovatsiyaning asosiy mazmuni **topshiriqni almashtirish emas, o‘quvchining topshiriqni bajarish faoliyatini o‘zgartirish**dan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun metod tanlashda yosh xususiyati ham alohida hisobga olinishi kerak. 1-sinfda o‘yin, rasm, predmet va qisqa savollarga asoslangan metodlar ko‘proq mos bo‘lsa, 3–4-sinflarda muammoli vaziyat, loyiha, guruhli tahlil va mustaqil izlanish elementlarini kengaytirish mumkin.

Shuningdek, Axborot-ta’lim portalida boshlang‘ich sinflar uchun multimedia ilovalari, videodarslar, animatsiyalar, interaktiv mashqlar va testlarning mavjudligi darslik materiallarini raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida boshlang‘ich sinf darsliklari innovatsion metodlarni qo‘llash uchun yetarlicha didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi.

1-sinf “Ona tili” darsligidagi so‘z va gaplar bilan ishlashga oid mashqlar “Klaster”, “Aqliy hujum” va “Men izlayman” metodlari bilan; 1-sinf “Matematika” darsligidagi son, ketma-ketlik, mantiqiy va geometrik topshiriqlar “Matematik domino” hamda “Muammoli vaziyat” metodlari bilan; 2-sinf “Matematika” darsligidagi og‘zaki, yozma va “o‘ylab top!” topshiriqlari interaktiv guruhli metodlar bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin.

4-sinf darsliklaridagi matn, grammatik tahlil, masala, chizma va taqqoslashga oid topshiriqlar esa o‘quvchilarning yuqori darajadagi mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal qilish faoliyatini tashkil etish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- innovatsion metod darslikni almashtirmaydi, balki uning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi;
- boshlang‘ich ta’limda metod tanlash o‘quvchining yosh xususiyatiga mos bo‘lishi kerak;
- ona tili va o‘qish darslarida nutqiy va kommunikativ metodlarga;
- matematika darslarida muammoli, mantiqiy va o‘yinli metodlarga;

- 3–4-sinflarda esa loyiha va mustaqil izlanish elementlariga ko‘proq e’tibor berish maqsadga muvofiq;
- innovatsion metodning samaradorligi uning yangiligidan ko‘ra, aniq ta’lim maqsadiga

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Babaxodjayeva L.B. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: darslik. – Toshkent: Malik Print Co, 2021. – ISBN 978-9943-7906-7-4.
2. Alimjanova M.Yu. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va innovatsiya: darslik. – Farg‘ona: Classic, 2022. – 196 b. – ISBN 978-9943-8825-6-0. A
3. Mavlonova R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris-nashriyoti, 2013. – 240 b. – ISBN 978-9943-4211-6-5.
4. Muxtarova L.A. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: NIF MSH, 2023. – 165 b. – ISBN 978-9910-9636-6-7.
5. Do‘stmetova M.M. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – 244 b. – ISBN 978-9910-9898-5-8.
6. Norbo‘tayev X.B. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’lim: darslik. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023. – 173 b. – ISBN 978-9943-9200-2-6.
7. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Jamoldinova Sh. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2020. – 380 b. – ISBN 978-9943-6431-2-3.
8. G‘affarova T., Nurullayeva Sh., Xaydarova O. Boshlang‘ich ta’lim uchun didaktik materiallar: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 96 b. – ISBN 978-9943-7260-4-8.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH VA UNING NATIJALARI

M.I.Gadoyeva
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
M.F.Hamroyeva,
Buxoro viloyat Kogon shahar,
11- umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya*. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati, samarali usullari va ularning ta’lim sifatiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli ta’lim,*

didaktik o‘yinlar, loyiha asosida o‘qitish va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, innovatsion metodlar, interfaol ta’lim, tanqidiy fikrlash, matn tahlili, didaktik o‘yin, raqamli texnologiyalar, mustaqil o‘qish, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация. *В данной статье освещаются значение использования инновационных педагогических методов в развитии читательской грамотности учащихся начальных классов, эффективные способы их применения и влияние на качество образования. Также анализируются возможности использования интерактивных методов, проблемного обучения, дидактических игр, проектного обучения и цифровых образовательных средств.*

Ключевые слова: *начальное образование, читательская грамотность, инновационные методы, интерактивное обучение, критическое мышление, анализ текста, дидактическая игра, цифровые технологии, самостоятельное чтение, эффективность образования.*

Abstract. *This article highlights the importance of using innovative pedagogical methods to develop reading literacy among primary school students, effective approaches to their implementation, and their impact on the quality of education. It also analyzes the possibilities of using interactive methods, problem-based learning, didactic games, project-based learning, and digital educational tools.*

Keywords: *primary education, reading literacy, innovative methods, interactive learning, critical thinking, text analysis, didactic games, digital technologies, independent reading, educational effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning bilim olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi va hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning kelajakdagi intellektual rivojlanishi, dunyoqarashi va bilim olishga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu bosqichda egallangan o‘qish ko‘nikmalari keyingi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchini o‘qishga o‘rgatish bilan bir qatorda, uni o‘qiganlarini anglashga, fikrlashga va mustaqil qaror chiqarishga o‘rgatish ham zarur. Innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bunda o‘qituvchi tayyor bilimlarni yetkazib beruvchi emas, balki o‘quvchini izlanishga, savol berishga, fikr yuritishga va o‘z xulosalarini asoslashga yo‘naltiruvchi tashkilotchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion metodlarni yoritish, ulardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish hamda ta’lim jarayonida kutiladigan natijalarni tahlil qilishdan iborat.

O‘qish savodxonligining mazmuni va boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati

O‘qish savodxonligi o‘quvchining ta’limiy va kundalik hayotida zarur bo‘lgan muhim kompetensiyalardan biridir. U bolaning matnni tushunishi, ma’lumotlarni

o‘zaro bog‘lashi, muallif fikrini aniqlashi va o‘qiganlari asosida mustaqil xulosa chiqarishi bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi. Birinchidan, o‘quvchi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi, tinish belgilariga rioya etishi va matnni ravon o‘qishi lozim. Ikkinchidan, o‘qilgan matn mazmunini tushunishi, undagi voqealar ketma-ketligini aniqlashi va qahramonlar xatti-harakatlarini izohlashi kerak. Uchinchidan, matnda bevosita berilmagan ma’nolarni anglash, voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda o‘z fikrini dalillar bilan ifodalash ko‘nikmalari shakllantirilishi zarur.

O‘qish savodxonligi boshqa fanlarni o‘zlashtirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, matematika darsidagi masala shartini tushunish, tabiatshunoslikka oid matndan kerakli ma’lumotni topish yoki tarixiy voqealar mazmunini anglash o‘quvchining matn bilan ishlash ko‘nikmasiga bog‘liq. Shuning uchun o‘qish savodxonligini rivojlantirish faqat ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining vazifasi bo‘lib qolmasdan, barcha fanlar doirasida amalga oshirilishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari ta’lim jarayonini tashkil etishda alohida e’tibor talab qiladi. Bu yoshdagi bolalar ko‘rgazmali materiallar, qiziqarli hikoyalar, o‘yinlar, rasmlar va amaliy topshiriqlar orqali bilimlarni samarali o‘zlashtiradilar. Shu sababli o‘qish darslarida turli metodlarni uyg‘unlashtirish, matnni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va o‘quvchilarning qiziqishini muntazam qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar natijalarini faqat o‘qish tezligi bilan baholash to‘g‘ri emas. O‘qish aniqligi, ravonligi, tushunish darajasi va fikrni ifodalash qobiliyati birgalikda hisobga olinishi lozim.

O‘qish savodxonligini oshirishda innovatsion metodlardan foydalanish

Innovatsion metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan usul va yondashuvlardir. Ularning samaradorligi metodning yangiligigagina emas, balki dars maqsadiga muvofiq tanlanishi, o‘quvchilarning yoshiga mosligi va to‘g‘ri tashkil etilishiga ham bog‘liq.

“Bashorat qilish” metodi. Ushbu metod o‘quvchilarning matnni o‘qishdan oldin mavjud bilimlarini faollashtirish va voqealarning rivojlanishi haqida taxmin qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Metodni qo‘llashda o‘qituvchi matn sarlavhasi, unga oid rasm yoki dastlabki jumlalarni namoyish etadi. O‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- Sizningcha, matn nima haqida?
- Unda qanday voqealar sodir bo‘lishi mumkin?
- Matn qahramoni qanday muammoga duch kelishi mumkin?
- Nima sababdan shunday deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar o‘z taxminlarini bildiradilar va matnni o‘qib bo‘lgach, ularni matn mazmuni bilan taqqoslaydilar. Natijada ular o‘qish jarayonida faol fikrlashga, taxminlarini asoslashga va matndan dalil topishga o‘rganadilar.

Masalan, “Yo‘qolgan qushcha” nomli hikoya o‘qilishidan oldin o‘quvchilarga qush tasvirlangan rasm ko‘rsatiladi. Bolalar hikoyaning mazmuni haqida taxmin qiladilar. O‘qish yakunida esa qaysi taxminlar to‘g‘ri chiqqani va buning sabablari muhokama qilinadi.

“INSERT” metodi

“INSERT” metodi matnni tushunib o‘qish va o‘qish jarayonida o‘z fikrini nazorat qilishga yordam beradi. Bunda o‘quvchilar matn bilan ishlash davomida maxsus belgilar orqali ma’lumotlarga munosabat bildiradilar. Metodning sodda shaklida quyidagi belgilar qo‘llanilishi mumkin:

- V — men bilgan ma’lumot;
- + — men uchun yangi ma’lumot;
- − — avvalgi bilimimga zid yoki meni o‘ylantirgan ma’lumot;
- ? — qo‘shimcha izoh talab qiladigan savol.

Masalan, o‘quvchilar tabiat, hayvonlar yoki fasllar haqidagi matnni o‘qiyotganda o‘zlariga tanish ma’lumotlarni va yangi faktlarni ajratadilar. O‘qishdan so‘ng belgilangan ma’lumotlar muhokama qilinadi, savollarga javob izlanadi. Mazkur metod o‘quvchilarda matnni shunchaki o‘qib chiqish emas, balki uni anglab borish odatini shakllantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchiga o‘quvchilarning qaysi ma’lumotlarni tushunganini va qaysi jihatlarda qo‘shimcha yordamga ehtiyoj borligini aniqlash imkonini beradi.

“B-B-B” metodi

“B-B-B” metodi “Bilaman – Bilishni xohlayman – Bilib oldim” bosqichlari asosida tashkil etiladi. U o‘quvchilarning avvalgi bilimlarini aniqlash, o‘qish maqsadini belgilash va yangi bilimlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.

Dars boshida o‘quvchilar mavzu haqida nimalarni bilishlarini aytadilar. Keyin nimalarni bilishni xohlashlarini savollar shaklida ifodalaydilar. Matn bilan ishlash yakunida esa o‘zlari bilib olgan ma’lumotlarni qayd etadilar.

Masalan, “Suvning tabiatdagi ahamiyati” mavzusidagi matnni o‘qishdan oldin o‘quvchilar suvning qayerlarda uchrashi va nima uchun zarurligi haqida fikr bildiradilar. So‘ng o‘zlarini qiziqtirgan savollarni tuzadilar. Matn o‘qilgach, savollarga javob topadilar va yangi xulosalar chiqaradilar.

Bu metod o‘quvchining o‘qishga ongli munosabatini shakllantiradi. U matndan qanday ma’lumot izlash kerakligini tushunadi va o‘z bilimlarini mustaqil baholashga o‘rganadi.

“Aqliy hujum” va savol-javob metodi

“Aqliy hujum” metodi o‘quvchilarning erkin fikrlashi, turli g‘oyalarni ilgari surishi va mavzuga ijodiy yondashishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu jarayonda dastlab o‘quvchilarning fikrlari tinglanadi, keyinchalik ular muhokama qilinib, matn mazmuni bilan bog‘lanadi.

Matnni tahlil qilishda faqat “Qahramonning ismi nima?” yoki “Voqea qayerda sodir bo‘ldi?” kabi sodda savollar bilan cheklanib qolmaslik lozim. O‘quvchilarga chuqurroq fikrlashni talab qiladigan savollar ham berilishi kerak:

- Qahramon nima uchun bunday yo‘l tutdi?
- Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday qaror qabul qilardingiz?
- Voqeaning boshqacha yakunlanishi mumkinmidi?
- Muallif o‘quvchiga qanday fikrni yetkazmoqchi?
- Qahramonning xatti-harakatini matndagi qaysi dalillar bilan izohlash mumkin?

Bunday savollar o‘quvchilarning matnni chuqurroq tushunishi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi va o‘z fikrini dalillar bilan asoslashiga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlardan foydalanish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin ta’lim jarayonining muhim vositalaridan biridir. Didaktik o‘yinlar darsni qiziqarli tashkil etish bilan birga, o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

“Davomini top” o‘yini. O‘qituvchi hikoyaning bir qismini o‘qiydi va keyingi voqeani o‘quvchilardan davom ettirishni so‘raydi. Yakunda o‘quvchilarning taxminlari haqiqiy matn bilan solishtiriladi.

“Kim tez topadi?” o‘yini. O‘quvchilarga matndan muayyan ma’lumotni topish topshiriladi. Masalan, qahramonning ismi, voqea sodir bo‘lgan joy yoki asosiy fikrni aniqlash talab etiladi. Bunda tezlik bilan bir qatorda javobning to‘g‘riligi va matnni tushunish ham baholanadi.

“Qahramonga tavsif ber” o‘yini. O‘quvchilar qahramonning xatti-harakatlari, fe’l-atvori va boshqalarga munosabati haqida fikr bildiradilar. Har bir fikr matndan olingan misol bilan asoslanadi.

“Voqealar ketma-ketligi” o‘yini. Hikoyadagi voqealar alohida kartochkalarga yoziladi. O‘quvchilar ularni to‘g‘ri tartibda joylashtirib, hikoyani qayta hikoya qiladilar.

Ushbu o‘yinlar diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, og‘zaki nutqni rivojlantirish va matn mazmunini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Elektron kitoblar, audiokitoblar, interaktiv taqdimotlar, animatsiyalar va ta’limiy platformalar o‘quvchilarning matnga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkin.

Masalan, o‘quvchilar hikoyaning audio shaklini tinglab, matnni kuzatib borishlari mumkin. Bu usul so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rganish, intonatsiyani his qilish va ifodali o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydalidir. Rasmli taqdimotlar esa matndagi voqealar va obrazlarni tasavvur qilishga yordam beradi.

Biroq raqamli vositalardan foydalanish aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi lozim. Ekrandagi tasvirlar va animatsiyalar matn bilan ishlashning o‘rnini egallamasligi, balki uni to‘ldirishi kerak. Shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, texnik imkoniyatlar, ekran oldida o‘tkaziladigan vaqt va axborot xavfsizligi talablariga rioya etish muhimdir.

Innovatsion metodlarni dars jarayonida samarali tashkil etish

Innovatsion metodlarning samaradorligi ularni darsning maqsadi, mazmuni va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos tanlashga bog‘liq. Bir dars davomida ko‘plab metodlarni qo‘llashdan ko‘ra, maqsadga muvofiq tanlangan ikki yoki uchta metoddan izchil foydalanish ko‘proq samara berishi mumkin.

O‘qish savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan darsni quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin.

Birinchi bosqich — o‘quvchilarni darsga tayyorlash. O‘qituvchi rasm, sarlavha, muammoli savol yoki qisqa topshiriq yordamida o‘quvchilarning diqqatini mavzuga jalb qiladi. Bu bosqichda “Bashorat qilish” yoki “Aqliy hujum” metodidan foydalanish mumkin.

Ikkinchi bosqich — matn bilan ishlash. O‘quvchilar matnni mustaqil, juftlikda yoki o‘qituvchi rahbarligida o‘qiydilar. Zarur hollarda notanish so‘zlar izohlanadi, matn qismlarga ajratiladi va muhim ma’lumotlar aniqlanadi. “INSERT” metodi yoki yo‘naltiruvchi savollardan foydalanish mumkin.

Uchinchi bosqich — matnni tahlil qilish. O‘quvchilar matnning asosiy g‘oyasini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholaydilar, voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradilar. Bu jarayonda klaster, guruhli muhokama va muammoli savollar samarali hisoblanadi.

To‘rtinchi bosqich — mustahkamlash. O‘quvchilar matnni qayta hikoya qiladilar, savollarga javob beradilar, voqealar ketma-ketligini tiklaydilar yoki matn asosida kichik ijodiy topshiriq bajaradilar.

Beshinchi bosqich — baholash va refleksiya. O‘quvchilar nimalarni o‘rganganlari, qaysi topshiriq ularga qiziqarli bo‘lgani va nimalar qiyinchilik tug‘dirgani haqida

fikr bildiradilar. O‘qituvchi esa o‘quv maqsadlariga qay darajada erishilganini aniqlaydi.

Innovatsion metodlardan foydalanish natijalari va ularni baholash

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion metodlardan maqsadli foydalanish bir qator ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Biroq bu natijalar barcha sinflarda bir xil bo‘lishi kafolatlanmaydi. Ular o‘qituvchining metodik mahorati, mashg‘ulotlarning muntazamligi, matnlarning sifati, o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi va oilaviy kitobxonlik muhitiga ham bog‘liq.

Birinchidan, o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi yaxshilanadi. Matn mazmuniga oid savollar, asosiy fikrni aniqlash va voqealarni ketma-ketlikda bayon qilish topshiriqlari o‘quvchilarga muhim ma’lumotlarni ajratishni o‘rgatadi.

Ikkinchidan, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Muammoli savollar, bashorat qilish va dalillarni izlash orqali o‘quvchilar tayyor javobni kutish o‘rniga, mustaqil xulosa chiqarishga odatlanadilar.

Uchinchidan, og‘zaki nutq va lug‘at boyligi oshadi. Guruhli muhokamalar, qayta hikoya qilish va qahramonlarga tavsif berish jarayonida o‘quvchilar yangi so‘zlarni o‘zlashtiradilar, gaplarni mazmunan to‘g‘ri tuzish va o‘z fikrini izchil ifodalashga o‘rganadilar.

To‘rtinchidan, darsga qiziqish va faollik kuchayadi. O‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va interaktiv materiallar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb etadi. Bunda har bir o‘quvchiga fikr bildirish va topshiriq bajarish imkoniyatini berish muhimdir.

Beshinchidan, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi. Juftlik va guruhda ishlash davomida o‘quvchilar boshqalarning fikrini tinglash, o‘z qarashlarini tushuntirish va umumiy xulosaga kelishni o‘rganadilar.

Innovatsion metodlarning samaradorligini aniqlash uchun natijalarni muntazam baholash lozim. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarning boshlang‘ich darajasini aniqlab, muayyan muddatdan keyin xuddi shu ko‘nikmalarni qayta tekshirishi mumkin.

Baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Matnni to‘g‘ri va ravon o‘qish.
2. O‘qilgan matnning asosiy mazmunini tushunish.
3. Matndan aniq ma’lumotni topish.
4. Asosiy fikrni ikkinchi darajali ma’lumotlardan farqlash.
5. Sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirish.
6. Xulosa chiqarish va fikrini matndan olingan dalillar bilan asoslash.
7. O‘qilgan matn yuzasidan mustaqil savollar tuzish va ularga javob berish.

Masalan, o‘qituvchi innovatsion metodlarni joriy etishdan oldin o‘quvchilarga matn va uning mazmuniga doir topshiriqlar beradi. Keyingi haftalar davomida tanlangan metodlardan tizimli foydalanadi. Belgilangan muddat oxirida o‘xshash murakkablikdagi boshqa matn asosida qayta baholash o‘tkazadi. Dastlabki va yakuniy natijalarni taqqoslash orqali o‘quvchilarning qaysi ko‘nikmalarida o‘sish kuzatilganini aniqlaydi. Natijalarni tahlil qilishda faqat umumiy ball bilan cheklanmasdan, har bir mezon bo‘yicha o‘zgarishlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Masalan, o‘quvchilarning o‘qish tezligi oshgan bo‘lsa-yu, matn mazmunini tushunish darajasi o‘zgarmagan bo‘lsa, darslarda mazmunni tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlarni ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Shuningdek, o‘qituvchi kuzatuv kundaligi, o‘quvchilarning yozma ishlari, og‘zaki javoblari, mustaqil o‘qish daftarlari va qisqa so‘rovnomalardan foydalanishi mumkin. Bu vositalar ta’limdagi o‘zgarishlarni aniqlash va keyingi mashg‘ulotlarni rejalashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlardan oqilona va izchil foydalanish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish, bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda asosiy e’tibor metodlarning ko‘pligiga emas, balki ularning pedagogik maqsadga muvofiqligi, o‘quvchi faolligini ta’minlashi va natijalarining muntazam tahlil qilinishiga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
3. Boshlang‘ich ta’lim uchun ona tili va o‘qish savodxonligi faniga oid amaldagi davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI BO‘YICHA PSIXOLOGIK INNOVATSIYALAR

Saidova Zebiniso Murtazoyevna
Buxoro PMM, pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida oila va maktab hamkorligini rivojlantirishning psixologik asoslari hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlari yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida ota-onalar hamda pedagoglarning o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, psixologik maslahat, interaktiv treninglar, raqamli muloqot vositalari, oilaviy ta’lim loyihalari va emotsional intellektni rivojlantirish usullarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan. Oila va maktab hamkorligini takomillashtirish orqali o‘quvchilarning maktabga moslashuvi, o‘qishga qiziqishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, oila, maktab, hamkorlik, psixologik innovatsiyalar, shaxs rivojlanishi, emotsional intellekt, ota-onalar bilan hamkorlik, ta’lim-tarbiya, pedagogik psixologiya.*

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические основы и современные инновационные подходы к развитию сотрудничества семьи и школы в системе начального образования. Взаимодействие родителей и педагогов анализируется как важный фактор личностного, социального и эмоционального развития младших школьников. Раскрывается значение индивидуального психологического консультирования, интерактивных тренингов, цифровых средств коммуникации, семейных образовательных проектов и методов развития эмоционального интеллекта в образовательном процессе. Особое внимание уделяется возможностям совершенствования взаимодействия семьи и школы для повышения адаптации детей к школьной среде, развития учебной мотивации, уверенности в себе и навыков социального общения.*

Ключевые слова: *начальное образование, семья, школа, сотрудничество, психологические инновации, развитие личности, эмоциональный интеллект, взаимодействие с родителями, воспитание, педагогическая психология.*

Abstract. *This article examines the psychological foundations and contemporary innovative approaches to strengthening family–school collaboration in primary education. The interaction between parents and teachers is considered an important factor in the personal, social, and emotional development of primary school children. The article highlights the educational value of individual psychological counselling, interactive training sessions, digital communication tools, family-based educational projects, and activities aimed at developing emotional intelligence. Particular attention is given to improving family–school partnerships to support children's school adjustment, enhance learning motivation, strengthen self-confidence, and develop social communication skills.*

Keywords: *primary education, family, school, collaboration, psychological innovations, personal development, emotional intelligence, parental engagement, education and upbringing, educational psychology.*

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish va barkamol shaxsni tarbiyalash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxsiy xususiyatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va ta’lim olishga bo‘lgan munosabati shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Ushbu jarayonda oila va maktabning o‘zaro hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Oila bolaning dastlabki tarbiya muhiti bo‘lib, unda mehr-muhabbat, ishonch, hurmat, mas’uliyat va muloqot madaniyati kabi fazilatlar shakllanadi. Maktab esa bolaning bilim olishi, mustaqil fikrlashi, tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishi va ijtimoiy muhitga moslashishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli oilada berilayotgan tarbiya bilan maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zaro uyg‘unlashishi zarur.

Zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar oila va maktab hamkorligini an’anaviy ota-onalar yig‘ilishlari bilan cheklab qo‘ymasdan, uni tizimli, interaktiv va individual xususiyatlarni hisobga oluvchi jarayon sifatida tashkil etishni taqozo etadi. Bunda ota-onalar bilan individual suhbatlar, psixologik maslahatlar, amaliy treninglar, raqamli aloqa vositalari va oilaviy ta’lim loyihalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Psixologik innovatsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning emotsional holatini qo‘llab-quvvatlash, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, o‘ziga ishonchini

mustahkamlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ota-onalar va pedagoglarning bolaning rivojlanishiga oid qarashlarini uyg‘unlashtirish, yuzaga keladigan muammolarni o‘zaro muloqot asosida hal qilish imkonini yaratadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi ta’lim jarayonida har bir bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash, uning psixologik farovonligini ta’minlash va ta’lim samaradorligini oshirishda oila hamda maktabning hamkorlikdagi faoliyatini yangi usullar asosida tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’limda oila va maktab hamkorligining psixologik asoslarini o‘rganish, innovatsion yondashuvlarning imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi — boshlang‘ich ta’limda oila va maktab hamkorligining psixologik ahamiyatini ochib berish hamda ushbu hamkorlikni takomillashtirishga xizmat qiluvchi innovatsion usullarni yoritishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi. *Ta’lim to‘g‘risida*gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi. *Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida*gi Qonun. O‘RQ-139-son, 2008-yil 7-yanvar.
3. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Bronfenbrenner, U. *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.
5. Bandura, A. *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986.
6. Epstein, J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. 2nd ed. Boulder, CO: Westview Press, 2011.

BADIIY MATNLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

O‘ktamova Mehrigiyo A’zamovna
Buxoro davlat pedagogika institute
3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot ishida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda o‘qish savodxonligi darslarining tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, badiiy matnlarni innovatsion metodlar asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning milliy ongini, Vatanga sadoqatini shakllantirish yo‘llari asoslab berilgan. Tadqiqot davomida kuzatuv, tajriba-sinov, suhbat, kontent-tahlil kabi usullar qo‘llanilib, innovatsion yondashuvlarning samaradorligi amaliy misollar asosida ko‘rsatib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, badiiy matn, vatanparvarlik, his-tuyg‘u, tarbiya, metodika, innovatsion yondashuv, dramatizatsiya, rasm chizish, multimedia, emotsional*

o‘qish, shaxsiy rivojlanish, milliy g‘urur, o‘quvchi faolligi, mustaqil fikr, samimiylik, og‘zaki nutq, bolalar adabiyoti, o‘qituvchi roli

Annotation. *This research explores the educational potential of reading literacy lessons in fostering patriotism among primary school students. The study particularly emphasizes the use of innovative methods in teaching literary texts to develop national consciousness and devotion to the homeland. Methods such as observation, experimental testing, interviews, and content analysis were applied to demonstrate the effectiveness of innovative approaches through practical examples.*

Keywords: *primary education, reading literacy, literary text, patriotism, emotion, upbringing, methodology, innovative approach, dramatization, drawing, multimedia, emotional reading, personal development, national pride, student engagement, independent thinking, sincerity, oral speech, children's literature, teacher's role.*

Аннотация. *В данном исследовании проанализированы воспитательные возможности уроков читательской грамотности в формировании патриотических чувств у учащихся начальных классов. Особое внимание уделено обучению художественным текстам с применением инновационных методов как способу развития национального самосознания и преданности Родине. В ходе исследования использовались такие методы, как наблюдение, эксперимент, интервью и контент-анализ, что позволило на практических примерах показать эффективность инновационных подходов.*

Ключевые слова: *начальное образование, читательская грамотность, художественный текст, патриотизм, эмоция, воспитание, методика, инновационный подход, драматизация, рисование, мультимедиа, эмоциональное чтение, личностное развитие, национальная гордость, активность учащегося, самостоятельное мышление, искренность, устная речь, детская литература, роль учителя*

Kirish. Bugungi ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining qalbida Vatanga mehr, milliy qadriyatlarga hurmat va ona yurtga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu kabi yuksak insoniy fazilatlarni bolalikdan boshlab singdirish katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi esa aynan shunday tarbiyaviy jarayonlar uchun eng qulay, hal qiluvchi davrdir. Bu yoshdagi o‘quvchilar dunyoni hissiy qabul qiladilar, ular uchun hayotiy haqiqatlar obrazlar orqali tushunarliroq va ta’sirchanroq bo‘ladi. Shuning uchun o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o‘qitish nafaqat til va nutq rivoji, balki ruhiy-ma’naviy kamolot vositasiga ham aylanadi. Badiiy asarlar orqali o‘quvchilar Vatan haqida fikrlashni, uni his etishni va undan faxrlanishni o‘rganadilar. Ushbu jarayonda esa innovatsion yondashuvlar – zamonaviy va ijodiy metodlar, texnologiyalar, emotsional ta’sir vositalari muhim o‘rin tutadi. Har bir dars o‘quvchida nafaqat bilim, balki chuqur his uyg‘otsa, u bolalikdan boshlab vatanparvarlikni yuragida his qila boshlaydi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda badiiy matnlarni innovatsion yondashuvlar bilan o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Maktab ta’limining boshlang‘ich bosqichi inson shaxsining poydevori qo‘yiladigan muhim davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari, dunyoqarashi, Vatanga munosabati va hayotga bo‘lgan qarashi shakllana boshlaydi. Shu bois o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o‘qitish nafaqat til va nutq ko‘nikmalarini

rivojlantirishga, balki o‘quvchining qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otishga ham xizmat qilishi kerak. Badiiy asar bolaga bevosita ruhiy ta’sir ko‘rsatadi, uning ongiga chuqur kirib boradi, his-tuyg‘ularini uyg‘otadi va tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi.

Zamonaviy yondashuvlarda bu jarayonni faqatgina matn o‘qish yoki hikoya qilish bilan emas, balki innovatsion, ya’ni o‘ziga xos, ijodiy va faol metodlar orqali olib borish lozim. Masalan, badiiy matn asosida rolli o‘yinlar tashkil qilish, o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini ifodalashga imkon beruvchi dramatizatsiyalarni qo‘llash, multimediali vositalardan foydalanish, matnga asoslangan rasm chizish, hissiy savol-javoblar yoki “agar sen shu qahramon bo‘lsang, nima qilarding?” kabi tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar orqali o‘quvchini matn mohiyatiga chuqurroq olib kirish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi hali hayotni yangi anglay boshlagan, sof va samimiy qalb egasidir. Shu sababli bu davrda berilgan har bir g‘oya, singdirilgan har bir tuyg‘u uning kelajak shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shu nuqtai nazardan olib qaralganda, o‘qish savodxonligi darslari orqali o‘quvchiga nafaqat o‘qish malakasi, balki Vatanga bo‘lgan muhabbat, faxr, sadoqat kabi ma’naviy fazilatlarni singdirish imkoniyati mavjud. Buning uchun o‘qituvchi dars jarayonini an’anaviy shakldan chiqib, o‘quvchini o‘ylantiradigan, ruhlantiradigan va unga jonli tajriba taqdim etadigan innovatsion usullarni qo‘llashi zarur.

Shunday usullardan biri — dramatizatsiya bo‘lib, u orqali bolalar matn qahramonlariga kirib, ularning harakatlari, niyatlari va his-tuyg‘ularini o‘z qalbidan o‘tkazib ijro etadilar. Bu jarayon o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Masalan, ona yurt haqida she’r o‘qibgina qolmay, uni sahnalashtirish orqali bola Vatanni faqat so‘z bilan emas, yurak bilan his eta boshlaydi.

Yana bir samarali yo‘l — tasviriy ifoda metodikasi, ya’ni bolalarga matndan keyin rasm chizish yoki voqea asosida hikoya yaratish topshiriladi. Bunday topshiriqlar bolaning ichki kechinmalarini, Vatan haqidagi tasavvurlarini obrazli ravishda yuzaga chiqaradi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish ham vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Masalan, Vatan haqidagi she’rlar fonida musiqiy fonlar, video ko‘rinishlar qo‘llanilsa, bola matn mazmunini chuqurroq anglaydi va his qiladi. O‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiruvchi usullar — “Mening yuragimdagi Vatan”, “Agar men yurt himoyachisi bo‘lsam...” kabi esse yoki og‘zaki fikr ifodalari ham shaxsiy mas’uliyat va milliy iftixorni uyg‘otadi.

Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy namuna ko‘rsatishi ham muhim omildir. O‘quvchi o‘z ustozidan samimiy, yurakdan chiqqan Vatan haqidagi gaplarni

eshitganida, ularga ishonadi va unga ergashadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisi eng avvalo yurak bilan eshitadi, yurak bilan ishonadi va yurak bilan his qiladi.

Masalan, “Ona yurt” mavzusidagi she’rlarni o‘qigach, bolalardan o‘z yurtini qanday sevishini rasm orqali ifodalash, yoki kichik esse yozish so‘ralganda, u o‘z yurti haqida o‘z qalbidagi so‘zlarni ifodalay boshlaydi. Bu esa vatanparvarlikni shunchaki tushuncha sifatida emas, balki yurakdan kechgan tuyg‘u darajasida shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, QR-kodli kitoblar, audio matnlar, raqamli dars ishlanmalari orqali darsni jonlantirish ham bugungi kunda samarali innovatsion vositalardan biridir.

Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy namunasi ham katta ahamiyatga ega. O‘z yurti haqida faxr bilan so‘zlaydigan, vatan haqida badiiy misollar keltira oladigan, har bir matnga chuqur hayotiy mazmun yuklaydigan o‘qituvchi bolada vatanparvarlik hissini jonlantiradi. Ayniqsa, maktab hayotidagi turli tadbirlar — “Vatanga sadoqat” darslari, o‘quvchilarning sahnalashtirilgan chiqishlari, yurtga bag‘ishlangan hikoya tanlovlari bu tuyg‘uni mustahkamlovchi kuchli vositalardir.

Badiiy matnlar orqali bolaga Vatanga mehr, milliy qadriyatlarga hurmat, ajdodlar bilan faxrlanish tuyg‘ularini singdirish mumkin. Ammo bu o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga yondashishda yangilik kiritishi, o‘quvchini ruhlantiradigan, unda iftixor uyg‘otadigan, o‘z yurtini sevishga undaydigan usullarni izlab topishi, ularni faol qo‘llashi lozim. Faqat shundagina o‘qish savodxonligi darsi nafaqat o‘qitish, balki tarbiyalash vositasiga aylanadi va bolalikdan boshlab ona yurti uchun mas’uliyat hissi shakllana boshlaydi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari: Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish badiiy matnlar orqali yanada samarali kechadi, ayniqsa bu jarayonda innovatsion usullar qo‘llansa. Quyida bu holat qanday amalga oshirilishi haqida batafsil tushuncha beriladi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun Vatan tushunchasi hali hissiy, tasavvuriy darajada shakllangan bo‘ladi. Shu sababli, unga bu tuyg‘uni singdirishda oddiy tushuntirish emas, balki yuragiga ta’sir etuvchi usullar zarur. Badiiy matnlar — she’r, hikoya, ertak, dialoglar — bu maqsadga xizmat qiladi. Ammo ularni shunchaki o‘qish emas, zamonaviy yondashuvlar yordamida o‘qitish o‘quvchida real va barqaror vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Quyidagi innovatsion yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Rolli o‘yinlar (dramatizatsiya): Badiiy matn asosida o‘quvchilar matndagi obrazlarni jonlantirib sahnalashtiradi. Masalan, “Vatan himoyachisi”, “Ona yurt” kabi mavzularda dramatik chiqishlar tashkil etish bolaga Vatan uchun xizmat qilish qanday tuyg‘u ekanini his qildiradi.

2. Emotsional savol-javob va “Och fikrlar” metodikasi: O‘qituvchi matndan so‘ng savollar beradi:

- “Sen shu bolakay o‘rnida bo‘lsang, nima qilarding?”
- “Senga Vatan nima degani?” Bu usul o‘quvchini o‘z fikrini bildirishga undaydi, mustaqil fikrlash va vatanparvarlik tuyg‘usini birga uyg‘otadi.

3. Matn asosida rasm chizish: Bolaga matndagi Vatan tasvirini tasavvur qilib rasm chizish topshiriladi. Bu orqali bola Vatan manzarasini, his-tuyg‘ularini obrazli ifoda etadi va Vatanga bo‘lgan munosabatini qalbdan chiqaradi.

4. Multimedia vositalari: She’r yoki hikoyani audio tarzda tinglash, unga mos videoroliklar ko‘rish, interaktiv slaydlar yoki QR-kodli qo‘shimcha manbalar orqali materialni his qilish kuchayadi. Bu usullar o‘quvchida chuqur taassurot qoldiradi.

5. Mini-insho va og‘zaki fikr ifodasi: Matndan so‘ng “Mening yurtim”, “Men Vatanimni sevaman, chunki...” mavzusida kichik og‘zaki nutq, mini-insho yozish orqali bola o‘z qalbidagi tuyg‘ularni bayon etadi.

6. “Hayotiy bog‘liqlik” metodi: Matndagi voqealarni bugungi hayot bilan bog‘lash: masalan, mustaqillik bayrami, bayroq kuni, maktabdagi “Vatanga sadoqat” tadbirlaridan misollar keltirib, badiiy matn hayotiy mazmun bilan boyitiladi.

7. “Yurakdan yurakka” usuli: O‘qituvchi Vatan haqidagi o‘z his-tuyg‘ularini samimiy tarzda ifoda etadi va o‘quvchilardan ham shu ruhda so‘z yuritishni so‘raydi. Bu orqali yurakdan chiqqan gap yurakka yetib boradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslari faqat o‘qish ko‘nikmasini emas, balki ruhiy va axloqiy tarbiyani ham shakllantiradi. Badiiy matnlarni innovatsion usullar asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarda Vatanga bo‘lgan mehr, sadoqat, iftixor va mas’uliyat tuyg‘ulari tabiiy va barqaror shakllanadi. Asosiysi — har bir darsda bola yuragini junbushga keltiradigan, unga o‘z yurtini sevish zarurligini his qiladigan ruhiy muhitni yaratishdir.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tadqiqot davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda badiiy matnlarning o‘rni, ularni o‘qitishda innovatsion usullarning samaradorligi sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot tajriba-sinov asosida tashkil etilib, ikki guruh – nazorat va tajriba guruhlari bilan ishlash orqali aniq natijalar olindi.

Tajriba guruhi darslarida dramatizatsiya, rasm asosida fikr ifodalash, multimediali ko‘makchi materiallardan foydalanish, his-tuyg‘uga yo‘naltirilgan savollar, kichik og‘zaki nutq mashqlari kabi innovatsion usullar muntazam qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa asosan an’anaviy, passiv usullar – matn o‘qish, savol-javob, izoh berish kabi yondashuvlar bilan cheklanildi.

Tajriba yakunida o‘quvchilarning nutq namunalari, yozma ishlari, darsdagi ishtiroki, baholash varaqalari va suhbatlar tahlil qilinib, quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

- O‘quvchilarning faollik darajasi tajriba guruhida 65–70% ga oshdi. Ular darsda jonli ishtirok eta boshladi, o‘z fikrini dadil ifoda qilishga harakat qildi.
- Vatan haqidagi tushunchalarining kengaygani kuzatildi. Masalan, “Vatan nima?”, “Vatanga qanday sadoqat ko‘rsatish mumkin?” kabi savollarga tajriba guruhi o‘quvchilari to‘liq va mazmunli javob bera boshladi.
- Ijodiy ifoda qilish – rasm chizish, mini-insho yozish, hikoya davom ettirish kabi vazifalarda tajriba guruhi bolalari mazmundor, hisga boy va samimiy ifodalar ishlatgan.
- Matnga emotsional munosabat kuchaydi. O‘quvchilar qahramonlarning his-tuyg‘ularini anglab, ular bilan o‘zini tenglashtira boshladi, bu esa hissiy tarbiyada muhim yutuq hisoblanadi.
- Sahna chiqishlari va dramatizatsiya orqali bolalarda jamoaviylik, mas’uliyat, rolli fikrlash va hamdardlik tuyg‘ulari shakllandi.
- Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar nisbatan sustroq, cheklangan doirada kuzatildi. Ularning aksariyati matn mazmunini takrorladi, lekin Vatan mavzusida ijodiy yoki hissiy fikr bildirishi qiyin bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, badiiy matnlar orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish metodlariga bog‘liq. Innovatsion usullar – bola dunyoqarashiga mos, hissiyotga boy, faollikka undaydigan yondashuvlar — darsni ma’naviy tarbiya vositasiga aylantiradi. Ular o‘quvchini faqat bilim olish emas, balki yurakdan his qilishga, matnga shaxsiy munosabat bildirishga olib keladi. Tadqiqot asosida pedagogik xulosa qilinadi: agar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi badiiy matnlarni yangicha yondashuv bilan, innovatsion usullar asosida o‘qitsa, bu o‘quvchida Vatanga mehr, iftixor, sadoqat, mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishda kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Bunday yondashuv nafaqat savodxonlikni, balki shaxsiy kamolotni ham ta’minlaydi.

Xulosa. Yurtga sadoqat, milliy g‘urur va Vatanga mehr kabi tuyg‘ular inson shaxsining eng muhim axloqiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Bu tuyg‘ularning poydevori esa bolalikda, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllanadi. O‘qish savodxonligi darslari — bolaning nafaqat savodini ochuvchi, balki uning qalbini tarbiyalovchi eng kuchli vositadir. Mazkur tadqiqotda shuni ko‘rish mumkinki, badiiy matnlar vositasida o‘quvchida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish imkoniyati nihoyatda yuqori. Biroq bu imkoniyatdan to‘liq foydalanish uchun dars jarayoniga innovatsion usullarni joriy etish zarur.

Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan tajriba-sinovlar, tahlillar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, dramatizatsiya, rasmli ifoda, emotsional savollar, multimedia vositalari, mini-insho va og‘zaki fikr bildirish kabi yondashuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirokchi va fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Eng asosiysi, bu metodlar bolaning Vatan haqidagi tushunchasini kengaytiradi, tuyg‘usini uyg‘otadi va ushbu qadriyatni ichki ehtiyoj sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, badiiy matnlarni faqat matn sifatida emas, balki tarbiyaviy, ma’naviy va hissiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan vosita sifatida o‘qitish, innovatsion metodlar yordamida darslarni jonlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldidagi muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Bunday yondashuv orqali o‘quvchining shaxsiy kamoloti bilan birga, Vatanga daxldorlik hissi, milliy ong va fuqarolik mas’uliyati ham izchil shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. To‘xtayeva M. Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 144 b.
2. Xolboyeva Z. B. O‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlar orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish // Boshlang‘ich ta’lim jurnali, №3, 2021. – B. 45–49.
3. Mirzayeva D. R. Innovatsion metodlar orqali Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand: “Ilm ziyo”, 2022. – B. 78–81.
4. Yuldasheva G. R. Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish: darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. – 200 b.
5. Karimova N. M. Vatanparvarlik va axloqiy tarbiya: muammolar va yechimlar // Pedagogik izlanishlar, №2, 2020. – B. 61–66.
6. Raxmatova M. F. Zamonaviy darsda innovatsion metodlardan foydalanish samaradorligi // Ilmiy-uslubiy anjuman to‘plami. – Buxoro: “BuxDU”, 2023. – B. 33–37.
7. Hasanova L. T. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi: darslik. – Toshkent: “Innovatsiya”, 2021. – 176 b.
8. Salimov A. O‘qish darslarida ifodali o‘qish va his-hayajonning o‘rni // Boshlang‘ich ta’lim muammolari, №1, 2022. – B. 22–26.
9. Eshqulov J. B. Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy dars loyihalari // Ilmiy konferensiya materiallari. – Andijon: “Istiqlol nuri”, 2021. – B. 91–95.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINING INNOVATSION MODELI: PEDAGOGIK MEXANIZMLAR VA AMALIY NATIJALAR

Shokirova Madinabonu Shomurod qizi
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “o‘qituvchi–ota-ona–o‘quvchi” hamkorligini diagnostika, maqsadni birgalikda belgilash, axborot-kommunikativ aloqalar, amaliy faoliyat, monitoring va refleksiya bosqichlaridan iborat yaxlit mexanizm sifatida tashkil etish taklif qilinadi. Individual rivojlanish xaritasi, oilaviy ta’lim laboratoriyasi, pedagogik mikrotrening, raqamli qayta aloqa, uch tomonlama refleksiya va hamkorlikdagi loyiha kabi innovatsion metodlarning amaliy imkoniyatlari ochib beriladi.*

Tayanch tushunchalar: *boshlang‘ich ta’lim, oila, maktab, pedagogik hamkorlik, innovatsion metod, ota-ona, o‘qituvchi, ta’lim samaradorligi, diagnostika, pedagogik monitoring, individual rivojlanish, refleksiya.*

Abstract. *This article proposes organizing teacher–parent–student collaboration as an integrated mechanism consisting of the following stages: diagnostics, joint goal setting, information and communication interaction, practical activities, monitoring, and reflection. The practical potential of innovative methods, including an individual development map, a family education laboratory, pedagogical micro-training, digital feedback, three-way reflection, and collaborative projects, is explored.*

Аннотация. *В статье предлагается организация взаимодействия «учитель–родитель–учащийся» как целостного механизма, включающего этапы диагностики, совместного целеполагания, информационно-коммуникативного взаимодействия, практической деятельности, мониторинга и рефлексии. Раскрываются практические возможности инновационных методов, таких как индивидуальная карта развития, лаборатория семейного образования, педагогический микротренинг, цифровая обратная связь, трёхсторонняя рефлексия и совместный проект.*

Oila va maktab hamkorligining pedagogik mohiyati. Oila bolaning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi. Unda shaxsning xulq-atvori, qadriyatlari, munosabatlari va dastlabki hayotiy ko‘nikmalari shakllanadi. Maktab esa ushbu jarayonni ilmiy asoslangan ta’lim va tarbiya vositalari orqali davom ettiradi. Shu sababli oila va maktabning pedagogik maqsadlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgandagina barqaror natijaga erishish mumkin.

Maktab, oila va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni tizimli tashkil qilish o‘quvchilarning akademik va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishi xalqaro tadqiqotlarda ham alohida ta’kidlanadi [3; 4].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga uyda ko‘rsatiladigan pedagogik yordam uning o‘rniga topshiriq bajarish yoki doimiy nazorat qilish shaklida emas, balki mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi zarur. Bola o‘z xatosini anglash, vazifani rejalashtirish, muammoni mustaqil yechish imkoniyatiga ega bo‘lgandagina unda ta’limiy mustaqillik shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan, ota-onaning pedagogik madaniyatini oshirish ham boshlang‘ich ta’lim samaradorligining muhim omillaridan biridir.

An’anaviy hamkorlik modelidagi muammolar. Amaliyotda ota-onalar bilan hamkorlik ko‘pincha sinf yig‘ilishi, ota-onalar guruhiga xabar yuborish va o‘quvchining baholari haqida ma’lumot berish bilan cheklanadi. Bunday hamkorlik

muayyan axborot vazifasini bajaradi, biroq bolaning individual rivojlanishini ta’minlash uchun yetarli emas.

Hamkorlikdagi asosiy muammolardan biri — ota-onalar bilan muloqotning ko‘pincha bolaning muammosi yuzaga kelganidan keyin faollashishidir. Bu holatda pedagogik faoliyat rivojlantiruvchi va profilaktik xususiyatdan ko‘ra korreksion tus oladi.

Ikkinchi muammo bahoga yo‘naltirilgan yondashuvdir. Ota-ona bolaning “nechchi baho olgani”ni biladi, biroq uning qanday o‘rganayotgani, qanday qiyinchiliklarga duch kelayotgani va qaysi kompetensiyalarida rivojlanish mavjudligi haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lmasligi mumkin.

Zamonaviy pedagogik yondashuv esa natijani faqat yakuniy baho orqali emas, o‘quvchining rivojlanish dinamikasi orqali baholashni talab qiladi [7].

Oila va maktab hamkorligining innovatsion mexanizmi. Boshlang‘ich ta’limda oila va maktab hamkorligini quyidagi yaxlit mexanizm asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq: diagnostika → hamkorlikdagi maqsad → individual pedagogik strategiya → amaliy faoliyat → monitoring → refleksiya va korreksiya.

Mazkur mexanizmda o‘qituvchi va ota-ona bir xil pedagogik maqsad sari harakat qiladigan hamkorlarga aylanadi.

Birinchi bosqich — diagnostika. Hamkorlik o‘quvchining mavjud holatini aniqlashdan boshlanishi lozim. Diagnostika bolaning kamchiliklarini topishga emas, balki uning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qilishi kerak.

O‘qituvchi quyidagilarni kuzatadi:o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi, o‘qish va matematik savodxonligi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi, muloqot faoliyati, o‘quv motivatsiyasi, ijodiy va tanqidiy fikrlashi, o‘z faoliyatini baholash qobiliyati.

Ota-ona esa bolaning uy sharoitidagi mustaqilligi, qiziqishlari, kun tartibi, kitob o‘qish odati va muayyan topshiriqlarga munosabati haqida ma’lumot beradi.

Pedagogik diagnostika maqsadga yo‘naltirilgan kuzatish, suhbat, topshiriq, so‘rov va refleksiv usullar bilan olib borilishi mumkin. Diagnostik ma’lumotlar keyingi ta’limiy faoliyatni individuallashtirishga asos yaratadi [12; 13].

“Individual rivojlanish xaritasi”. Diagnostika natijalarini qayd etish uchun “Individual rivojlanish xaritasi”dan foydalanish mumkin. Mazkur xaritada o‘quvchining o‘qish savodxonligi, yozma nutqi, matematik fikrlashi, ijodkorligi, kommunikativligi, mustaqilligi va refleksiv ko‘nikmalari bo‘yicha rivojlanish holati aks ettiriladi.

Masalan: boshlang‘ich holat: o‘quvchi matn mazmunini faqat o‘qituvchi savollari asosida bayon qiladi.

Oraliq natija: tayanch so‘zlardan foydalanib mazmunni izchil bayon qiladi.

Kutilayotgan natija: o‘qilgan matnning asosiy mazmunini mustaqil ifodalaydi va unga munosabat bildiradi.

Bu metod faqat kamchilikni emas, o‘sish dinamikasini ham ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi bosqich — hamkorlikdagi maqsadni belgilash. “Bir oy davomida matnni tushunish va asosiy fikrni mustaqil ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish.”
Mazkur maqsad uchun o‘qituvchi darsda maqsadli topshiriqlar tashkil etadi, ota-ona esa uy sharoitida qisqa matnlar asosida suhbat va savol-javob o‘tkazadi.
Shu tariqa maktab va oiladagi pedagogik faoliyat bitta natijaga yo‘naltiriladi.

“Oilaviy ta’lim laboratoriyasi” modeli. Boshlang‘ich ta’limda ota-onalarni bevosita rivojlantiruvchi faoliyatga jalb etish uchun “Oilaviy ta’lim laboratoriyasi” metodidan foydalanish mumkin.

Mazkur modelda oila uchun katta hajmdagi qo‘shimcha vazifalar emas, kundalik hayot bilan bog‘liq mikro-topshiriqlar ishlab chiqiladi.
Ota-onalar uchun pedagogik mikrotreninglar. Ota-onaning pedagogik bilimini rivojlantirish maqsadida 10–15 daqiqalik mikrotreninglarni ota-onalar yig‘ilishlariga integratsiya qilish mumkin.

Treninglar quyidagi mavzularda tashkil etilishi maqsadga muvofiq:
Bolaga mustaqil uy vazifasini bajarishda qanday yordam berish, bolaning xatosiga to‘g‘ri munosabat bildirish, kitobxonlik motivatsiyasini shakllantirish, rag‘batlantirishning samarali usullari, o‘quvchida mas’uliyat va mustaqillikni rivojlantirish, raqamli vositalardan me’yorida foydalanish.

Mexanizmning amaliy natijalarini baholash. Hamkorlik samaradorligini faqat o‘quvchining baholari orqali aniqlash yetarli emas. Quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Ta’limiy mezon — o‘zlashtirish dinamikasi, topshiriqlarni bajarish sifati, o‘qish va matematik savodxonlik.

Motivatsion mezon — darsga qiziqish, tashabbuskorlik va yangi bilim olishga intilish.
Mustaqillik mezoni — vazifani rejalashtirish, bajarish va o‘zini nazorat qilish.
Kommunikativ mezon — o‘z fikrini ifodalash, tinglash va guruh bilan hamkorlik qilish.
Refleksiv mezon — o‘z yutug‘i va qiyinchiliklarini aniqlash.

Oilaviy hamkorlik mezoni — ota-onaning pedagogik tavsiyalardan foydalanishi va bola rivojlanishini muntazam kuzatishi.

Xalqaro ta’lim tadqiqotlarida ham oila tomonidan ta’limga ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchining maktabdagi faoliyati va ta’limga munosabati o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida tahlil qilinadi [7; 8; 9].

Taklif etilayotgan modelning innovatsion jihati. Taklif qilinayotgan mexanizmning yangiligi ota-onani koʻproq tadbirlarga jalb etish bilangina belgilanmaydi. Uning asosiy innovatsion xususiyati maktab va oila oʻrtasidagi munosabatning mazmunan yangilanishidadir.

An'anaviy modelda: maktab → ota-ona koʻrinishidagi bir tomonlama axborot almashinuvi ustun boʻlsa, taklif qilinayotgan model:
oʻqituvchi ↔ oʻquvchi ↔ ota-ona oʻrtasidagi uzluksiz pedagogik muloqotni nazarda tutadi.

Natijada hamkorlik: epizodikdan — tizimliga; umumiy yondashuvdan — individual yondashuvga; nazoratdan — pedagogik qoʻllab-quvvatlashga; bahoga yoʻnaltirilganlikdan — rivojlanishga yoʻnaltirilganlikka; bir tomonlama axborotdan — faol qayta aloqaga; muammoga javob berishdan — profilaktik faoliyatga oʻtadi.

Mazkur jihatlar boshlangʻich ta'limda innovatsion metodlar va amaliy natijalar uygʻunligini ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa. Boshlangʻich ta'lim samaradorligini oshirish koʻp omilli jarayon boʻlib, unda maktab va oilaning pedagogik imkoniyatlarini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻquvchining ta'limiy muvaffaqiyati oʻqituvchining metodik mahorati bilan bir qatorda oiladagi ta'limiy muhit, ota-onaning pedagogik savodxonligi va ikki tomon oʻrtasida tashkil etilgan tizimli muloqotga ham bogʻliq [3; 4].

Taklif etilgan diagnostika → maqsad → individual pedagogik strategiya → amaliy faoliyat → monitoring → refleksiya va korreksiya mexanizmi oila va maktab hamkorligini tartibli va natijaga yoʻnaltirilgan jarayonga aylantiradi.

"Individual rivojlanish xaritasi", "Oilaviy ta'lim laboratoriyasi", pedagogik mikrotreninglar, raqamli qayta aloqa, uch tomonlama refleksiya va hamkorlikdagi loyihalarning qoʻllanishi ota-onaning ta'lim jarayonidagi ishtirokini mazmunan boyitadi. Bunda ota-ona bolaning oʻrniga vazifa bajaruvchi yoki uning faoliyatini faqat nazorat qiluvchi subyekt emas, balki rivojlantiruvchi ta'limiy muhitni yaratadigan pedagogik hamkor vazifasini bajaradi. Oʻqituvchi esa ota-onaga baholar haqida ma'lumot yetkazuvchi shaxsdan bolaning individual rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi pedagogik koordinator darajasiga koʻtariladi.

Oila va maktab oʻrtasidagi hamkorlikni innovatsion pedagogik mexanizmlar asosida tashkil etish boshlangʻich sinf oʻquvchisining bilim sifati, mustaqilligi, oʻquv motivatsiyasi, kommunikativligi va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur model "Boshlangʻich ta'lim: innovatsion metodlar va amaliy natijalar" yoʻnalishining maqsadiga mos ravishda nazariy gʻoyalarni aniq amaliy natijalar bilan bogʻlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1.Epstein J. L., Sheldon S. B. *School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools*. – 3rd ed. – New York: Routledge, 2023.
2.Christenson S. L., Reschly A. L. *Handbook of School-Family Partnerships*. – New York: Routledge, 2010.
3.Auerbach S. *School Leadership for Authentic Family and Community Partnerships: Research Perspectives for Transforming Practice*. – New York: Routledge, 2012.
4.Quezada R. L. *Family, School, Community Engagement and Partnerships: An Area of Continued Inquiry and Growth*. – New York: Routledge, 2018.
5.OECD. *PISA 2022 Results: Insights and Interpretations*. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6.UNICEF. *Every Child Learns: UNICEF Education Strategy 2019–2030*. – New York: United Nations Children's Fund, 2019.
7.Mishra S., Brossard M., Reuge N., Mizunoya S. *How Involved Are Parents in Their Children's Learning? MICS6 Data Reveal Critical Insights*. – New York: UNICEF, 2020.
8.Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. *Umumiy pedagogika*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
9.Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. *Pedagogika fanidan izohli lug'at*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
10.G'oziev E. G'. *Ontogenez psixologiyasi*. – Toshkent: Noshir, 2010.
11.Davletshin M. G., Do'stmuhamedova Sh. A., Mavlonov M. M., To'ychiyeva S. M. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. – Toshkent: TDPU, 2004.
12.Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2006.
13.Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. *Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Nihol, 2016.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA IBORALARNI OBRAZLAR YORDAMIDA O'RGATISH USULLARI

To'rayeva Sanobar Sulaymonovna
Buxoro viloyati PMM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi v.b.dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Boshlang'ich sinflarda lug'at ustida o'tkaziladigan ishdagi muammoli va murakkab masalalardan biri kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga iboralar ma'nosini tushuntirishdir. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida abstrakt tafakkur unchalik rivojlanmagan bo'lib, ular, asosan, ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan, ya'ni aniq narsalarni idrok qilish qobiliyatiga ega. Ko'chma ma'noni ifodalovchi iboralar esa aksar hollarda ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab, ya'ni sezgi a'zolari bilan sezib bo'lmaydigan tushunchalarni, voqelikni ifodalaydi, shuning uchun

boshlang‘ich sinf o’quvchisi ularning ma’nosini tushunishga qiynaladi. Bu esa boshlang‘ich sinflarda iboralar ma’nosini tushuntirish metodikasini ishlab chiqish zarurligini ko’rsatadi. Bizningcha, bunday usullardan biri mavhum tushunchalarni, voqelikni obrazlar yordamida tushuntirishdir.

Endi obraz tushunchasi haqida so’z yuritamiz. Obraz semiotika sohasiga mansub tushuncha bo’lib, ramzning bir turidir. Ramzning o’ziga xos xususiyati quyidagilar: ramz predmetning hissiy obrazidir; u predmetning vakili (namoyandasi)dir; u qandaydir muayyan ma’noni ifodalaydi; uning shaklining belgilanuvchi predmet bilan bevosita aloqasi yo’q [2, 244]. Bu xysusiyatlar obrazga ham bevosita taalluqli. Mavhum tushunchadan farqli ravishda obraz ko’rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u voqelikni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzda aks ettiradi.



Boshlang‘ich sinf o’qish va ona tili darsliklarida turli ma’nodagi iboralar ko’p uchraydi. Masalan, 4-sinf o’qish kitobi darsligida [4] quyidagi iboralarni uchratish mumkin: *aqli shoshdi,ko‘ngli to‘ldi, juftakni rostlamoq, hushi boshidan uchdi, bir yoqadan bosh chiqarib, iziga qaytib* va hokazo.

Bu iboralarga izohli lug‘atga tayanib oddiygina izoh bersak, boshlang‘ich sinf o’quvchisi uning ma’nosini aniq tushuna olmaydi.

Xuddi shu iboralarni obraz yordamida tushuntirganimizda esa o’quvchida ular haqida yaqqol tasavvur hosil bo’ladi. Biroq ta’kidlash joizki, iboralarga obraz yordamida ta’rif berganimizda uning asosiy izohini ham keltirish zarur bo’ladi. Aks holda o’quvchining bu hodisa haqidagi tushunchasi chala bo’lib qoladi. Quyida bir necha iboraning obraz vositasida izohlanishiga misol keltiramiz.

Kovushini to‘g‘rilab qo‘ydi iborasini quyidagicha izohlash mumkin: O‘quvchilar, Tasavvur qilib ko’ring, kovushni qanday to‘g‘irlab qo‘yish mumkin? Biror kishining boshqa bir kishini kovushini to‘g‘irlab qo‘yganini qachon ko’rgansiz? O‘qituvchi doskaga shu ibora rasmini iladi yoki ekranda ko’rsatadi.



Og‘zida gap turmaydi iborasi: O‘quvchilarga iboraning quyidagi tasvir ko‘rsatiladi. O‘quvchilar quyidagi rasmni diqqat bilan kuzating. Bolalar, siz insonlarni og‘zidan gaplarni tushib ketayotganligini hech ko‘rganmisiz? Qanday kishilarga nisbatan bu ibora ishlatiladi?



Kapalagi uchib ketdi iborasi. O‘quvchilar siz tabiat qo‘ynida kapalaklarni juda ko‘p kuzatgansiz. Odamda ham kapalak bo‘ladimi? Qachon biz bu iboradan foydalanamiz? Kapalagi uchub ketayotgan odamni bir tasavvur qilib ko‘ringa? O‘quvchilar rasmga

qarab voqelikni tasavvur qiladi va ko‘chma ma’noni anglab oladi. O‘qituvchi rasmga izoh beradi: “Mana, o‘quvchilar, ko’rib turganingizdek, kishining qattiq qo‘rqishini shunday tasvirlash mumkin. Odam biror narsadan qattiq qo‘rqqanligini nutqda yaqqol ifodalash uchun bu iboradan foydalaniladi”.

Iboralarni obrazli izohlashda o‘quvchida ijodiy tasavvur shakllanadi. U reallikdan tashqari mavhum tushunchalarni, shu bilan birga iboralardagi ko‘chma ma’nolarni ham tushunib anglay boshlaydi. O‘quvchida nutqiy savodxonlik rivojlanadi, tilga bo‘lgan sezgirlik oshadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar iboradagi obrazlilik va ko‘chma ma’noni yaxshiroq tushunishi uchun ularda tasavvurni rivojlantirish kerak.

Tasavvur – bu shaxs bilimlarini yangi uyg‘unlikka keltirish orqali obyekt, holat va vaziyatlar tasvirini yaratishning psixologik jarayoni. Tasavvur insonda amaliy faoliyat jarayonida vujudga keladi. Inson tajribasi qanchalik boy bo‘lsa, bilimi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning taassurotlari qanchalik rang-barang bo‘lsa, ongdagi tasvirlarni birlashtirish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Tasavvurning ikki turi mavjud – qayta va ijodiy tasavvur.

Qayta tasavvur – idrok etilgan belgilar tizimi asosida qayta yaratiluvchi tasavvur. Bunda darslikdagi matn, raqamli, grafik tasvirlar va boshqalardan foydalanish mumkin. Tasavvurning sifati dastlabki berilgan ma’lumotga bog‘liq. Badiiy adabiyotni o‘qiyotganda tasavvur lingvistik vositalar orqali shakllanadi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, jonlatirish va vazifadoshlik kabi ma’no ko‘chish vositalari yordamida majoziy til tasavvur qilish imkonini yaratadi, chunki u o‘quvchining keng bilim va shaxsiy tajribasini jonlantiradi. Bilimni qayta tasavvur etish o‘quvchi bilimni o‘zlashtirishiga va sifatiga ham aloqadordir.

Ijodiy tasavvur – yangi, o‘ziga xos tasvir yoki g‘oyani yaratish. Ijodiy tasavvurni yaratish usullaridan biri analogiyadir. Uning mohiyati shundaki, yaratilayotgan obraz o‘ziga xos nimagadir monand, mavjud narsa, shaxs yoki harakatga o‘xshash tasvirni yaratishdan iborat. Tasavvurning rivojlanishi nutqda frazeologik birliklarni tushunish va to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi. Turli o‘quv fanlarini o‘qitishda pedagogik jarayonning vazifasi o‘quvchida yorqin bo‘yoqdor obrazlar tasavvurini rivojlantirishdan iborat.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, iboralarni obrazli o‘rganish jarayonida kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarda tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi. Chunki, turg‘un birikmalar o‘quvchida fikrlashning psixik jihatlari va nutqini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o’quvchilariga iboralar obrazlar yordamida tushuntirilganda bolalarda mazkur tushuncha haqida aniq tasavvur hosil bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent:«Yangi asr avlodi», 2007. – 104 b.

2. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1995. – 192 b.
3. Safarov F., Safarov S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun izohli lug‘at. – Toshkent: «Fan», 2012. – 218 b.
4. S.Matchonov va b., O‘qish kitobi : 4-sinf uchun darslik / S. Matchonov [va boshq.]. – Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 4-nash. – Toshkent.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2019. – 240 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA 5E MODELINI QO‘LLASH ORQALI O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

M.S.Narziyeva
Buxoro viloyat pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda 5E modeli (Qiziqtirish, O‘rganish, Tushuntirish, Kengaytirish, Baholash)ning ahamiyati va samaradorligi o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili asosida 5E modelining nazariy asoslari, uning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 5E modeli o‘quvchilarning faol bilish jarayonida ishtirok etishini ta’minlaydi, muammolarni hal qilish, tahlil qilish, baholash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun 5E modelini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: 5E modeli, boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash, konstruktivizm, faol o‘qitish, muammoli ta’lim.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari hayotiy zarurat hisoblanadi. O‘quvchilarni faqat axborotni eslab qolishgagina emas, balki ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash, muammolarni hal qilish va asosli qarorlar qabul qilishga o‘rgatish bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim davrida tanqidiy fikrlash asoslarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda bolaning intellektual qobiliyatlari jadal sur’atda rivojlanadi [1].

5E modeli (Engagement, Exploration, Explanation, Elaboration, Evaluation) – konstruktivistik yondashuvga asoslangan o‘qitish strategiyasi bo‘lib, o‘quvchilarni faol bilim olishga, tadqiqot o‘tkazishga va o‘z xulosalarini chiqarishga undaydi. Bu model dastlab tabiiy fanlarni o‘qitishda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, hozirgi kunda barcha fan sohalarida, jumladan, boshlang‘ich ta’limda ham keng qo‘llanilmoqda [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinflarda 5E modelini qo‘llash orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. 5E modeli – bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun ishlatiladigan metodik yondashuv

bo‘lib, u konstruktivistik ta’lim nazariyasiga asoslanadi. Bu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchilar yangi bilimlarni oldingi tajribalar bilan bog‘lash orqali o‘zlashtiradilar [3]. 5E modeli Bybee tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u quyidagi besh bosqichdan iborat: Qiziqtirish (Engage), O‘rganish (Explore), Tushuntirish (Explain), Kengaytirish (Elaborate) va Baholash (Evaluate) [4].

Qiziqtirish bosqichida o‘quvchilarda yangi mavzu bo‘yicha qiziqish uyg‘otish, ularni mavzuga jalb qilish kerak. Bu bosqichda ko‘pincha savollar berish, mavzu bilan bog‘liq qisqacha video yoki hikoya ko‘rsatish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi. O‘rganish bosqichida o‘quvchilarni mustaqil yoki guruhda ishlashga undash orqali mavzu bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, turli eksperimentlar o‘tkazish yoki muammolarni yechish imkoniyati beriladi. Tushuntirish bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tushuntiradi, o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini ifodalashadi va o‘qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to‘liqroq izohlaydi. Kengaytirish bosqichida o‘quvchilarga yangi bilimlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini berish orqali ular o‘z bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llashadi. Baholash bosqichida esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholash uchun turli baholash metodlaridan foydalaniladi [5].

Boshlang‘ich ta’limda 5E modeli o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning qiziqishlarini saqlab qolish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda samarali vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiatdan qiziquvchan bo‘lib, ular o‘rganishga va tadqiqot qilishga moyil bo‘ladi. 5E modeli aynan shu tabiiy qiziqishdan foydalanib, o‘quvchilarni faol bilim olishga undaydi.

Tanqidiy fikrlash – bu ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va uni asosli ravishda talqin qilish qobiliyatidir. Facione tanqidiy fikrlashning oltita asosiy ko‘nikmasini ajratib ko‘rsatadi: tahlil qilish, baholash, tushuntirish, o‘z-o‘zini tartibga solish, talqin qilish va xulosalash [6]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlari konkret fikrlashdan abstrakt fikrlashga, oddiy savollardan murakkab savollarga, bir tomonlama qarashdan ko‘p tomonlama qarashga va tayyor javoblarni qabul qilishdan savollar berishga o‘tish xususiyatlariga ega. Vigotskiyning ta’kidlashicha, boshlang‘ich maktab davri – bu bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"da faol ishlash davridir, ya’ni bola kattalar yordamida o‘z imkoniyatlaridan yuqoriroq darajada ishlashi mumkin [7]. Shuning uchun, o‘qituvchilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

5E modelining har bir bosqichi tanqidiy fikrlashning ma’lum ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Qiziqtirish bosqichida o‘quvchilarning oldingi bilimlarini faollashtirish, savollar berish va farazlar ilgari surish, muammoli vaziyatlarni yaratish mumkin. Masalan, "Suvning holatlari" mavzusida o‘qituvchi muz parchasini ko‘rsatib, "Nima uchun muz suvda suzadi?" degan savolni berishi

mumkin. Bu savol o‘quvchilarni fikrlashga, farazlar ilgari surishga undaydi. O‘rganish bosqichida tadqiqot o‘tkazish va ma’lumot yig‘ish, kuzatishlar qilish va ma’lumotlarni qayd etish, dalillar asosida xulosalar chiqarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Masalan, o‘quvchilar turli materiallarni suvga tashlab, qaysilari cho‘kishi va qaysilari suzishini kuzatishlari, natijalarni jadvalga qayd etishlari va ular orasidagi bog‘liqliklarni topishga harakat qilishlari mumkin.

Tushuntirish bosqichida o‘z fikrlarini ifoda etish va asoslash, bir-birining fikrlarini tinglash va hurmat qilish, mavzu bo‘yicha tushunchalarni o‘zlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z kuzatishlarini sinfdoshlari bilan baham ko‘radilar, o‘qituvchi esa tushunchalarni aniqlashtiradi va ilmiy atamalarni tushuntiradi. Kengaytirish bosqichida yangi ma’lumotlarni oldingi bilimlar bilan bog‘lash, bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Masalan, o‘qituvchi “Nima uchun qishda ko‘llar ustida muz qatlami hosil bo‘ladi?” degan yangi savolni berishi mumkin. Baholash bosqichida o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy fikrlash, o‘z bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlash ko‘nikmalari shakllanadi [8].

Boshlang‘ich sinflarda 5E modelini qo‘llashda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mumkin: muammoli vaziyat yaratish, “aqliy hujum", "nima uchun?" metodi, rolli o‘yinlar, guruhda ishlash, loyiha ishlari va boshqalar. Masalan, matematika darsida “Do‘konga borish” rolli o‘yinida o‘quvchilar turli mahsulotlarni "sotib olishi" va umumiy summani hisoblab chiqishi mumkin. Bu orqali ular matematik hisob-kitoblarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar [9].

5E modelini boshlang‘ich sinflarda qo‘llashda quyidagi jihatlarni hisobga olish muhim:

- O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish;
- Qiziqarli va hayotiy misollardan foydalanish;
- O‘quvchilarning barcha javoblarini hurmat bilan qabul qilish;
- Tanqidiy fikrlashga undovchi savollardan foydalanish;
- O‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash uchun yetarli vaqt berish.

5E modelini qo‘llashda o‘qituvchining roli o‘quvchilarni faollashtiruvchi, ularga yo‘naltiruvchi savollar beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi shaxs bo‘lishdan iborat. O‘qituvchi tayyor bilimlarni etkazib beruvchi emas, balki o‘quvchilarning o‘zlari bilimlarni kashf etishiga yordam beruvchi bo‘lishi kerak [10].

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, 5E modeli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu model o‘quvchilarni faol bilim olishga undaydi, ularning qiziqishlarini oshiradi va mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. 5E modelining har bir

bosqichi – Qiziqtirish, O‘rganish, Tushuntirish, Kengaytirish va Baholash – tanqidiy fikrlashning ma’lum ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

5E modeli asosida darslarni tashkil etishda o‘qituvchi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, qiziqarli va hayotiy misollardan foydalanishi, o‘quvchilarning barcha fikrlarini hurmat bilan qabul qilishi va tanqidiy fikrlashga undovchi savollar berishi muhim.

Kelajakda boshlang‘ich ta’limda 5E modelini yanada samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, yangi o‘quv materiallarini ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish lozim. Bu o‘quvchilarning nafaqat tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, balki XXI asr uchun zarur bo‘lgan boshqa ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Xalikov, A. (2019). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.
2. Bybee, R.W. (2015). The BSCS 5E instructional model: Creating teachable moments. Arlington, VA: NSTA Press.
3. Yuldashev, J., & Usarov, J. (2020). Zamonaviy ta’limda konstruktivistik yondashuvning ahamiyati. "Xalq ta’limi" jurnali, 2, 24-29.
4. Bybee, R.W. (2014). The BSCS 5E instructional model: Personal reflections and contemporary implications. Science and Children, 51(8), 10-13.
5. Abdullayeva, Q. (2021). Boshlang‘ich sinflarda 5E modelidan foydalanish imkoniyatlari. "Pedagogik mahorat" jurnali, 3, 45-51.
6. Facione, P.A. (2015). Critical thinking: What it is and why it counts. Insight Assessment, 1-30.
7. Выготский, Л.С. (2005). Педагогическая психология. Москва: АСТ.
8. Karimov, N. (2022). Boshlang‘ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
9. Саидова, М. (2018). Использование интерактивных методов в начальной школе. Молодой учёный, 12, 173-175.
10. Johnson, D.W., & Johnson, R.T. (2017). Cooperative learning and critical thinking. Contemporary Educational Psychology, 12, 43-49.

II SHO‘BA. MAKTABGACHA TA’LIM: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA PEDAGOGIK AMALIYOT

OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: PEDAGOGIK AMALIYOT, TAHLIL VA NATIJADORLIK

Karimova Gulshod Shavkatovna
Buxoro viloyati PMM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Oila va pedagoglarning o‘zaro hamkorligi bolaning intellektual, ijtimoiy-hissiy, nutqiy va ijodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim pedagogik omil sifatida yoritiladi. Xususan, hamkorlikka asoslangan ta’lim, ota-onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish, raqamli kommunikatsiya, individual rivojlanish xaritalari va refleksiv monitoring imkoniyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, oila, pedagogik hamkorlik, innovatsion yondashuv, ota-onalar kompetensiyasi, refleksiya, pedagogik monitoring, individual rivojlanish, ta’lim sifati.*

Аннотация. *В данной статье анализируются современные педагогические подходы и практические механизмы развития сотрудничества между дошкольной образовательной организацией и семьёй. Взаимодействие родителей и педагогов рассматривается как важный педагогический фактор, оказывающий влияние на интеллектуальное, социально-эмоциональное, речевое и творческое развитие ребёнка. Особое внимание уделяется вопросам организации образовательного процесса на основе партнёрства, повышения педагогической компетентности родителей, использования цифровых средств коммуникации, разработки индивидуальных карт развития ребёнка, а также возможностям рефлексивного мониторинга.*

Abstract. *This article analyzes modern pedagogical approaches and practical mechanisms for developing cooperation between preschool educational institutions and families. Collaboration between parents and educators is considered an important pedagogical factor influencing children’s intellectual, socio-emotional, language, and creative development. Particular attention is paid to partnership-based education, the development of parents’ pedagogical competence, the use of digital communication tools, individual child development maps, and the opportunities provided by reflective monitoring.*

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda oila, pedagog va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi uzviy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha yosh davrida bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi, muloqot madaniyati, qadriyatlari, mustaqil fikrlashi va o‘rganishga bo‘lgan munosabati shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarning huquqiy

asoslari belgilangan. Mazkur huquqiy asoslar oila va ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi mas’uliyatli hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, oila va MTT hamkorligi ota-onalarni tadbirlarga taklif qilish yoki bolaning faoliyati haqida ma’lumot berish bilangina cheklanmasligi lozim. Zamonaviy yondashuvda ota-ona ta’lim-tarbiya jarayonining kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisi, pedagog esa faqat bilim beruvchi emas, balki hamkorlikni tashkil etuvchi fasilitator, maslahatchi va yo‘naltiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda hamkorlikning an’anaviy shakllarini saqlagan holda ularni faol, interaktiv va natijaga yo‘naltirilgan metodlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

Birinchi yondashuv — “Pedagogik sheriklik” modeli. Unda ota-onalar tarbiyachining tavsiyalarini shunchaki bajaruvchi emas, balki bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlashda teng huquqli suhbatdosh sifatida ishtirok etadilar. Pedagog ota-onalarning kuzatuvlarini tinglaydi, ularni kasbiy bilimlar bilan uyg‘unlashtiradi va umumiy rivojlantiruvchi maqsadlarni belgilaydi.

Ikkinchi yondashuv — “Uyda o‘rganish muhiti”ni rivojlantirish. Bunda ota-onalarga maxsus murakkab topshiriqlar emas, kundalik hayotga mos o‘yinlar tavsiya etiladi. Masalan, ovqat tayyorlash jarayonida mahsulotlarni sanash, ranglarini farqlash, buyumlarni taqqoslash orqali elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish mumkin. Ertak o‘qish, suhbatlashish va savollar berish esa bolaning nutqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Uchinchi yondashuv — raqamli pedagogik kommunikatsiya. MTT va oila o‘rtasida elektron axborot almashish, qisqa videomaslahatlar, onlayn so‘rovnomalar hamda raqamli rivojlanish portfellaridan foydalanish hamkorlikni tezkor va qulay tashkil etishga yordam beradi. Biroq bunda bolaning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ota-onalar roziligini olish va raqamli imkoniyati cheklangan oilalar uchun muqobil muloqot shakllarini yaratish zarur.

To‘rtinchi yondashuv — refleksiv hamkorlik. Bu jarayonda pedagog va ota-ona birgalikda bolaning rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlarni tahlil qiladi, qiyinchiliklarning sabablarini muhokama qiladi hamda keyingi faoliyatni rejalashtiradi.

Ushbu yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, ular oilani nazorat qilinadigan obyekt emas, balki pedagogik jarayonning faol subyekti sifatida e’tirof etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamkorlikni tizimli tashkil etish maqsadida “Oila – MTT – bola” modelidan foydalanish tavsiya etiladi. Modelning

asosiy g‘oyasi pedagog, ota-ona va bolaning faoliyatini yagona rivojlantiruvchi maqsad atrofida birlashtirishdan iborat.

Mazkur model beshta bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich — diagnostika. Pedagog ota-onalar bilan suhbat, anonim so‘rovnoma va pedagogik kuzatish orqali bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari hamda oilaning hamkorlikka oid imkoniyatlarini aniqlaydi.

Ikkinchi bosqich — birgalikda rejalashtirish. Pedagog va ota-ona bolaning rivojlanishiga xizmat qiladigan aniq, erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilaydi.

Uchinchi bosqich — amaliy faoliyat. Oilada va MTTda bir-birini to‘ldiruvchi o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, suhbatlar va kichik loyihalar tashkil etiladi.

To‘rtinchi bosqich — monitoring va refleksiya. Pedagog bolaning faoliyatidagi o‘zgarishlarni kuzatadi, ota-onalar bilan fikr almashadi, zarur hollarda pedagogik strategiyalarni o‘zgartiradi.

Beshinchi bosqich — natijalarni umumlashtirish. Erishilgan ijobiy o‘zgarishlar individual rivojlanish xaritasida aks ettiriladi va keyingi hamkorlik vazifalari belgilanadi.

Hamkorlik samaradorligini oshirish uchun quyidagi metodikalardan foydalanish mumkin.

“Bir hafta — bir kashfiyot” metodi. Har hafta pedagog ota-onalarga bolasi bilan bajarishi mumkin bo‘lgan bitta oddiy tadqiqot yoki kuzatish faoliyatini taklif qiladi. Masalan, “Suvning xususiyatlari”, “Urug‘dan niholgacha”, “Oilamizdagi geometrik shakllar”. Bola o‘z kuzatuvlarini MTTda tengdoshlari bilan o‘rtoqlashadi. Natijada oiladagi amaliy tajriba ta’lim tashkilotidagi o‘rganish jarayoni bilan bog‘lanadi.

“Ota-ona — pedagogik hamkor” metodi. Ota-onalar o‘z kasbi, qiziqishi yoki hayotiy tajribasi asosida bolalar uchun qisqa amaliy mashg‘ulot tashkil etishda pedagogga ko‘maklashadi. Masalan, bog‘bon ota-ona o‘simliklarni parvarishlashni, hunarmand esa oddiy ijodiy faoliyatni namoyish etishi mumkin. Bunda pedagog mashg‘ulotning yoshga mosligi va xavfsizligini ta’minlaydi.

“Rivojlanish kundaligi” metodi. Pedagog va ota-ona bolaning yutuqlari, qiziqishlari va yangi ko‘nikmalarini qisqa yozuvlar orqali qayd etadi. Ushbu ma’lumotlar bolaning rivojlanishini boshqa bolalar bilan taqqoslash uchun emas, balki uning shaxsiy o‘sishini kuzatish uchun xizmat qiladi.

“Pedagogik keys” metodi. Ota-onalar yig‘ilishida real hayotga yaqin tarbiyaviy vaziyat muhokama qilinadi. Masalan: “Bola o‘yinchoqlarini boshqalar bilan bo‘lishishni istamasa, kattalar qanday yo‘l tutishi kerak?” Ishtirokchilar kichik

guruhlarda muammoning sabablarini tahlil qiladi va bolaning yosh xususiyatlariga mos yechimlarni ishlab chiqadi.

Bu metodlar pedagogning tashkilotchilik, fasilitatorlik va tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlarning samaradorligini baholashda faqat tadbirlar soni yoki ota-onalarning ishtirok foiziga tayanish yetarli emas. Baholash bolaning rivojlanishi, hamkorlik sifati va pedagogik faoliyatdagi o‘zgarishlarni ham qamrab olishi zarur.

Monitoring jarayonida boshlang‘ich va yakuniy kuzatish natijalarini taqqoslash, ota-onalar fikrini o‘rganish, bolaning faoliyat namunalarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, bolaning rivojlanishidagi barcha o‘zgarishlarni faqat oila va MTT hamkorligi natijasi deb baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Bunga bolaning yosh xususiyatlari, individual rivojlanish sur’ati va boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli natijalar kompleks pedagogik tahlil asosida talqin qilinishi lozim.

Oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik shartlardan biridir. Ilmiy-nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, samarali hamkorlik o‘zaro ishonch, hurmat, muntazam muloqot, birgalikda qaror qabul qilish va rivojlanish natijalarini kuzatishga asoslanishi zarur.

Taklif etilgan “Oila – MTT – bola” modeli hamkorlikni diagnostika, rejalashtirish, amaliy faoliyat, monitoring va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Modelning amaliy ahamiyati ota-onalarni pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantirish va bolaning oiladagi hamda MTTdagi rivojlantiruvchi tajribalarini uyg‘unlashtirish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan esa oila bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirish, kommunikativ madaniyatni oshirish, refleksiv tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish va innovatsion metodlardan maqsadli foydalanish ustuvor vazifalardir.

Asosiy ilmiy-metodik xulosa shundan iboratki, maktabgacha ta’limda sifatli natijaga erishish uchun oila bilan hamkorlik alohida tadbir sifatida emas, balki yaxlit pedagogik jarayonning uzviy tarkibiy qismi sifatida tashkil etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 2020-yil 22-dekabr, 802-son.
3. Takomillashtirilgan “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta’lim olishiga qo‘yiladigan talablar”ning O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limning “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining uchinchi nashri Toshkent sh., 2026-yil 17-iyul.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLA SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM: INDIVIDUAL RIVOJLANISH, IJODKORLIK VA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

G.O.Ochilova
Buxoro viloyati pedagogik mahorat, Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik tamoyillari va amaliy mexanizmlari yoritilgan. Bola shaxsini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish, uning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olishning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ta’limiy faoliyatni samarali tashkil etishda o‘yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar, loyiha metodi, kichik guruhlarda ishlash, kuzatish va refleksiya kabi zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada tarbiyachining fasilitatorlik roli, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti hamda oila bilan hamkorlikning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim, individual yondashuv, maktabgacha ta’lim, rivojlantiruvchi muhit, pedagogik metodlar, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, refleksiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы, педагогические принципы и практические механизмы личностно-ориентированного образования в дошкольной образовательной организации. Анализируется педагогическое значение учета индивидуальных особенностей, интересов, потребностей, способностей и темпов развития ребенка. Раскрываются возможности применения современных педагогических методов, включая игровые технологии, проблемные ситуации, метод проектов, работу в малых группах, наблюдение и рефлексию. Особое внимание уделяется роли воспитателя как фасилитатора, созданию развивающей образовательной среды и сотрудничеству с семьей в процессе всестороннего развития личности ребенка.*

Ключевые слова: *личностно-ориентированное образование, индивидуальный подход, дошкольное образование, развивающая среда, педагогические методы, самостоятельное мышление, творчество, рефлексия.*

Abstract: *This article examines the theoretical and methodological foundations, pedagogical principles, and practical mechanisms of child-centered education in early childhood education settings. It analyzes the importance of considering each child’s individual characteristics, interests, needs, abilities, and pace of development. The article explores the application of contemporary pedagogical methods, including play-based learning, problem-solving activities, project-based learning, small-group collaboration, observation, and reflection. Particular attention is given to the educator’s role as a facilitator, the creation of a developmentally supportive learning environment, and cooperation with families in promoting children’s holistic development.*

Keywords: *child-centered education, individual approach, early childhood education, developmental environment, pedagogical methods, independent thinking, creativity, reflection.*

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, uning intellektual, ijtimoiy-hissiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Zamonaviy ta’lim paradigmasida bola shunchaki bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki o‘z faoliyatini tashkil etuvchi, atrof-muhitni faol o‘rganuvchi, mustaqil fikrlovchi va qaror qabul qilishga intiluvchi shaxs sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotida bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish pedagogik jarayonning mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini takomillashtirishni talab etadi. Bunda har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, uning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, erkin tanlov imkoniyatini yaratish va faol ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy maqsadi barcha bolalarga bir xil natijani bir xil usulda egallatish emas, balki har bir bolaning o‘z imkoniyatlari doirasida rivojlanishi uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratishdir. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida bolaning fikri, hissiyoti, tashabbusi va mustaqil faoliyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy-pedagogik asoslari: Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim — bu ta’lim-tarbiya jarayonini bolaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va rivojlanish imkoniyatlariga muvofiq tashkil etishga asoslangan pedagogik yondashuvdir.

Ushbu yondashuvda bola ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi hisoblanadi. Tarbiyachi esa tayyor bilimlarni beruvchi shaxs bo‘lish bilan cheklanmay, bolaning izlanishi, tajriba o‘tkazishi, savol berishi, fikr yuritishi va o‘z xulosalarini shakllantirishiga ko‘maklashuvchi pedagogik hamkor vazifasini bajaradi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Individual yondashuv tamoyili. Har bir bolaning rivojlanish sur’ati, qiziqishlari, muloqot uslubi va o‘rganish ehtiyojlari o‘ziga xos ekanligi e’tirof etiladi. Shu sababli topshiriqlarni bajarishda turli murakkablik darajalari va muqobil faoliyat turlarini taklif etish maqsadga muvofiqdir.

Subyekt-subyekt munosabatlari tamoyili. Tarbiyachi va bola o‘rtasidagi munosabat o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslanadi. Bolaning fikri tinglanadi, uning savollari qadrlanadi va tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadi.

Faollik va mustaqillik tamoyili. Bola ta’limiy faoliyat davomida mustaqil tanlov qilish, tajriba o‘tkazish, muammolarni hal etish va o‘z faoliyati natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Rivojlantiruvchi muhit tamoyili. Guruh xonasi bolalarning mustaqil harakatlanishi, materiallarni tanlashi, o‘yin va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun qulay tashkil etiladi.

Emotsional xavfsizlik tamoyili. Bolaning xato qilishdan qo‘rqmasligi, o‘z fikrini erkin ifodalashi va tengdoshlari bilan ijobiy munosabat o‘rnatishi uchun psixologik jihatdan xavfsiz muhit yaratiladi. Mazkur tamoyillarni izchil qo‘llash bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, tashabbuskorligini oshirish va ta’limiy faoliyatga ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari: Maktabgacha ta’lim tashkilotida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim samaradorligi, avvalo, pedagogik jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq.

Birinchidan, tarbiyachi bolalarning individual xususiyatlarini tizimli kuzatib borishi lozim. Kuzatish natijalari bolaning nimalarga qiziqishi, qaysi faoliyat turlarida faol ishtirok etishi, qanday vaziyatlarda yordamga ehtiyoj sezishi va qaysi ko‘nikmalari rivojlanayotganini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, ta’limiy faoliyatda erkin tanlov imkoniyatlari yaratilishi zarur. Masalan, “San’at” rivojlanish markazida bolalarga bir mavzu doirasida rasm chizish, applikatsiya yaratish, loy yoki plastilindan shakl yasash imkoniyatlarini taklif etish mumkin. Bunda bolalar o‘z qiziqishi va imkoniyatlariga mos faoliyat turini mustaqil tanlaydilar.

Uchinchidan, rivojlantiruvchi muhit bolalarning yoshiga, ehtiyojlariga va xavfsizlik talablariga mos bo‘lishi kerak. Materiallarning qulay joylashtirilishi, ko‘rgazmali vositalarning mavjudligi va faoliyat zonalarining to‘g‘ri tashkil etilishi bolalarning mustaqilligini oshiradi.

To‘rtinchidan, ta’limiy faoliyatda rag‘batlantirishning qo‘llab-quvvatlovchi shakllaridan foydalanish muhimdir. Bolaning natijasinigina emas, balki uning harakati, izlanishi, urinishlari va ijodiy yondashuvini ham e’tirof etish lozim. Bu yondashuv bolada o‘rganishga nisbatan ichki motivatsiyani shakllantiradi.

Beshinchidan, oila bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatlar, tavsiyalar, ijodiy ko‘rgazmalar va birgalikdagi loyihalar orqali bolaning uy va ta’lim tashkilotidagi rivojlanishini o‘zaro uyg‘unlashtirish mumkin.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda samarali pedagogik metodlar: Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni samarali tashkil etish uchun bolaning yosh xususiyatlariga mos, faol ishtirokini ta’minlaydigan va uning mustaqil faoliyatini rag‘batlantiradigan metodlardan foydalanish zarur.

O‘yin orqali ta’lim metodi-O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bo‘lib, u orqali bola atrof-muhitni o‘rganadi, ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi va turli vaziyatlarda mustaqil harakat qilishni mashq

qiladi. Masalan, “Sehrli ranglar” o‘yinida bolalarga ikki yoki undan ortiq rangni aralashtirib, yangi rang hosil qilish topshirig‘i beriladi. Tarbiyachi natijani oldindan aytib bermaydi, balki bolalarni taxmin qilish, tajriba o‘tkazish va natijani izohlashga undaydi.Bu metod kuzatuvchanlik, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash, ijodkorlik va nutqiy faollikni rivojlantirishga yordam beradi.

Muammoli vaziyat yaratish metodi-Mazkur metod bolalarda savol qo‘yish, muammoni anglash, turli yechimlarni izlash va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.Bunda tarbiyachi bolalarga quyidagi savolni beradi: “Agar bizda yashil rangli bo‘yoq bo‘lmasa, daraxt barglarini qanday rangda tasvirlashimiz mumkin?” Bolalar turli taxminlarni ilgari suradilar, mavjud ranglardan foydalanib tajriba o‘tkazadilar va o‘z yechimlarini taklif etadilar. Bunda yagona javobni talab qilishdan ko‘ra, bolaning fikrlash jarayoni va izlanishiga e’tibor qaratiladi.

Loyiha metodi – loyiha metodi bolalarning muayyan mavzu yuzasidan birgalikda izlanishi, reja tuzishi, amaliy faoliyatni bajarishi va natijani taqdim etishini nazarda tutadi. Masalan, “Bizning orzular bog‘imiz” loyihasi doirasida bolalar bog‘ maketini yaratadilar. Ular o‘simliklar, daraxtlar, yo‘laklar va dam olish joylarini qanday joylashtirishni muhokama qiladilar. Maket tayyorlashda qog‘oz, rangli karton, tabiiy materiallar, plastilin va boshqa xavfsiz vositalardan foydalanadilar. Loyiha davomida bolalarda hamkorlik, vazifalarni taqsimlash, fikr almashish, ijodiy rejalashtirish va bajarilgan ish natijasini taqdim etish ko‘nikmalari shakllanadi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodi-Ushbu metod bolalarning birgalikda maqsadga erishishi, o‘zaro fikr almashishi va tengdoshlarini tinglashiga yordam beradi. Masalan, bolalar kichik guruhlarga bo‘linib, “Fasllar” mavzusida umumiy kollaj tayyorlaydilar. Har bir bola o‘ziga ma’qul vazifani — rasm chizish, shakllarni kesish, yopishtirish yoki kompozitsiyani joylashtirishni tanlashi mumkin. Tarbiyachi bolalar o‘rtasida vazifalarning adolatli taqsimlanishini kuzatadi va zarur hollarda yo‘naltiruvchi savollar bilan yordam beradi. Natijada bolalarda ijtimoiy muloqot, mas’uliyat va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Tanlov asosida faoliyatni tashkil etish metodi-Mazkur metod bola mustaqilligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyachi bolalarga bir nechta faoliyat turini taklif etadi va ularning qiziqishlariga mos tanlov qilishiga imkon beradi.

Masalan, “San’at” rivojlanish markazida bola quyidagi faoliyatlardan birini tanlashi mumkin: Erkin mavzuda rasm chizish, rangli qog‘ozlardan applikatsiya yaratish, tuzli xamirdan turli shakllar yasash, plastilindan hayvonlar yoki o‘simliklar modelini tayyorlash.Faoliyat yakunida bolalar o‘z ishlarini namoyish etib, qanday materiallardan foydalanganlari va qanday g‘oyani ifodalaganliklarini tushuntiradilar

bu metod bolaning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy tashabbusini rivojlantirish imkonini beradi.

Kuzatish va pedagogik diagnostika metodi-Kuzatish bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning muhim tarkibiy qismidir. Tarbiyachi bolaning o‘yin, muloqot, ijodiy faoliyat va kundalik vaziyatlardagi xatti-harakatlarini kuzatib, uning rivojlanish dinamikasini tahlil qiladi.

Kuzatish davomida quyidagi jihatlarga e’tibor berish mumkin: Faoliyatni mustaqil boshlashi va davom ettirishi, o‘z qiziqishi va tanlovini ifodalashi, savollar berishi va muammolarga yechim izlashi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi, o‘z fikri va hissiyotlarini ifodalashi. Kuzatish natijalari bolalarni bir-biri bilan taqqoslash yoki ularga yorliq qo‘yish uchun emas, balki har bir bolaning keyingi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik qarorlar qabul qilish uchun ishlatilishi lozim.

Refleksiya metodi-Refleksiya bolaning o‘z faoliyati va o‘rgangan tajribasi haqida fikr yuritishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiyani sodda savollar, rasmlar, belgilar va rangli kartochkalar yordamida tashkil etish mumkin. Masalan, mashg‘ulot yakunida tarbiyachi quyidagi savollarni beradi: Bugun nimalarni o‘rganding? qaysi faoliyat senga ko‘proq yoqdi? qaysi vazifani bajarishda qiynalding? keyingi safar yana nimalarni sinab ko‘rishni istaysan? Bolalar o‘z javoblarini og‘zaki ifodalashlari yoki rangli belgilar orqali ko‘rsatishlari mumkin. Bu metod bolada o‘z faoliyatini anglash, his-tuyg‘ularini ifodalash va o‘z ta’limiy tajribasiga munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tarbiyachining bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limdagi roli: Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida tarbiyachining kasbiy roli ham o‘zgaradi. U faqat mashg‘ulotni boshqaruvchi emas, balki bolaning individual rivojlanishini kuzatuvchi, faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi, mustaqil izlanishiga imkon beruvchi va rivojlantiruvchi muhitni tashkil etuvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi bolaning savollariga tayyor javob berishga shoshilmasdan, uni mustaqil fikrlashga undovchi savollardan foydalanishi lozim. Masalan, “Bu shaklni yana qanday usulda yasash mumkin?”, “Seningcha, nima uchun rang o‘zgardi?”, “Bu muammoni birgalikda qanday hal qilamiz?” kabi savollar bolani izlanishga undaydi. Shuningdek, tarbiyachi har bir bolaning muvaffaqiyatini uning individual rivojlanish dinamikasi asosida baholashi zarur. Bir bolaning tezkor natijasi boshqasining natijasi bilan taqqoslanmasligi kerak. Muhimi, bolaning avvalgi imkoniyatlariga nisbatan qanday o‘sish kuzatilayotganidir. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi bolalarning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, teng imkoniyatlar yaratish, inklyuziv yondashuvga rioya qilish, ijobiy muloqotni shakllantirish va pedagogik kuzatish natijalaridan foydalanish orqali namoyon bo‘ladi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim samaradorligini baholash: Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim samaradorligini aniqlashda faqat yakuniy mahsulot yoki topshiriqning to‘g‘ri bajarilishiga asoslanish yetarli emas. Bolaning faoliyat jarayonidagi ishtiroki, mustaqilligi, qiziqishi, muloqoti va ijodiy izlanishlari ham hisobga olinishi lozim.

Buning uchun quyidagi baholash usullaridan foydalanish mumkin:

Pedagogik kuzatish. Bolaning turli vaziyatlardagi faoliyati, mustaqilligi va muloqoti muntazam qayd etiladi.

Ishlar portfeli. Bolaning rasmlari, applikatsiyalari, loy va plastilindan tayyorlagan ishlari hamda boshqa ijodiy natijalari to‘planib, vaqt davomida yuz berayotgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Suhbat va refleksiya. Bolaning o‘z faoliyati haqidagi fikrlari, qiziqishlari va keyingi faoliyatga oid istaklari aniqlanadi.

Rivojlanish dinamikasini tahlil qilish. Bolaning individual imkoniyatlari va oldingi natijalari asosida o‘sish jarayoni kuzatiladi.

Baholash natijalari keyingi mashg‘ulotlarni rejalashtirish, faoliyat turlarini moslashtirish va zarur pedagogik yordamni belgilashda qo‘llaniladi. Bunda baholash bolani jazolash yoki boshqalar bilan taqqoslash vositasi emas, balki uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmi sifatida qaralishi kerak.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni samarali tashkil etish har bir bolaning individual imkoniyatlarini aniqlash, uning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan o‘yin orqali ta’lim, muammoli vaziyat yaratish, loyiha metodi, kichik guruhlarda ishlash, tanlov asosida faoliyatni tashkil etish, pedagogik kuzatish va refleksiya kabi metodlar ta’lim jarayonini bolaning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuvda tarbiyachining vazifasi bolaga tayyor yechimlarni berish bilangina cheklanmaydi. U bolani izlanishga, savol berishga, tajriba o‘tkazishga, o‘z fikrini bildirishga va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishga yo‘naltiradi. Natijada bola o‘z imkoniyatlarini namoyon etish, mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish uchun kengroq imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shunday qilib, bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik yo‘nalishi bo‘lib, uning samaradorligi individual yondashuv, rivojlantiruvchi muhit, pedagogik hamkorlik va muntazam kuzatishga asoslangan holda ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Harvard University Press, 1978.
2. Piaget, J. *The Psychology of the Child.* Basic Books, 1969.
3. Dewey, J. *Experience and Education.* Macmillan, 1938.
4. Montessori, M. *The Absorbent Mind.* The Theosophical Publishing House, 1949.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-595, 2019-yil 16-dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasiga oid amaldagi davlat talablari va o‘quv-metodik hujjatlari.

TEACHING LANGUAGES TO CHILDREN THROUGH PLAY-BASED LEARNING: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL APPLICATIONS

Ismatov Mahmudjon Sobir o‘g‘li
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Abstract. *This article explores the theoretical foundations and practical applications of play-based learning in young language learners. Play serves as a natural medium through which children acquire cognitive, social, and linguistic skills without the anxiety typically associated with formal instruction. By integrating game-based activities, role-play, storytelling, and interactive tasks into the early language curriculum, educators can foster intrinsic motivation, lower affective filters, and enhance communicative competence. The paper reviews key developmental theories by Vygotsky and Piaget, examines socio-cultural perspectives on language acquisition, and outlines actionable pedagogical strategies for modern classrooms. Furthermore, challenges such as curriculum constraints and assessment difficulties are discussed, offering comprehensive solutions for effective implementation.*

Keywords: *Play-based learning, language acquisition, young learners, communicative competence, affective filter, Vygotsky, socio-cultural theory, interactive tasks, motivation, pedagogy.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh bolalarga chet tilini o‘qitishda o‘yin texnologiyalarining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. O‘yin bolalar uchun tabiiy muhit bo‘lib, ular orqali kognitiv, ijtimoiy va lingvistik ko‘nikmalar ortiqcha stress va xavotirsiz o‘zlashtiriladi. Dars jarayoniga o‘yin elementlari, rol o‘yinlari, hikoyalar va interaktiv topshiriqlarni kiritish o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi, emotsional to‘siqlarni (affective filter) kamaytiradi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Maqolada Vigotskiy va Paje nazariyalari tahlil qilinib, zamonaviy ta’lim jarayoni uchun amaliy tavsiyalar beriladi. Shuningdek, o‘yin metodikasini qo‘llashdagi ba’zi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘yinga asoslangan ta’lim, til o‘zlashtirish, kichik yoshdagi o‘quvchilar, kommunikativ kompetensiya, affektiv filtr, Vigotskiy, sotsial-madaniy nazariya, interaktiv topshiriqlar, motivatsiya, pedagogika.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы и практическое применение игрового обучения в процессе преподавания языков детям младшего возраста. Игра служит естественной средой, через которую дети приобретают когнитивные, социальные и лингвистические навыки без тревожности, характерной для традиционного обучения. Интеграция игровых занятий, ролевых игр, сторителлинга и интерактивных заданий в учебную программу способствует внутренней мотивации, снижению аффективного фильтра и развитию коммуникативной компетенции. В работе анализируются ключевые теории Выготского и Пиаже, а также предлагаются действенные педагогические стратегии. Кроме того, обсуждаются такие*

проблемы, как ограничения учебных программ и трудности оценивания, с предложением путей их решения.

Ключевые слова: *Игровое обучение, усвоение языка, учащиеся младшего возраста, коммуникативная компетенция, аффективный фильтр, Выготский, социокультурная теория, интерактивные задания, мотивация, педагогика.*

Introduction. The acquisition of a foreign or second language during early childhood is a critical period characterized by high cognitive flexibility and an innate capacity for phonetic and structural assimilation. However, traditional teacher-centered pedagogical approaches often rely on rote memorization and grammar-translation methods, which frequently cause anxiety, disengagement, and limited communicative output among young learners. In contrast, play-based learning leverages children's natural inclination toward exploration, imagination, and social interaction.

Play is not merely a diversion from learning; rather, it is the primary vehicle through which young children make sense of the world. When integrated into language classrooms, play transforms abstract linguistic structures into meaningful, context-embedded experiences. This article examines the psychological and pedagogical dimensions of integrating play into language education, providing theoretical backing and practical frameworks for educators.

Theoretical Framework

Understanding the efficacy of play in language learning requires examining foundational developmental and second language acquisition (SLA) theories:

Lev Vygotsky and the Zone of Proximal Development (ZPD): Vygotsky emphasized that play creates a zone of proximal development in children. During imaginative and cooperative games, a child acts above their everyday age behavior, supported by peers and teachers. In language learning, play provides scaffolding where learners experiment with new vocabulary and sentence patterns within a safe social construct.

Jean Piaget and Constructivism: Piaget viewed children as active constructors of knowledge. Through play, children manipulate their environment, test hypotheses about how language functions, and assimilate new linguistic rules into their existing cognitive frameworks.

Stephen Krashen's Affective Filter Hypothesis: Krashen argued that successful language acquisition requires low anxiety, high self-confidence, and strong motivation. Play inherently reduces the "affective filter" by shifting focus from linguistic correctness to task completion and enjoyment, allowing subconscious language acquisition to flourish.

Practical Strategies and Classroom Implementation

To translate theory into practice, educators can implement several structured play-based methodologies:

Role-Play and Dramatic Play

Role-playing simulates real-world communicative scenarios (e.g., shopping at a market, visiting a doctor, ordering food at a restaurant). Children adopt characters, which diminishes personal performance anxiety and encourages natural turn-taking, formulaic expressions, and pragmatic competence.

Gamified Language Tasks (Digital and Analog)

Gamification introduces game elements—such as points, badges, timers, and cooperative competition—into vocabulary and grammar drills. Board games, flashcard matching races, and interactive digital applications (e.g., Kahoot, Wordwall) maintain high engagement levels and reinforce repetitive exposure without causing fatigue.

Total Physical Response (TPR) and Movement Games

Young learners process language effectively through physical action. Games like "Simon Says," musical chairs, and action storytelling link kinetic movement directly to linguistic commands, accelerating comprehension and long-term memory retention.

Pedagogical Implications and Teacher Roles

Implementing play-based learning requires a deliberate shift in the educator's role:

The Teacher as a Facilitator: Instead of dictating rules, the teacher sets up immersive environments, monitors group interactions, and provides subtle linguistic scaffolding when necessary.

Balanced Assessment: Assessing play-based learning moves away from traditional pencil-and-paper tests toward formative assessment techniques, including observational checklists, portfolio reviews, and task-based rubrics that measure active participation and pragmatic usage.

Balancing Structure and Freedom: Unstructured play can sometimes lead to off-task behavior or reverting to the native language. Effective play-based language lessons maintain clear communicative goals, time limits, and purposeful linguistic objectives.

Conclusion. Integrating play into language instruction for young learners bridges the gap between natural acquisition and structured pedagogy. By respecting children's cognitive developmental stages and leveraging theories from Vygotsky, Piaget, and modern SLA research, educators can create dynamic, low-anxiety environments. Play-based learning not only accelerates vocabulary acquisition and

grammatical accuracy but also fosters lifelong positive attitudes toward foreign language learning.

REFERENCES

1. Cameron, L. (2001). *Teaching languages to young learners*. Cambridge University Press.
2. Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon Press.
3. Piaget, J. (1962). *Play, dreams and imitation in childhood*. Routledge.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
5. Wood, D., Bruner, J. S., & Ross, G. (1976). The role of tutoring in problem solving. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 17(2), 89-100.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING IJTIMOIY-HISSIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNI KUZATUV, MONITORING VA BAHOLASH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Masharipova Donoxon Jumanazarovna
Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishni kuzatuv, monitoring va baholash asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tarbiyachilarning o'z hissiyotlarini boshqarishi, empatiya ko'rsatishi, samarali muloqot o'rnatishi hamda murakkab pedagogik vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilishi kasbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, ijtimoiy-hissiy kompetensiya, malaka oshirish, pedagogik kuzatuv, monitoring, baholash, empatiya, refleksiya, kasbiy rivojlanish.*

Abstract: *This article explores the enhancement of social-emotional competencies among preschool educators during their professional development, based on observation, monitoring, and assessment. The ability of educators to manage their own emotions, demonstrate empathy, engage in effective communication, and make sound decisions in complex pedagogical situations is analyzed as a vital component of their professional practice.*

Keywords: *preschool education, educator, social-emotional competence, professional development, pedagogical observation, monitoring, assessment, empathy, reflection, professional growth.*

Аннотация: *В статье рассматривается процесс развития социально-эмоциональных компетенций у педагогов дошкольных образовательных организаций в ходе их профессионального совершенствования, опирающийся на методы наблюдения, мониторинга и оценивания. Способность педагогов управлять собственными эмоциями, проявлять эмпатию, выстраивать эффективную коммуникацию и принимать взвешенные решения в сложных педагогических ситуациях анализируется как важнейший компонент их профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, педагог, социально-эмоциональная компетентность, профессиональное развитие, педагогическое наблюдение, мониторинг, оценивание, эмпатия, рефлексия, профессиональный рост.*

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish pedagoglarning nafaqat metodik va nazariy bilimlarini, balki ularning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini ham izchil rivojlantirishni talab etmoqda. Chunki tarbiyachining bolalar, hamkasblar va ota-onalar bilan munosabati ta’lim-tarbiya jarayonidagi psixologik muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachining o‘z hissiyotlarini anglay olishi, bolalarning kechinmalarini tushunishi, nizoli vaziyatlarda vazminlikni saqlashi va konstruktiv muloqot olib borishi uning kasbiy mahoratining muhim ko‘rsatkichlaridir.

Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish malaka oshirish jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq ushbu jarayonda faqat nazariy ma’lumot berish yoki treninglar tashkil etishning o‘zi yetarli emas. Muhim masala — malaka oshirishdan oldin tarbiyachining mavjud kompetensiyalarini aniqlash, mashg‘ulotlar davomida o‘zgarishlarni kuzatish va yakunda erishilgan natijalarni aniq mezonlar asosida baholashdir.

Demak, ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini kuzatuv, monitoring va baholash bilan uzviy bog‘lash pedagogning kasbiy o‘sishini aniqlash, individual ehtiyojlarini belgilash hamda keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini rejalashtirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining faoliyati ko‘plab hissiy va kommunikativ vaziyatlar bilan bog‘liq. Masalan, bolaning mashg‘ulotda qatnashishni istamasligi, tengdoshi bilan kelishmovchilikka duch kelishi, topshiriqni bajara olmagani sababli xafa bo‘lishi yoki ota-onaning e’tiroz bildirishi tarbiyachidan nafaqat pedagogik bilim, balki hissiy barqarorlik, empatiya va samarali muloqot ko‘nikmalarini ham talab qiladi.

Bunday vaziyatlarda tarbiyachining munosabatini faqat nazariy bilimlar yoki yakuniy natijalar asosida baholash uning haqiqiy kasbiy imkoniyatlarini to‘liq ochib bermaydi. Shu sababli real pedagogik vaziyatlarni kuzatish, xatti-harakatlarni mezonlar asosida tahlil qilish va pedagogning o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashishini qo‘llab-quvvatlash zarur.

2024-yilda e’lon qilingan, 51 ta tadqiqot va 19 738 ishtirokchi ma’lumotlarini umumlashtirgan meta-tahlilda maktabgacha ta’lim pedagoglarining ijtimoiy-hissiy kompetensiyalari ularning farovonligi, pedagogik munosabatlari, guruhni boshqarishi va ijtimoiy-hissiy ta’limni amalga oshirishi bilan ijobiy bog‘liqligi aniqlangan.Bu natijalar mazkur kompetensiyalarni kasbiy rivojlanish jarayonida alohida e’tiborga olish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim pedagoglari uchun ishlab chiqilgan kasbiy rivojlanish dasturiga bag‘ishlangan tadqiqotda hissiy farovonlik, stressni boshqarish va pedagogik amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Ishtirokchilar hissiyotlarni

boshqarish strategiyalaridan foydalanish va murakkab xulq-atvorli vaziyatlarga munosabat bildirish borasida ijobiy o‘zgarishlarni qayd etganlar.

Mazkur ilmiy dalillar tarbiyachilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, bu jarayondagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish muhimligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-hissiy kompetensiya — shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish, ijtimoiy munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yish hamda turli vaziyatlarda mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatidir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi faoliyatida ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarda namoyon bo‘ladi.

1. O‘zini anglash. Tarbiyachining o‘z hissiy holatini, kuchli va rivojlantirilishi zarur tomonlarini anglay olishi bilan belgilanadi. Masalan, pedagog mashg‘ulot davomida charchoq yoki asabiylikni sezib, bu holatning bolalar bilan muloqotiga ta’sirini tahlil qiladi.

2. Hissiyotlarni boshqarish. Murakkab vaziyatlarda vazminlikni saqlash, hissiy reaksiyalarni nazorat qilish va pedagogik jihatdan maqbul munosabat bildirish qobiliyatidir. Masalan, bola topshiriqni bajarmaganida uni koyish o‘rniga, qiyinchilik sababini aniqlash va yordam taklif qilish.

3. Empatiya va ijtimoiy sezgirlik. Bolaning hissiy holatini tushunish, uning nuqtayi nazarini hisobga olish va individual ehtiyojlariga mos munosabat bildirishdir.

4. Kommunikativ kompetensiya. Bolalar, hamkasblar va ota-onalar bilan hurmatga asoslangan, aniq va samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatidir.

5. Munosabatlarni boshqarish va nizolarni hal qilish. Kelishmovchiliklarda tomonlarni tinglash, muammoni aniqlash va o‘zaro maqbul yechim topishga ko‘maklashishni anglatadi.

6. Refleksiv kompetensiya. O‘z xatti-harakatlari va qabul qilgan qarorlarini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish hamda kelgusi faoliyatni takomillashtirish qobiliyatidir.

Ushbu tarkibiy qismlarni alohida mezonlar asosida baholash tarbiyachining qaysi yo‘nalishda kuchli ekanini va qaysi ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurligini aniqlashga yordam beradi.

Bu jarayonlar yagona tizimda qo‘llanganda, malaka oshirishning samaradorligini aniqlash uchun ko‘proq imkoniyat yaratiladi.

Masalan, tarbiyachi o‘zini bolalar bilan muloqotda sabrli deb baholashi mumkin. Biroq amaliy kuzatuv vaqtida bola topshiriqni takroran bajara olmaganida

pedagogning ovoz ohangi keskinlashishi aniqlansa, o‘z-o‘zini baholash va tashqi kuzatuv natijalari o‘rtasidagi farq yuzaga chiqadi.

Kuzatuv, monitoring va baholashning o‘zaro farqi

Mazkur tushunchalar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning vazifalari farqlanadi.

Jarayon	Asosiy vazifasi	Amaliy misol
Kuzatuv	*Pedagogning real faoliyatidagi xatti-harakatlarni qayd etish*	*Tarbiyachining bola bilan nizoli vaziyatdagi muloqotini kuzatish*
Monitoring	*Muayyan vaqt davomida o‘zgarishlar dinamikasini kuzatib borish*	*Malaka oshirish boshida, o‘rtasida va yakunida natijalarni taqqoslash*
Baholash	*Yig‘ilgan dalillarni oldindan belgilangan mezonlar asosida tahlil qilish*	*Empatiya va hissiyotlarni boshqarish ko‘rsatkichlariga ball berish*
Refleksiya	*Pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va xulosa chiqarishi*	*“Men vaziyatda qanday yo‘l tutdim va keyingi safar nimani o‘zgartiraman?” savoliga javob berish*

1-jadval. ***Kuzatuv, monitoring va baholashning o‘zaro farqi***

Aynan shu farq pedagog bilan individual ishlash, vaziyatni qayta tahlil qilish va zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun asos bo‘la oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tarbiyachining hissiyotlarini boshqarishi, empatiya ko‘rsatishi, samarali muloqot o‘rnatishi va nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilishi bolalar bilan munosabatlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada tahlil qilingan ilmiy manbalar pedagoglarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalari ularning farovonligi, pedagogik munosabatlari va guruhni boshqarish faoliyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida erishilgan natijalarni muntazam kuzatish va baholash zarur.

Maqola doirasida taklif etilgan amaliy yondashuvning asosiy jihati shundaki, kuzatuv, monitoring, baholash va refleksiya yagona rivojlantiruvchi tizim sifatida qaraladi. Dastlabki diagnostika tarbiyachining ehtiyojlarini aniqlashga, oraliq monitoring o‘zgarishlarni kuzatishga, yakuniy baholash esa rivojlanish dinamikasini tahlil qilishga xizmat qiladi. O‘z-o‘zini baholash va tashqi kuzatuv natijalarini birgalikda ko‘rib chiqish pedagogning o‘z faoliyatini chuqurroq anglashiga imkon beradi.

Malaka oshirish jarayonida tarbiyachilarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishni baholash faqat ball yoki yakuniy xulosa chiqarish bilan cheklanmasligi lozim. Har bir baholash natijasi aniq rivojlanish vazifasi, amaliy mashg‘ulot va qayta kuzatuv bilan davom ettirilishi kerak. Ana shunda monitoring pedagog faoliyatini nazorat qilish vositasidan uning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
3. Nishonova Z.T., Alimova G.O. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
4. Hasanboyeva O., Tadjibayeva H. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2011.
5. Jennings, P. A., & Greenberg, M. T. (2009). The Prosocial Classroom: Teacher Social and Emotional Competence in Relation to Student and Classroom Outcomes. Review of Educational Research, 79(1), 491–525.
6. OECD. (2019). TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing.

TA’LIM JARAYONINI JONLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Turg‘unova Sayyoraxon Muzaffarovna
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim jarayonini jonlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘qitish samaradorligini kuchaytirish hamda zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim platformalari va multimediyali vositalardan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish va o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль и значение инновационных технологий в активизации учебного процесса. Инновационные технологии способствуют повышению активности учащихся, формированию навыков самостоятельного мышления, повышению эффективности обучения и созданию современной образовательной среды. В исследовании показаны преимущества использования интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, цифровых образовательных платформ и мультимедийных средств. Также проанализирована эффективность инновационных подходов в повышении педагогического мастерства учителей и развитии творческого мышления учащихся.*

Ключевые слова: *Инновационные технологии, учебный процесс, интерактивные методы, цифровое обучение, творческое мышление, педагогический подход.*

Annotation. *This article analyzes the role and importance of innovative technologies in enhancing the educational process. Innovative teaching tools contribute to increasing student engagement, developing independent thinking skills, improving learning efficiency, and creating a modern educational environment. The study highlights the advantages of using interactive methods, information and communication technologies, digital learning platforms, and multimedia tools. It also explores the effectiveness of innovative approaches in enhancing teachers' pedagogical competence and developing students' creative thinking abilities.*

Key words. *Innovative technologies, educational process, interactive methods, digital learning, creative thinking, pedagogical approach.*

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimining yangilanishi va zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga joriy etilishi bilan o‘quvchilarning bilim olish faoliyati faollashib, ularning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va tahlil qilish qobiliyatlari sezilarli darajada o‘smoqda. Bunday texnologiyalar o‘quv jarayonini jonlantirish, uni interfaol, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar deganda faqat zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish emas, balki o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan, motivatsiyani oshiruvchi va ijodkorlikni rivojlantiruvchi yangi pedagogik yondashuvlar tushuniladi. Shuningdek, bu jarayon o‘qituvchidan yuqori kasbiy mahorat, metodik tayyorgarlik va zamonaviy ta'lim vositalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini talab etadi. Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi, o‘rganilgan mavzularni amaliyotda qo‘llay olish salohiyatini oshirish hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. nnovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirishda asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi. So‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borib, zamonaviy ta'limda texnologik yondashuvlarning o‘rni va afzalliklarini tahlil qilganlar. Masalan, N. K. Karimova (2021) o‘z tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi [1]. Shuningdek, A. Jalilov (2020) tomonidan olib borilgan ishda raqamli ta'lim vositalari o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi qayd etilgan [2]. Chet el tadqiqotchilari, xususan, J. Dewey va H. Gardnerlarning konstruktivistik yondashuv nazariyalari ham innovatsion texnologiyalar orqali o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida ta'lim jarayoniga jalb etish zarurligini asoslab beradi [3]. Ularning fikricha, ta'limda o‘quvchining shaxsiy tajribasi, qiziqishi va faol ishtiroki o‘quv natijalarining sifatini belgilovchi omillardandir. Shuningdek, mahalliy olimlardan M. T. Rahimov (2022)

interfaol o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganib, “aqliy hujum”, “klaster”, “blits-so‘rov” kabi metodlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishda samarali ekanini isbotlagan [4]. Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini faollashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida interaktiv muloqotni kuchaytirish hamda o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlar tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot jarayonida ta’limni jonlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotning asosiy materiali sifatida umumta’lim maktablarining 8–9-sinf o‘quvchilari, shuningdek, ona tili va adabiyot fan o‘qituvchilari jalb etildi. Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorgarlik, amaliyot va tahlil bosqichlari. Har bir bosqichda o‘qituvchilar uchun maxsus o‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron resurslar, raqamli platformalar (Google Classroom, Moodle, EduPage) hamda interfaol usullar (klaster, aqliy hujum, “Venn diagrammasi”, debat, “insert” metodi)dan foydalanildi.

Tajribaning tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga tayyorgarlik darajasi o‘rganildi. Bunda so‘rovnoma, intervyu va kuzatuv metodlari asosida o‘qituvchilarning metodik salohiyati baholandi. Amaliy bosqichda esa dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil fikrlash qobiliyati va o‘z-o‘zini baholash darajasi kuzatildi. Tahlil bosqichida olingan natijalar statistika tahlili asosida qayta ishlanib, innovatsion texnologiyalar ta’sirida o‘quvchilar faolligining, bilim o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining va ijodiy tafakkurning o‘sish dinamikasi aniqlandi. Tadqiqot davomida taqqoslash, kuzatuv, diagnostika, test sinovlari, so‘rovnoma va suhbat metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

1-jadval. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash natijalari

Ko‘rsatkichlar	O‘qituvchilar (%)	Talabalar (%)
An’anaviy usullarga tayanadi	25	30
Innovatsion texnologiyalarni qo‘llaydi	55	60
Qisman innovatsion yondashuvni ishlatadi	20	10

2-jadval. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning ta’sir darajasi

Innovatsion texnologiya turlari	O‘quv motivatsiyasiga ta’siri (%)	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi (%)
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	70	75
Interfaol metodlar	80	78
Virtual ta’lim platformalari	65	72

Yuqoridagi jadvallar ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini ko‘rsatadi. Birinchi jadvalda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida innovatsion usullardan foydalanish foizi tahlil qilingan. Ikkinchi jadvalda esa turli innovatsion texnologiyalar o‘quv motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatgani aks ettirilgan. Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, interfaol metodlar va AKT vositalari ta’lim samaradorligini oshirishda yetakchi o‘rin tutadi.

Tadqiqot muhokamasi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan samaraliroq bo‘lib, o‘quvchilarda darsga qiziqish, motivatsiya va faollikning ortishiga sabab bo‘lgan. Amaliy bosqichda o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifodalash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlangan. O‘qituvchilar esa dars jarayonida zamonaviy texnologik vositalardan (interaktiv doska, raqamli test tizimlari, onlayn platformalar) samarali foydalanish orqali dars sifatini oshirish imkoniga ega bo‘lganlar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchilar faoliyatini faollashtiradi, ta’lim jarayonida o‘quvchi markazli yondashuvni mustahkamlaydi hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini yanada faollashtiradi. Ayniqsa, interfaol o‘yinlar, multimedia taqdimotlari, raqamli resurslar va loyiha asosidagi topshiriqlar o‘quvchilarning muloqot madaniyati va hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirgan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ta’lim jarayonini jonlantirishda innovatsion texnologiyalar muhim o‘rin tutishini, ular orqali dars jarayoni samaradorligi ortib, o‘quvchilarda yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari kengayishini isbotladi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, ta’lim jarayonini jonlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ular o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, o‘quv faoliyatini faollashtiradi hamda dars jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari va raqamli platformalardan

foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tajriba jarayonida o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish malakasi oshgani, o‘quvchilarning esa o‘quv jarayonida faolligi, tashabbuskorligi va hamkorlikdagi faoliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani aniqlandi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqotni kuchaytirib, ta’limning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida”gi farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Hasanboeva O., Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogika: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. G‘ulomov A., Qodirova F. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
5. Mavlonova R. va boshq. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
6. Xodjayeva D. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim samaradorligi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
7. Abdullaeva M. Ta’limda raqamli yondashuv va zamonaviy innovatsiyalar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Alimova Shaxlo Bafayevna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi"
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk ekologik madaniyat va dunyoqarashni shakllantirishning ilmiy-pedagogik hamda huquqiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot doirasida Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun va "Ilk qadam" davlat dasturi talablarining pedagogik integratsiyasi tahlil qilingan. Buxoro viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) bazasida o‘tkazilgan amaliy eksperiment natijalari asosida interaktiv metodlar hamda "Ekologik so‘moq" texnologiyasining samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, maktabgacha ta’lim, Konstitutsiya, "Ilk qadam", interaktiv metodlar, "Ekologik so‘moq", Buxoro iqlimi, kognitiv rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются научные, педагогические и правовые основы формирования первой экологической культуры и мировоззрения у детей дошкольного возраста. Анализируется педагогическая интеграция требований Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, Закона «Об образовании» и государственной программы «Первый шаг». На основе результатов практического эксперимента, проведенного на базе дошкольных образовательных организаций (ДПО) Бухарской области, научно доказана эффективность интерактивных методов и технологии «Экологический сомок».*

Ключевые слова: *экологическая культура, дошкольное образование, Конституция, «Первый шаг», интерактивные методы, «Экологический сомок», Бухарский климат, когнитивное развитие.*

Abstract. *This article examines the scientific-pedagogical and legal foundations for fostering an early ecological culture and worldview in preschool-aged children. The study analyzes the pedagogical integration of requirements derived from the Constitution of the Republic of Uzbekistan (in its new edition), the Law "On Education," and the "Ilk Qadam" ("First Step") state curriculum. Based on the results of a practical experiment conducted in preschool educational organizations (PEOs) within the Bukhara region, the effectiveness of interactive methods and the "Ecological Path" (*Ekologik so‘moq*) technology is scientifically demonstrated.*

Keywords: *ecological culture, preschool education, Constitution, "Ilk Qadam," interactive methods, "Ecological Path," climate of Bukhara, cognitive development.*

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni oqilona tashkil etish, mavjud tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni qaror toptirish bugungi ta’lim-tarbiya tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ekologik muammolarning tobora dolzarblashib borishi jamiyat a’zolarida tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bunday munosabatni rivojlantirish esa faqat ekologik bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, kundalik hayotda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan xatti-harakatlarni odatga aylantirishni ham talab qiladi. Shu sababli ekologik tarbiyaning dastlabki bosqichini maktabgacha ta’lim davridan boshlash alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi olamni, avvalo, bevosita kuzatish, kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va turli amaliy faoliyatlarda qatnashish orqali anglaydi. Uning tabiat haqidagi dastlabki tasavvurlari oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotida va tabiiy muhit bilan muloqot jarayonida tarkib topadi. Shu davrda bolaga o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish, tabiat hodisalariga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash hamda tirik mavjudotlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni o‘rgatish muhimdir. Bunday tarbiyaviy faoliyat bolaning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki unda mehribonlik, kuzatuvchanlik, tejamkorlik va mas’uliyat kabi shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish murakkab va izchil pedagogik jarayon bo‘lib, u bilim, hissiy munosabat va amaliy xulq-atvorning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi. Agar bola tabiatni muhofaza qilish zarurligini nazariy jihatdan bilsa-yu, kundalik faoliyatida bunga amal qilmasa, ekologik tarbiyaning kutilgan natijasiga to‘liq erishilgan deb bo‘lmaydi. Shuning uchun bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularni gullarni parvarish qilish, suvni tejash, chiqindilarni belgilangan joyga tashlash, qushlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va tabiiy muhitni toza saqlash kabi amaliy ishlarga jalb etish lozim. Bunda har bir topshiriq bolaning yoshiga, qiziqishiga va mustaqil faoliyat olib borish imkoniyatiga mos bo‘lishi zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish uchun an’anaviy tushuntirish usullaridan tashqari, bolalarning faol ishtirokiga asoslangan pedagogik yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tabiat qo‘ynidagi kuzatishlar, oddiy tajribalar, ekologik mazmundagi o‘yinlar, rasmlar va modellar yaratish, mavzuli suhbatlar hamda kichik guruhli topshiriqlar bolalarda tabiat hodisalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashga yordam beradi. Masalan, urug‘ning unib chiqishini muntazam kuzatish orqali bola o‘simlikning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni tushunadi va uni parvarish qilishga nisbatan shaxsiy qiziqish hosil qiladi. Bunday tajribalar ekologik bilimlarning hayotiy mazmun kasb etishiga imkon beradi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda pedagog va ota-onalarning hamkorligi ham muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tashkilotida shakllantirilgan ekologik odatlar oilada davom ettirilsa, bolada tabiatga mas’uliyatli munosabatning mustahkamlanishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Shu bois tarbiyachilar ota-onalarni ekologik tadbirlar, tabiatni kuzatish mashg‘ulotlari va oilaviy amaliy topshiriqlarga jalb etishlari, kundalik hayotda ekologik xulq-atvor namunasini ko‘rsatishning ahamiyatini tushuntirishlari lozim.

Mavzuning dolzarbligi maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishni alohida mashg‘ulotlar doirasida emas, balki ta’lim-tarbiyaning barcha yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etish zarurati bilan belgilanadi. Bu jarayonda bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini amaliy tajriba bilan boyitish, ijobiy hissiy munosabatlarini rivojlantirish va tabiatni asrashga yo‘naltirilgan kundalik odatlarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’lim va tarbiyaning huquqiy asosi eng yuqori darajada mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kimning sog‘lom va qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi hamda davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi belgilangan. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 62-moddasi fuqarolarning atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburiyatini yuklaydi. Maktabgacha ta’lim tizimida ushbu konstitutsiyaviy normalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish, bolalarga huquq va majburiyatlarni sodda, qiziqarli o‘yinlar orqali singdirish tarbiyachilarning bosh vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni hamda maktabgacha ta’limning "Ilk qadam" davlat dasturi tarbiyalanuvchilarda "atvor-muhit va tabiatga nisbatan qadriyatli munosabat" kompetensiyasini rivojlantirishni talab etadi. Ushbu tadqiqot mazkur huquqiy talablarni amaliyotga joriy etishning ilmiy-pedagogik mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan.

Ekologik pedagogika sohasining xalqaro miqyosdagi yetakchi namoyandalari hisoblangan S.N.Nikolayeva va N.A.Rijova o‘z ilmiy konsepsiyalarida maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda tizimlilik va uzviylik tamoyillariga alohida urg‘u berishgan. S.N.Nikolayevaning fikricha, ekologik tarbiyaning bosh maqsadi — tabiat qonuniyatlarini bilish va ularga ongli ravishda rioya qilish ko‘nikmasini yaratishdir. N.A.Rijova esa o‘z navbatida ta’lim muhitini ekologizatsiyalash, ya’ni MTTdagi har bir xona va maydonchani ekologik tarbiya vositasiga aylantirish g‘oyasini ilgari suradi.

Mahalliy pedagog olimlardan Sh.S.Sodiqova maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda ko‘rgazmalilik va amaliy mehnat usullarining uyg‘unligi samarali ekanligini isbotlagan. Biroq, regional iqlim sharoitlarini (masalan, Buxoro viloyatining arid, cho‘l iqlimi xususiyatlarini) hisobga olgan holda ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari pedagogik tadqiqotlarda hali yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning uchta asosiy pedagogik mexanizmi tajriba-sinovdan o‘tkazildi:

1. "Ekologik so‘moq" texnologiyasi: MTT hovlisida maxsus marshrutlar tashkil etilib, bolalar tabiat ob’ektlarini (daraxtlar, gullar, hasharotlar, qushlar, suv va tuproq) bevosita kuzatish va ular bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.
2. Interaktiv o‘yinli metodlar: Suv va energiyani tejash, chiqindilarni saralashga qaratilgan "Tabiat dilerlari", "Suv tomchisi qayerga yo‘qoldi?", "Yashil sayyora" kabi innovatsion o‘yinlar joriy etildi.
3. Amaliy-mehnat faoliyati: Oila va MTT hamkorligida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bolalar ishtirokida nihollar ekish, tuproqni yumshatish va o‘simliklarni parvarish qilish tadbirlari tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlari Buxoro viloyatidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining katta va tayyorlov guruhlarida tahsil olayotgan 120 nafar tarbiyalanuvchi ishtirokida olib borildi. Tarbiyalanuvchilar ikki guruhga ajratildi: Nazorat guruhi (60 nafar bolaga an’anaviy mashg‘ulotlar o‘tildi) va Tajriba guruhi (60 nafar bolaga yuqoridagi interaktiv va amaliy metodlar qo‘llanildi).

Tadqiqotning boshida va yakunida bolalarning ekologik madaniyat darajasi uchta mezon bo‘yicha baholandi: Kognitiv (ekologik bilimlar), Emotsional-qadriyatli (tabiatga bo‘lgan mehr va mas’uliyat) hamda Amaliy-faoliyatli (tabiatni asrash ko‘nikmalari).

Olingan statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida qo‘llanilgan tizimli innovatsion metodlar tufayli bolalarning kognitiv bilimlari 46% ga,

emotsional munosabati 45% ga va amaliy ko‘nikmalari 41% ga keskin o‘sgan. Nazorat guruhida esa o‘sish dinamikasi juda past bo‘lib qolgan. Bu esa an’anaviy ta’lim metodlarining ekologik tarbiyada yetarli samara bermasligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni huquqiy savodxonlik, nazariy tushunchalar va amaliy harakatlarning sintezidan iborat bo‘lishi kerakligini isbotladi. Buxoro viloyatining cho‘l va yarim cho‘l iqlim sharoiti, suv tanqisligi muammolarini inobatga olgan holda MTTlar uchun quyidagi amaliy-pedagogik tavsiyalar ilgari suriladi:

- "Ekologik xarita" yaratish: har bir MTT hududida "Suv — hayot manbai", "Yashil burchak", "Chiqindilarga ikkinchi hayot" deb nomlangan stendlar va mini-laboratoriyalar tashkil etish.
- Mintaqaviy xususiyatlarni singdirish: Buxoro sharoitida suvni tejash texnologiyalari (masalan, tomchilatib sug‘orishni bolalarga o‘yin shaklida ko‘rsatish) va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklarni parvarish qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish.
- Oila bilan hamkorlik: "Yashil makon" loyihasi doirasida har bir bola o‘z oilasi bilan birgalikda bir tup ko‘chat ekib, uni parvarishlashi va uning o‘sish kundaligini chizgilar yordamida yuritishi tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish uzluksiz ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bolaning tabiat haqidagi bilimlari, hissiy-qadriyatli munosabati va ekologik mas’uliyatga asoslangan amaliy xatti-harakatlarini o‘zaro uyg‘un rivojlantirishni nazarda tutadi. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiyani faqat nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish bilan cheklab qolmasdan, bolalarni tabiatni kuzatish, tabiiy hodisalarni anglash, o‘simlik va hayvonot dunyosiga g‘amxo‘rlik qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan faoliyatlarga muntazam jalb etish zarurligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishning samaradorligi, avvalo, ta’lim mazmunining huquqiy-me’yoriy talablar, bolaning yosh va individual xususiyatlari hamda hududiy ekologik sharoitlar bilan uyg‘unlashtirilishiga bog‘liq. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan sog‘lom atrof-muhitga bo‘lgan huquq va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish mas’uliyatini maktabgacha ta’lim amaliyotiga mos ravishda singdirish bolalarda ekologik ong va mas’uliyatning dastlabki asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi talablari asosida ekologik mazmundagi mashg‘ulotlarni ta’lim-tarbiyaning boshqa yo‘nalishlari bilan integratsiyalash muhim metodik shart hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida ko‘rib chiqilgan “Ekologik so‘moq” texnologiyasi, interaktiv o‘yinli metodlar hamda amaliy-mehnat faoliyatining uyg‘unligi

bolalarning ekologik bilimlarini hayotiy tajriba bilan mustahkamlash imkonini beradi. Tajriba-sinov jarayonida qo‘llanilgan uchta baholash mezoni — kognitiv, emotsional-qadriyatli va amaliy-faoliyatli mezonlar — ekologik madaniyatni kompleks baholashning metodik asosini tashkil etadi. Maqolada keltirilgan natijalarga ko‘ra, tajriba guruhida ekologik bilimlar ko‘rsatkichi 46 foizga, tabiatga hissiy munosabat ko‘rsatkichi 45 foizga, amaliy ko‘nikmalar ko‘rsatkichi esa 41 foizga oshgan. Mazkur natijalar taklif etilgan metodik yondashuvlarning istiqbolli ekanini ko‘rsatsa-da, ularning samaradorligini to‘liq asoslash uchun baholash mezonlari, boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar hamda statistik tahlil natijalarini batafsil yoritish maqsadga muvofiq.

Buxoro viloyatining qurg‘oqchil iqlimi va suv resurslaridan oqilona foydalanish zaruriyatini hisobga olgan holda, ekologik tarbiya mazmuniga suvni tejash, mahalliy sharoitga mos o‘simliklarni parvarishlash, yashil hududlarni asrash va chiqindilarni saralashga doir amaliy topshiriqlarni kiritish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ekologik xarita” va “Yashil burchak”larni tashkil etish, bolalarning tabiat obyektlari ustidan muntazam kuzatuv olib borishlarini yo‘lga qo‘yish hamda “Yashil makon” tashabbusi doirasida oilaviy ko‘chat ekish va parvarishlash faoliyatlarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda tarbiyachi, ota-ona va mahalla hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish, bolalarning ekologik xatti-harakatlarini muntazam kuzatish va rag‘batlantirish, erishilgan natijalarni aniq mezonlar asosida baholab borish lozim. Bunda ekologik tarbiya bir martalik tadbir emas, balki kundalik ta’limiy vaziyatlar, o‘yinlar, kuzatishlar va amaliy faoliyatlar orqali izchil davom ettiriladigan pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi zarur.

URUmuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish ta’lim mazmunini hududiy ekologik ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish, interaktiv texnologiyalardan maqsadli foydalanish, oila va ta’lim tashkiloti hamkorligini mustahkamlash hamda natijalarni mezonli baholashga asoslanadi. Mazkur yondashuv bolalarda tabiatga nisbatan ongli, qadriyatli va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, ekologik xulq-atvor ko‘nikmalarini kundalik hayotga tatbiq etish hamda kelajakda ekologik jihatdan mas’uliyatli avlodni tarbiyalash uchun pedagogik zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023. (49, 62-moddalar).
2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. "Ilk qadam" maktabgacha tashkilotning Davlat o‘quv dasturi / O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. – Toshkent, 2022.
4. Николаева С.Н. Теория и методика экологического образования детей: Учеб. пособие. – Москва: Академия, 2011. – 272 с.
5. Рыжова Н.А. Экологическое образование в детском саду. – Москва: Карапуз-Дидактика, 2006. – 232 с.
6. Sodiqova Sh.S. Maktabgacha pedagogika. Darslik. – Toshkent: “Tafakkur bustoni”, 2013. – 288-b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA ERTALABKI GIMNASTIKANI MUSIQA JO’RLIGIDA TASHKIL ETISH

Ziyoyeva Zebo Haqimova
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertalabki *gimnastika mashg‘ulotlarini musiqiy jo‘rlikda tashkil etishning ahamiyati va metodik asoslari yoritilgan. Musiqa ostida bajariladigan jismoniy mashqlarning bolalar salomatligini mustahkamlash, ularda ritm hissi, harakatlar koordinatsiyasi va ijobiy emotsional kayfiyatni shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, mashg‘ulotlar uchun musiqiy asarlarni yosh guruhlariga mos ravishda to‘g‘ri tanlash mezonlari va tarbiyachilar uchun amaliy tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta’lim, ertalabki gimnastika, musiqiy jo‘rlik, jismoniy tarbiya, salomatlikni mustahkamlash, harakatli o‘yinlar, ritm hissi.*

Аннотация. *В данной статье освещаются значение и методические основы организации утренней гимнастики под музыкальное сопровождение в дошкольных образовательных организациях. Анализируется роль физических упражнений, выполняемых под музыку, в укреплении здоровья детей, формировании у них чувства ритма, координации движений и положительного эмоционального настроя. Также описаны критерии правильного подбора музыкальных произведений в соответствии с возрастными группами и представлены практические рекомендации для воспитателей.*

Ключевые слова: *Дошкольное образование, утренняя гимнастика, музыкальное сопровождение, физическое воспитание, укрепление здоровья, подвижные игры, чувство ритма.*

Abstract. *This article highlights the significance and methodical foundations of organizing morning gymnastics under musical accompaniment in preschool education organizations. It analyzes the role of physical exercises performed to music in strengthening children’s health, forming their sense of rhythm, coordination of movements, and positive emotional attitude. Furthermore, the criteria for the correct selection of musical pieces according to age groups are described, along with practical recommendations for educators.*

Keywords: *Preschool education, morning gymnastics, musical accompaniment, physical education, health promotion, movement games, sense of rhythm.*

Bolalarning shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta’lim jismoniy va ongli tarbiya uyg‘unlikda olib borilishi kerak. Bu maqsadga yerishish uchun bolalarda to’g‘ri tashkillashtirilgan musiqiy mashg‘ulotlar tashkil yetiladi. Estetik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda go’zallikni tushunish, uni his qilish, yaxshi va yomonni, badiiy san’at turlarini farqlay olish va ularga ijodkorona yondashishga yo’naltirilgandir. Estetik tarbiyaning eng ko’zga ko’ringan omillaridan biri bu – musiqadir. Bu maqsaddarga yerishish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy musiqiyligini rivojlantirish kerak.

Bolalar gimnastikani musiqa bilan qilganida ulardagi ortiqcha holsizlik, ertalabki lanjlik yo’qolib o’zini tetik qis qiladi,bundan tashqari bolada kun bo’yi ko’tarinki kayfiyatni paydo qiladi.

Engil, prujinasimon yurish, yugurish, sakrash, olding va orqaga, yonga qadam tashlash, oldinga hakkalash, raqs harakatlarini sifatli bajarishga o’rgatish. Musiqa ostida qatorlarga saflanish va mashqlar bajarish, qatorlardan doiraga shakliga o’tish, katta va kichik doiralar hosil qilish, bir nechta kichik doirachalarga bo’linishga o’rgatish. Bolalarga o’zbekcha raqslar bilan bir qatorda turli xalqlar raqslarini o’rgatish. Bolalarda raqsga oid ijodkorlikka undash va uning namoyon bo’lishini rag‘batlantirish va qo’llab quvvatlash lozim. To’p bo’lib engil yurish va yugurishdan sekin- asta har tarafga, to’g‘riga, erkin-sochma, doira bo’ylab engil yurish va yugurishga o’rgatish. Bolalarni 3-4 sodda va oddiy harakatlardan iborat raqslarni to’p bo’lib raqs tushishdan juftlikda, sochma tarzda, shundan so’ng doiradagi raqslar ijro etishga o’rgatish. Raqs harakatlaridan «Koptokni yuqoriga ot», «arqonni tort», «tokcha», «ko’zguga qara», «xo’rozcha», «maysani sila» bilan tanishtirish va ularni musiqaga mos bajarish.

4-5 yoshli bolalar bilan badan tarbiya harakatlarni bajarish: Musiqa asarlarining qismlar o’zgarishiga mos harakatlarni o’zgartirish, marsh, qo’shiq, raqs kuylariga mos harakatlarni mustaqil bajarish, boshlovchining ketidan musiqaga mos yurish, yugurish va sakrash. Raqs haraktlarini mustaqil ravishda aniq bajarish, qo’l harakatlarini erkin va mayin bajarishga o’rgatish. Guruh bo’lib, kichik guruhlarga bo’linib, yakka holda harakatlanishga o’rgatish, xonaning bir qismidan ikkinchi qismiga (markazdan burchakka, o’ngdan chapga va h.k.) o’tishda o’z harakatlarini boshqara olish, raqs harakatlarining nomlarini bilish va aniq bajarish.

4-5 harakatni ketma-ket, o’zaro bir biriga bog‘lab hamda musiqaga moslab ijro eta olish. Raqslarda kayfiyatlarni bildiruvchi harakatlardan “yo’q”, “arazlash”, “yarashish” va h.k. ifoda etish, yuz, ko’z imo-ishorasining berilgan kayfiyatga mos bo’lishiga o’rgatish.

4-5 yoshli bolalar bilan musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish: Musiqaning tempi, ritmi, harakteriga mos ifodali harakatlanish. Kuy qismlari almashishiga qarab harakatlarni o’zgartira olish.

Yunon faylasufi Platonning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to’g‘ridan-to’g‘ri bog‘liq. Davlat uchun insonni yuksaklikka ko’tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblagan .

Musiqaga yoshlikdan uyg‘ongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivozida kuchi ta’sir o’tkazadi, boshqa ko’nikma va didlarning shakillanishini ta’minlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va manaviy kayfiyatning ulkan manbayidir. Musiqaning bola hissiyoti va shakillanishiga, uning mazmuninmi tushunish va his etishga katta ta’sirini hisobga olganda haqqoniy va voqiylikni to’g‘ri aks ettirgan musiqali asardan o’rinli foydalanish alohida o’rin tutadi. Musiqali obrazlar shakillanishining asosiy manbayi tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go’zallikni idrok etishiga bevosita bog‘liqdir.

Ibn Sino ham musiqaning hissiy ta’sir kuchini e’tirof etgan holda uni o’zining meditsina kitoblarida aks ettirgan hamda ruhiy kasalliklarni davolashda shifo dasturi sifatida tavsiya qilgan. “Tib qonuni” asarida bir o’rinda musiqaning ruhiy ta’sir kuchiga baho berib, gudakning tarbiyasidagi ahamiyatini shunday ta’riflaganlar: “Gudakning tanasi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onasining qo’shig‘i (allasi). Birinchisi tanasiga, ikkinchisi – ruhiga tegishlidir”.

Musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalar bilan bog‘liq, umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional o’zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o’stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo’lmog‘i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1.Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 2005
2.Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog‘chasida musiqa T.: O‘qituvchi. 2000.
3.F.G. Nurullayev “Bolalarning musiqiy ta’limi” T.:O‘qituvchi 2007y
4.Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog‘chasida musiqaviy o‘yinlar va bayram ertaliklari. T.: O‘qituvchi. 2011.
5. G.M. SHaripova, D.F. Asamova, Z.L. Xadjayeva “Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi”Toshkent 2014 yil

6.Maktabgacha ta’lim muasasalarida musiqa o‘qitish metodikasi. Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent 2007y
7. Erkinovna S. D. BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQA ILMINING O‘QITILISHI //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 64-69.San’atjon, [30.05.2025 10:55]
8. Choriev T.R., Xudoev G‘.M. Sadriddin Ayniy ijodida musiqa san’ati va musiqashunoslik San’at yo‘nalishlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy arbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.- Buxoro. 2013
9. Fitrat A. . O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., “Fan”, 1993. – B. 52-56
10. Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi.- T., “O‘qituvchi”, 1996. – B. 100.
11. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. – T., “O‘qituvchi”, 1999. – B. 46-47.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQALI TEATRLASHTIRILGAN FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISH

Azammuratova Mehrangiz Azamat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqali teatrlashtirilgan faoliyatni tashkil etishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Musiqali teatr orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda nutq va muloqot ko‘nikmalarini o‘stirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mashg‘ulotlar jarayonida musiqiy, dramatik va harakatli o‘yinlarni uyg‘unlashtirish usullari hamda tarbiyachilar uchun amaliy tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha ta’lim, musiqiy tarbiya, teatrlashtirilgan faoliyat, musiqali teatr, bolalar ijodkorligi, estetik rivojlanish, sahnalashtirish.*

Аннотация. *В данной статье освещаются педагогические и психологические основы организации музыкально-театрализованной деятельности в дошкольных образовательных организациях. Анализируются возможности формирования эстетического вкуса, развития творческих способностей, а также речи и коммуникативных навыков детей дошкольного возраста посредством музыкального театра. Также описаны методы интеграции музыкальных, драматических и подвижных игр в процессе занятий и представлены практические рекомендации для воспитателей.*

Ключевые слова: *Дошкольное образование, музыкальное воспитание, театрализованная деятельность, музыкальный театр, детское творчество, эстетическое развитие, инсценировка.*

Abstract. *This article highlights the pedagogical and psychological foundations of organizing musicalized theatrical activities in preschool education organizations. It analyzes the possibilities of forming aesthetic taste, developing creative abilities, as well as speech and communication skills of preschool children through musical theater. Furthermore, methods for integrating musical, dramatic, and movement games during activities are described, along with practical recommendations for educators.*

Keywords: *Preschool education, musical education, theatrical activity, musical theater, children’s creativity, aesthetic development, dramatization.*

Bolalarning estetik rivojlanishi, badiiy qobiliyatini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri bu bolalarning ijodiy faoliyatiga e’tibor berishdir: o’yin, vizual, teatr, konstruktiv, musiqiy. Agar to’g‘ri tashkil etilgan bo’lsa, bolaning badiiy va

estetik, har tomonlama rivojlanishi va maktabga tayyorgarligini ta’minlash, hissiy farovonlik muhitini yaratish va hayotini qiziqarli tarkib bilan to’ldirish mumkin. Bu borada musiqiy teatrlashtirilgan faoliyatni tashkil etish yanada maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu tarbiyachi yoki musiqa rahbaridan ko’p narsa talab qilmaydi, faqat ijodkorlikni talab etadi xolos. Milliy ertaklarimizni ham sahna ko’rinishi orqali musiqa bilan boyitib yanada jozibali qilib, bola kayfiyati va ruhiyatini ko’taradi va milliy qadriyatlarimizga, urf odatlarimizga muhabbat ruhida ulg‘ayishiga zamin yaratadi.

Musiqa nafaqat kattalarga, balki kichik yoshdagi bolalarga ham ta’sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, hatto homiladorlik davrida ham shaxsning keyingi rivojlanishi uchun o’ta muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan: kelajakdagi ona tinglaydigan musiqa rivojlanayotgan bolaning farovonligiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi mumkin (ehtimol bu uning didi va afzalliklarini shakllantiradi). Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy madaniyatining asoslarini shakllantirish uchun sharoit yaratish muhimdir.

Musiqiy ta’limning asosiy vazifalari quyidagicha ko’rib chiqilishi mumkin: Musiqiy faoliyatning har xil turlari orqali musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni (har birining imkoniyatlarini hisobga olgan holda) rivojlantirish;

Musiqiy madaniyatning boshlanishini shakllantiring, umumiy ma’naviy madaniyatning shakllanishiga hissa qo’shing. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish musiqiy ta’limning mazmuniga, birinchi navbatda, ishlatiladigan repertuarning ahamiyatiga, o’qitish usullari va texnikasiga, musiqiy faoliyatni tashkil etish shakllariga va boshqalarga bog‘liq.

Bolada tabiatan o’ziga xos bo’lgan eng yaxshi narsalarni rivojlantirish muhimdir; Musiqiy faoliyatning ayrim turlariga moyillikni hisobga olgan holda, turli xil tabiiy moyilliklar asosida maxsus musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish umumiy rivojlanishga hissa qo’shadi.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, san’at har doim badiiy tasvirlar bilan ishlaydi. Musiqiy san’atning o’ziga xos xususiyatlari shundaki, u hayotiy hodisalarni musiqiy tasvirlarda aks ettiradi. "Asarning musiqiy qiyofasi - bu tinglovchilarga o’ziga xos ovozi bilan ta’sir ko’rsatadigan ifodali vositalar majmui." Maktabgacha yoshdagi bolalar tasvirni idrok etishlari uchun musiqa muhim rol o’ynaydi, u asosiy g‘oyani, his-tuyg‘ularni aniq ifodalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda musiqaning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Musiqa – bolalar estetik tarbiyasida asosiy o’rin tutadi.

2. Bolalar musiqiy estetik madaniyatini Shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo’lib kelgan. Chunki jamiyat ma’naviyatini shaxs

ma’naviyatining yuksakligi, qolaversa, bolalarning musiqiy estetik madaniyatning shakllanganlik darajasi tashkil etadi.

3.Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlari imkon darajasida tashkil etilgan, ammo kichik yoshdagi bolalarni estetik tarbilaSh uchun davr talabi asosida musiqa maShg‘ulotlarini yanada takomillashtirish va qo’Shiq o’rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishga undamoqda. Har bir bolaning musiqa bilan aloqa qilish istagi, uning qobiliyati to’la ro’yobga chiqadigan, unga katta qiziqish ko’rsatadigan musiqiy faoliyat shaklida aloqa qilish istagini sezish va rivojlantirish juda muhimdir. Bu boshqa musiqiy faoliyat turlari ularga o’zlashtirilmasligi kerak degani emas. Ammo estetik tarbiya rivojlanishiga ta’sir qiluvchi etakchi faoliyat turlarida musiqa tinglashni oladigan bo’lsak, agar ushbu etakchi faoliyat turlari maktabgacha yoshda namoyon bo’lgan bo’lsa, har bir bolaning xususiyatlarini hisobga olish va shunga mos ravishda ular musiqiy ta’lim jarayonini aniq uning qobiliyatlari, moyilligi va qiziqishlarini rivojlantirishga yo’naltirishlari kerak. So’nggi yillar davomida hammamizni maktabgacha yoshdagi bolalar kasalliklarining tez-tez uchraydigan ayanchli statistikasi hayratda qoldirdi. Har uchdan birida og‘ish bor.

Zamonaviy jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu shaxsning ma’naviy qashshoqligi, axloqiy ko’rsatmalarni yo’qotish xavfi. Jamiyatda axloqsizlikka, ma’naviyatning yo’qligiga, iste’molchilarning hayotga bo’lgan munosabati, bolalarda faol intellektual, hissiy faoliyatga intilish va ehtiyoj paydo bo’lishi bilan kurashish zarurati paydo bo’ldi. Estetik tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning bo’sh vaqtlarini tashkil qilishning yangi shakllarini izlashga bebaho hissa qo’shadi.Bolalarni ma’naviy go’zallik dunyosiga olib chiqishda katta zaxiralar bolalarning musiqiy ijro faoliyatida o’zining quvonchli hissiyotlari, tasvirlari, motorli faoliyati, jamoaviy ishtiroki, ijodiy tashabbusni rivojlantirish, turli xil ta’lim va ta’lim imkoniyatlari bilan yashiringan.Maktabgacha ta’lim muassasasida estetik tarbiya jarayoni professional va muvozanatli bo’lishi uchun musiqa direktori yuqori malakaga ega bo’lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 2005
2. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog‘chasida musiqa T.: O‘qituvchi. 2000.
3. F.G. Nurullayev “Bolalarning musiqiy ta’limi” T.:O‘qituvchi 2007y
4. Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog‘chasida musiqaviy o‘yinlar va bayram ertaliklari. T.: O‘qituvchi. 2011.
5. G.M. SHaripova, D.F. Asamova, Z.L. Xadjayeva “Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi”Toshkent 2014 yil

6. Maktabgacha ta’lim muasasalarida musiqa o‘qitish metodikasi. Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent 2007y
7. Erkinovna S. D. BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQA ILMINING O‘QITILISHI //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 64-69.San’atjon, [30.05.2025 10:55]
8. Choriev T.R., Xudoev G‘.M. Sadriddin Ayniy ijodida musiqa san’ati va musiqashunoslik San’at yo‘nalishlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy arbiyalash: izlanish, yechim va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.- Buxoro. 2013
9. Fitrat A. . O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., “Fan”, 1993. – B. 52-56
10. Hamidov H. O‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi.- T., “O‘qituvchi”, 1996. – B. 100.
11. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. – T., “O‘qituvchi”, 1999. – B. 46-47.

MAKTABGACHA TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN MUSIQIY MASHG‘ULOTLARNING ZAMONAVIY USULLARI

Saidova Dilorom Erkinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning o‘rni va ularni tashkil etishning zamonaviy usullari yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik idroki, ijodiy tafakkuri va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqaning boshqa faoliyat turlari (tasviriy san’at, nutq o‘stirish, jismoniy harakatlar) bilan uyg‘unlashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, mashg‘ulotlar jarayonida interaktiv o‘yinlar, AKT hamda STEAM yondashuvidan foydalanish bo‘yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, integratsiyalashgan mashg‘ulot, musiqiy tarbiya, zamonaviy usullar, estetik idrok, innovatsiya, STEAM yondashuvi.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль интегрированных занятий в повышении эффективности музыкального образования в дошкольных образовательных организациях и современные методы их организации. Анализируется взаимосвязь музыки с другими видами деятельности (изобразительное искусство, развитие речи, физическая активность) в развитии эстетического восприятия, творческого мышления и музыкальных способностей детей дошкольного возраста. Также разработаны педагогические рекомендации по использованию интерактивных игр, ИКТ и STEAM-подхода в процессе занятий.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, интегрированное занятие, музыкальное воспитание, современные методы, эстетическое восприятие, инновации, STEAM-подход.*

Abstract. *This article highlights the role of integrated lessons in improving the effectiveness of music education in preschool educational organizations and modern methods of their organization. The integration of music with other types of activities (fine arts, speech development, physical movements) in the development of aesthetic perception, creative thinking, and musical abilities of preschool children is analyzed. In addition, pedagogical recommendations have been developed for the use of interactive games, ICT, and the STEAM approach in the course of lessons.*

Keywords: *preschool education, integrated lesson, music education, modern methods, aesthetic perception, innovation, STEAM approach.*

Mustaqil O‘zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga, endi etishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga mas’uliyatli va sharafli ishni, ya’ni bola tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish yuklatildi.Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagi, davlatimizni buyukligini tasavvur etganining natijasiga ko‘ra ta’lim to‘g‘risidagi qonun va yangicha dunyoqarash talab etilar edi.

Ta’lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog‘onasi bo‘lgan maktabgacha ta’lim bosqichida ham katta o‘zgarishlar qilish ehtiyoji tug‘ildi. Buning uchun pishiq – puxta o‘ylangan, ma’lum maqsad va vazifalarni o‘zida mujassamlashtirgan istiqbolli dasturlar talab etar edi. Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta’lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi “maktabgacha ta’lim” deb ataldi. Birgina shu yondashuvning o‘ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlod zimmasida kuchga to‘lib, sog‘lom, bilimli, aqlli bo‘lib jamiyatimizning faol a’zolariga aylantirishdek ulkan vazifa turibdi. Bunda esa u siz-u bizga, ya’ni kattalarga ishonadilar. Agar yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni va vatanparvarlik bilan uyg‘unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz.

Shuning uchun bu o‘quv fanini o‘qitish nazariyasi hamda metodikasini o‘zlashtirishni hozirgi kunda o‘ta ahamiyatli va muhim faoliyatdir. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta’lim muassasalari oldiga musiqiy estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo‘yadi: – bolalarni tabiat go‘zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish; – estetik did va hissiyotni shakllantirish; – hayotda go‘zallik tushunchasini to‘liqligicha anglashni o‘rgatish; – bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish; – bolalarda go‘zallikni o‘z hayotlariga, o‘z faoliyatlariga olib kirishni o‘rgatish va hokazo.

Uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta’limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o‘ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o‘qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi har bir fanning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o‘ylashga o‘rgatishdir. Musiqa shunday san’at turiki, u insonlarni kechinmalari, emosional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli tuman kechinmalar uyg‘otishining o‘zini bir mo‘jiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. inson shaxsini shakllantiruvchi etakchi omillardan biri – ta’lim-tarbiyadir.

Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go‘zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san’atning xalqchilligi to‘g‘risidagi ta’limotga suyanib, o‘quvchilarning ob’ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste’dodini o‘stiradi hamda ularda yuksak ma’naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish, go‘zallikni ko‘ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o‘quvchilarni go‘zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazadi. Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to‘lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo‘ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug‘orilgan bo‘ladi, musiqada hayot va o‘lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o‘ziga tortgan.

Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san’atlar ichida musiqa san’atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari – ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta’siri, uning ichki dunyosini o‘zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo‘lgan. Musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Oilada, bog‘chada, maktabda musiqa mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to‘g‘ri tushunishdagi samarali yo‘ldir. Musiqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg‘ulariga faol ta’sir etadi.

Musiqa ham fan, ham san’atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg‘un tushunchasi sifatida qarab bo‘lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san’atdir. Musiqa san’ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shadi. Musiqa inson umrining doimiy yo‘ldoshi. Stendalning aytishiga ko‘ra, musiqa – san’at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga

qodirdir. «Musiqa san’atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqea hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me’morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o‘lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko‘rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqa mavzui o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma’naviy dunyosini, uning tuyg‘u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg‘uli qiyofasini yaratadi» Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo‘lib, u hech narsa bilan bog‘lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo‘lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo‘lgan tuyg‘u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg‘urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o‘xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o‘zaro bog‘liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi. Musiqa «til»i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl – musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg‘ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali etib boradi.

Shu bois musiqa «til»ini egallashga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar boyligini o‘zlashtirishga keng yo‘l ochadi. O‘sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg‘u bilan ta’kidlashgan. Kelajak jamiyat a’zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o‘ta o‘ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo‘lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir. Albatta, musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo‘nalishlarini o‘z-o‘zidan belgilab bermaydi.

Tarbiyaviy ta’sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g‘oyaviy mazmuniga bog‘liqdir. Ana shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashhur polyak kompozitori K.Shimanovskiy o‘zining «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, – uning ikki qarama-qarshi yo‘nalishda – yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini — «kerakli ishga yo‘naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya’ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak», – degan. Musiqaning insonga ta’siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o‘rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov

kelmadi. Shu o‘rinda Asafevning «…musiqa – bu ham san’at, ham fan, ham til, ham o‘yin»–degan so‘zlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Demak, bolalarning musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san’atining o‘rni beqiyosdir.

Musiqa kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta’sir qilib, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta’sir qilib, ularnin hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma’naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg‘otadi. Bunday ta’sir g‘oyat murakkab va kuchlidir. Qobiliyat – ma’lum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sub’ektiv sharti bo‘lib hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi.

Psixologiya fanining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron-bir qobiliyatning ro‘yobga chiqish va rivojlanish manbai layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat o‘z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Bola musiqaga layoqat bilan tug‘ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo‘lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida etakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda kishiga ta’sir etadigan tashqi voqealar yig‘indisi tushuniladi. Muhit o‘z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo‘linadi. Insondagi musiqiy layoqatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 2005
2. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog‘chasida musiqa T.: O‘qituvchi. 2000.
3. F.G. Nurullayev “Bolalarning musiqiy ta’limi” T.:O‘qituvchi 2007y
4. Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog‘chasida musiqaviy o‘yinlar va bayram ertaliklari. T.: O‘qituvchi. 2011.
5. G.M. SHaripova, D.F. Asamova, Z.L. Xadjayeva “Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi”Toshkent 2014 yil
6. Maktabgacha ta’lim muasasalarida musiqa o‘qitish metodikasi. Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent 2007y
7. Erkinovna S. D. BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQA ILMINING O‘QITILISHI //Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 64-69.San’atjon, [30.05.2025 10:55]

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH ORQALI BOLALARNING TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Alimova Shaxlo Bafayevna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy STEAM ta’lim texnologiyasining o‘rni tahlil qilingan. MTT amaliyotida eksperiment va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, bolalarda mustaqil mushohada hamda ijodiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, STEAM yondashuvi, tadqiqotchilik qobiliyati, eksperiment, integratsiya, kognitiv rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль современной образовательной технологии STEAM в развитии интеллектуальных и исследовательских способностей детей дошкольного возраста. Научно и методически обоснованы этапы организации экспериментальной и опытно-конструкторской работы в практике ДОО, формирования у детей самостоятельного суждения и творческого мышления.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, STEAM-подход, исследовательские способности, эксперимент, интеграция, когнитивное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the role of modern STEAM education technology in developing the intellectual and research abilities of preschool children. The stages of organizing experimental and pilot work in the practice of preschool educational organizations, as well as forming independent judgment and creative thinking in children, are scientifically and methodologically substantiated.*

Keywords: *preschool education, STEAM approach, research ability, experiment, integration, cognitive development.*

XXI asr — yuqori texnologiyalar va intellektual salohiyat asridir. Zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalash poydevori aynan maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab qo‘yiladi. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, unga ilg‘or xalqaro yondashuvlarni integratsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bolalarda atrof-muhitni o‘rganishga bo‘lgan tabiiy qiziquvchanlikni ilmiy mushohada va tadqiqotchilik ko‘nikmalariga aylantirishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) ta’lim yondashuvi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Mazkur texnologiya bolani shunchaki tayyor qoidalarni eslab qolishdan asrab, uni mustaqil izlanish va kashfiyotlar qilishga undaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik qobiliyatini yuzaga chiqarish — ularning bilish (kognitiv) jarayonlarini faollashtirish bilan bevosita bog‘liq. Professor Shin ta’kidlaganidek, "Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatan kichik tadqiqotchilardir, ularning har bir savoli ilmiy kashfiyot poydevoridir". STEAM yondashuvi bolaning ana shu ichki ehtiyojini tizimli ravishda qondirishga xizmat qiladi.

An’anaviy ta’lim usullaridan farqli o‘laroq, STEAM texnologiyasi beshta yo‘nalishni (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) bir-biridan ajratmagan holda, yaxlit loyiha shaklida o‘rgatadi. MTT katta va tayyorlov guruhlarida ushbu yo‘nalishni joriy etish asosan tajriba-sinovlar, modellashtirish va didaktik o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olima F.Qodirova uzviylik tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash doirasini kengaytirishda amaliy harakatlarning o‘rni beqiyos ekanligini alohida qayd etgan.

Eksperimentlar o‘tkazish jarayonida bola muammoni ko‘rishni, unga nisbatan gipoteza (taxmin) ilgari surishni va natijani amalda tekshirishni o‘rganadi. Masalan, "Suvning ajoyib xususiyatlari" mavzusidagi oddiy tadqiqotda bolalarga turli buyumlar (tosh, qog‘oz, plastik, yog‘och) berilib, ularning suvda cho‘kishi yoki suzishi kuzatiladi. Bu yerda bolalar:

- **Science (Fan):** Buyumlarning og‘irligi va zichligi haqida boshlang‘ich tushunchaga ega bo‘ladilar.
- **Engineering (Muhandislik):** Cho‘kmaydigan kichik kemalar yasashga urinib ko‘radilar.
- **Art (San’at):** O‘z kemalarini ranglar yordamida bezatadilar.
- **Math (Matematika):** Cho‘kkan va suzayotgan buyumlarni sanab, jadvallarga belgilaydilar.

Ushbu jarayonda o‘yin orqali ta’lim (Play-based learning) prinsiplari to‘liq namoyon bo‘ladi. Xorijiy tadqiqotchi J.Piaje ta’kidlaganidek, "Bola ob’ektlar bilan bevosita muloqotda bo‘lish, ularni ushlab ko‘rish va o‘zgartirish orqali dunyoni anglaydi". O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat standart talablarida ham bolalarda tashabbuskorlik hamda tadqiqotchilik faolligini oshirish muhim vazifa qilib belgilangan.

O‘qituvchi-tarbiyachi STEAM darslarida asosiy ma’lumot beruvchi personaj emas, balki bolalarning xavfsizligini ta’minlovchi va ularni ijodiy fikrlashga chorlovchi maslahatchi (fasilitator) bo‘lishi lozim. Mashhur metodist Sh.Sodiqova o‘z asarlarida ta’kidlaganidek, maktabgacha ta’lim jarayonida bolaga erkin tanlov imkoniyatining berilishi uning mustaqil shaxs bo‘lib shakllanishini tezlashtiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasidan tizimli va maqsadli foydalanish bolalarning intellektual salohiyatini, ijodiy imkoniyatlarini hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini qiziqarli, mazmunli va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. STEAM

texnologiyasi orqali bolalar fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika elementlarini o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganib, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo‘llashga o‘rganadilar.

Ushbu texnologiya bolalarda mantiqiy va kreativ tafakkurni shakllantirish, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Turli tajribalar o‘tkazish, konstruksiyalar yaratish, modellashtirish, loyihalar ustida ishlash va muammoli vaziyatlarga yechim topish orqali bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Shuningdek, STEAM mashg‘ulotlari bolalarda savol berish, o‘z fikrini erkin ifodalash, yangilik yaratishga intilish va xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarish kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi. Bunday faoliyat bolalarning nafaqat aqliy rivojlanishiga, balki ijtimoiy-emotsional yetukligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

STEAM texnologiyasining yana bir muhim jihati shundaki, u bolalarda jamoada ishlash, o‘zaro fikr almashish, tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilish va umumiy maqsad sari hamkorlikda harakat qilish madaniyatini shakllantiradi. Guruhli loyihalar va amaliy topshiriqlar jarayonida bolalar o‘z vazifalarini taqsimlash, bir-biriga yordam berish hamda umumiy natijaga erishish uchun mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning kelgusida ta’lim olishlari va jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

STEAM yondashuvining samaradorligi, avvalo, pedagogning kasbiy mahorati, ijodkorligi va ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil eta olishiga bog‘liq. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning STEAM texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish, zamonaviy didaktik materiallar va rivojlantiruvchi muhitni yaratish, bolalarning mustaqil izlanishlariga imkon beradigan shart-sharoitlarni ta’minlash muhimdir. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish, o‘yin, tajriba, kuzatish va amaliy topshiriqlardan samarali foydalanish lozim.

Shuningdek, STEAM texnologiyasini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham alohida ahamiyatga ega. Oilada bolalarning kuzatish, tajriba o‘tkazish, konstruktorlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini o‘rganish va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishini qo‘llab-quvvatlash ta’limning uzviyligini ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligida amalga oshiriladigan bunday faoliyat bolalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotiga STEAM texnologiyasini keng va izchil joriy etish ta’lim sifatini oshirish, bolalarning tabiiy

qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda ularni maktab ta’limiga har tomonlama tayyorlashning muhim omillaridan biridir. Mazkur yondashuv asosida tarbiyalangan bolalar kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor, muammolarga oqilona yechim topa oladigan va yangi bilimlarni egallashga intiladigan shaxslar sifatida kamol topadilar. Demak, STEAM texnologiyasi nafaqat bugungi maktabgacha ta’lim jarayonini takomillashtirish vositasi, balki kelajak avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, innovatsion fikrlashini rivojlantirish va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga xizmat qiluvchi istiqbolli pedagogik yondashuvdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Shin S. Early Childhood STEM Education: Perspectives and Practice. – Seoul: Education Press, 2020. – P. 34.
2. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Tafakkur", 2019. – B. 88.
3. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 2016. – P. 112.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2021.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018. – B. 145.

LOYIHAVIY TA’LIM YONDASHUVI O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Alimova Shaxlo Bafayevna
Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda loyiha asosida ta’lim (PBL) metodining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Dars jarayonida loyiha metodini tashkil etish bosqichlari, o‘quvchilarning tadqiqotchilik hamda muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirish strategiyalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, loyiha asosida ta’lim, mustaqil fikrlash, innovatsion metodlar, 4K modeli, motivatsiya.*

Аннотация.*В данной статье рассматривается роль и значение метода проектного обучения (PBL) в развитии навыков самостоятельного мышления учащихся начальных классов. Анализируются этапы организации проектного метода в учебном процессе, стратегии формирования исследовательских навыков учащихся и умения решать проблемные ситуации.*

Ключевые слова: *начальное образование, проектное обучение, самостоятельное мышление, инновационные методы, модель 4К, мотивация.*

Abstract.*This article examines the role and significance of Project-Based Learning (PBL) in developing independent thinking skills of primary school students. The stages of organizing the project method in the educational process, strategies for forming students’ research and problem-solving abilities are analyzed.*

Keywords: *primary education, Project-Based Learning, independent thinking, innovative methods, 4C model, motivation.*

Zamonaviy ta’lim tizimining bosh maqsadi o‘quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, ma’lumotlarni tahlil qilishga va hayotiy muammolarga yechim topishga o‘rgatishdan iboratdir. Boshlang‘ich sinflardanoq bolada axborotlar oqimidan to‘g‘ri foydalanish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilash va uning samaradorligini oshirishda loyiha asosida ta’lim (Project-Based Learning - PBL) yondashuvi yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Loyiha metodi o‘quvchini darsning passiv tinglovchisidan faol ijrochi va tadqiqotchiga aylantiradi.

Loyiha asosida ta’lim - bu o‘quvchilarning real hayotiy muammolarni chuqur o‘rganish va ularga yechim topish jarayonida bilim hamda ko‘nikmalarni egallashiga qaratilgan tizimli o‘qitish metodidir. Professor Yo.G‘afforov ta’kidlaganidek, "Pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida o‘quvchining mustaqil fikrlashi dars samarasini belgilovchi bosh omildir". Loyiha metodi aynan mana shu mustaqillikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda loyiha asosida ta’limni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Muammoni aniqlash va mavzu tanlash bosqichi.

Loyiha asosida ta’lim texnologiyasining muvaffaqiyati va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ichki motivatsiyasi aynan mana shu dastlabki bosqichning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqdir. Bu bosqichda shunchaki darslikdagi tayyor mavzuni e’lon qilish emas, balki o‘quvchilarni o‘ylantiradigan, ularning yosh xususiyatlariga mos va eng muhimi – real hayot bilan bog‘liq bo‘lgan muammoli vaziyatni o‘rtaga tashlash talab etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sensor va kognitiv rivojlanish darajasidan kelib chiqib, muammo mavhum emas, balki ularning kundalik hayotida ko‘rib, his qilib turgan narsalari asosida shakllantirilishi lozim. Masalan, pedagogik amaliyotda an’anaviy "O‘simliklarning o‘sishi" mavzusini loyiha usuliga o‘tkazishda muammo quyidagicha qo‘yilishi mumkin: "Nima uchun maktabimiz hovlisidagi gullar bir xil ekilgan bo‘lsa-da, soyadagilari yaxshi o‘smayapti?" yoki "Qish mavsumida xonamizdagi gullarni qanday qilib sovuqdan asrab qolish mumkin?". Bunday savollar bolada tabiiy qiziquvchanlikni uyg‘otadi va uni mustaqil ravishda yechim izlashga majbur qiladi.

Mavzu tanlash jarayonida o‘qituvchi quyidagi muhim mezonlarga amal qilishi shart:

- Dolzarblik va hayotiylik: muammo bola yashayotgan muhit (sinf, maktab, mahalla, oila) bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi;

- Integratsiyalashgan xarakter: tanlangan muammo faqat bir fanni emas, balki matematika, ona tili, tabiiy va tasviriy san’at fanlari integratsiyasini qamrab olishi;
- Yechimning ko‘p variantliligi: muammoning yagona va tayyor javobi bo‘lmasligi, o‘quvchilar turlicha yondashuvlar orqali o‘z gipotezalarini ilgari sura olishlari kerak.

Muammoni birgalikda aniqlash jarayonida o‘quvchilar "Aqliy hujum" metodi orqali o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlaydilar. Bu esa ularda fikrlash erkinligini va o‘z atrofidagi voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissini shakllantiradi. Natijada, o‘quvchi loyiha mavzusini o‘ziniki deb qabul qiladi va tadqiqot jarayoniga shunchaki majburiyat yuzasidan emas, balki chinakam ichki qiziqish bilan kirishadi.

2. Rejalashtirish bosqichi (Reja tuzish va vazifalarni taqsimlash).

Muammo aniqlanib, loyiha mavzusi belgilangach, jarayonning eng mas’uliyatli qismi — uni tizimli rejalashtirish bosqichi boshlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va ishni tizimli tashkil etish ko‘nikmalari hali to‘liq shakllanmaganligini hisobga olsak, bu bosqichda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi (fasilitatorlik) roli yaqqol namoyon bo‘ladi. Rejalashtirish shunchaki topshiriqlar ro‘yxatini tuzish emas, balki o‘quvchilarning mustaqil faoliyat strategiyasini belgilashdir.

Bu bosqichda sinf o‘quvchilari kichik tadqiqot guruhlariga (odatda 4–5 nafardan) ajratiladi. Guruhlar ichida rollarni taqsimlash o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, ularning o‘zaro roziligi asosida amalga oshiriladi. Masalan, guruhda "Tashkilotchi" (ishni muvofiqlashtiradi), "Tadqiqotchi" (ma’lumot yig‘adi), "Dizayner" (vizual qismga mas’ul) va "Spiker" (loyiha himoyachisi) kabi vazifalar taqsimlanadi. Bunday yondashuv har bir bolada mas’uliyat hissini uyg‘otadi va jamoada ishlash (kollaboratsiya) ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Rejalashtirish bosqichining ilmiy-metodik asosi quyidagi savollarga javob izlashga qaratiladi:

- Bizga qanday ma’lumotlar kerak va ularni qayerdan topamiz? (Darsliklar, internet, ota-onalar bilan suhbat, tabiatni kuzatish).
- Loyihani amalga oshirish uchun qancha vaqt talab etiladi? (Boshlang‘ich sinflarda qisqa muddatli — 1-2 haftalik loyihalar samarali hisoblanadi).
- Yakuniy mahsulot qanday ko‘rinishda bo‘ladi? (Albom, maket, elektron taqdimot, buklet).

O‘qituvchi har bir guruhga maxsus "Loyiha kundaligi" yoki yo‘naltiruvchi kartochkalarni taqdim etadi. Bu o‘quvchilarga o‘z harakatlarini bosqichma-bosqich

nazorat qilishni va o‘z-o‘zini baholashni o‘rgatadi, bu esa mustaqil va mantiqiy fikrlash tarbiyasining ajralmas qismidir.

3. Tadqiqot o‘tkazish va ma’lumotlar bilan ishlash bosqichi.

Tadqiqot o‘tkazish bosqichi — loyiha darslarining kulminatsion nuqtasi bo‘lib, unda o‘quvchilar passiv axborot qabul qiluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylanadilar. Bu bosqichda bolalar reja asosida turli manbalardan ma’lumot to‘playdilar, kuzatishlar olib boradilar, oddiy tajribalar o‘tkazadilar yoki so‘rovnomalar tashkil qiladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun ma’lumotlar oqimi bilan ishlash dastlab biroz murakkablik tug‘dirishi mumkin. Aynan shu yerda ularning tanqidiy va mustaqil fikrlashi amaliyotda sinaladi va rivojlanadi. O‘quvchilar topilgan ma’lumotlarni saralashni, muhimini nomuhimidan ajratishni va o‘zaro solishtirishni o‘rganadilar. Masalan, "Bizning atrofimizdagi chiqindilar" loyihasida o‘quvchilar bir hafta davomida o‘z xonadonlaridan qancha plastik yoki qog‘oz chiqindi chiqishini hisoblab, jadval tuzadilar. Bu jarayon matematik hisob-kitob, mantiqiy tahlil va ekologik savodxonlikni birlashtiradi.

Tadqiqot bosqichida o‘qituvchi quyidagi metodik talablarga e’tibor qaratishi lozim:

1. **Xavfsizlik va yoshga moslik:** Kuzatish va tajribalar bola hayoti va sog‘lig‘i uchun mutlaqo xavfsiz bo‘lishi shart.
2. **Mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash:** O‘qituvchi muammoning tayyor yechimini aytib qo‘ymasligi, balki "Sizningcha, buning sababi nima bo‘lishi mumkin?", "Bu ma’lumotni yana qayerdan tekshirib ko‘rishimiz mumkin?" degan yo‘naltiruvchi savollar orqali bolani mustaqil xulosaga yetaklashi kerak.
3. **Hamkorlik muhiti:** Guruh a’zolari o‘rtasida fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish va muammoli vaziyatlarni birgalikda muhokama qilish muhiti yaratiladi.

Tadqiqot yakunida har bir guruh to‘plangan xomashyo va ma’lumotlarni tizimlashtiradi. Ushbu jarayon o‘quvchida ilmiy mushohada yuritish, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini ko‘ra olish va eng asosiysi — o‘z mustaqil nuqtayi nazariga ega bo‘lish poydevorini shakllantiradi.

4. Mahsulot yaratish va taqdimot (Prezentatsiya): Loyiha yakunida o‘quvchilar maket, rasm, albom yoki kichik sahna ko‘rinishi shaklida o‘z ishlarini namoyish etadilar.

Bu jarayonda o‘quvchilar shunchaki yodlash bilan cheklanib qolmay, "Nima uchun?", "Buni qanday hal qilish mumkin?" kabi savollar ustida bosh qotiradilar. Xorijiy tadqiqotchi J.Larmer o‘z asarida loyiha metodining o‘quvchi shaxsini rivojlantirishdagi afzalliklarini yuqori baholagan. Haqiqatan ham, loyiha ustida

ishlash jarayonida zamonaviy ta’limning "4K" modeli (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kollaboratsiya va kommunikatsiya) amalda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy o‘quv dasturida ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida amaliy va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida urg‘u berilgan. Loyiha darslarida o‘qituvchi tayyor ma’lumot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi. Bu esa o‘quvchining ichki potensialini yuzaga chiqarib, unda mustaqil bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otadi.

Masalan, tabiiy-ilmiy (Science) darslarida "Bizning atrofimizdagi chiqindilar va ularni ikkinchi hayoti" mavzusidagi kichik loyiha o‘quvchilarga ekologik muammolarni tushunish, ma’lumot yig‘ish va chiqindilardan foydali buyumlar yasash orqali ijodiy va mustaqil fikrlashni o‘rgatadi. Olima M.Asqarova o‘z ilmiy ishlarida boshlang‘ich sinflarda o‘quv faoliyatini to‘g‘ri motivatsiya qilish mustaqil fikrlashning poydevori ekanligini isbotlagan.

Xulosa qilib aytganda, loyiha asosida ta’lim yondashuvi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtirishda eng samarali vositalardan biridir. Ushbu metod orqali o‘quvchilarda jamoada ishlash, muammolarni ijodiy hal etish va o‘z fikrini dadil bayon qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Boshlang‘ich ta’lim darslarida loyihalardan muntazam foydalanish kelajakda intellektual va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. G‘afforov Y. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2021. – B. 45.
2. Larmer J., Mergendoller J. Setting the Standard for Project Based Learning. – ASCD, 2015. – P. 78.
3. Boshlang‘ich ta’limning Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
4. Asqarova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faolligini oshirish metodikasi. – Buxoro, 2022. – B. 112.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA 4K MODELI, STEAM VA REGGIO EMILIA YONDASHUVLARINING INTEGRATSION METODOLOGIYASI

D.Bekmurotova
BuxDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida keng qo‘llanilayotgan global innovatsion yondashuvlar - 4K kompetensiyalari, STEAM ta’lim modeli va Reggio Emilia pedagogikasining o‘zaro integratsiyalashuv mexanizmlari hamda metodologiyasi tahlil qilinadi.*

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kollaboratsiya va kommunikatsiyani rivojlantirishda ushbu metodikalarning amaliy ahamiyati, loyiha faoliyati va ta'limiy muhitni tashkil etish prinsiplari orqali ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *4K kompetensiyalari, STEAM ta'limi, Reggio Emilia yondashuvi, fanlararo integratsiya, maktabgacha ta'lim, loyiha faoliyati, ta'limiy muhit, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

Аннотация: *В данной статье анализируются механизмы и методология интеграции глобальных инновационных подходов, широко применяемых в современной системе дошкольного образования - компетенций 4К, образовательной модели STEAM и педагогики Реджио-Эмилия. Научно обосновано практическое значение данных методик в развитии критического мышления, креативности, коллаборации и коммуникации у детей дошкольного возраста через принципы организации проектной деятельности и образовательной среды.*

Ключевые слова: *компетенции 4К, STEAM - образование, подход Реджио-Эмилия, межпредметная интеграция, дошкольное образование, проектная деятельность, образовательная среда, Лорис Малагуцци, личностно-ориентированное обучение.*

Abstract: *This article analyzes the mechanisms and methodology of integration of global innovative approaches widely used in the modern system of preschool education — 4C competencies, the STEAM educational model, and Reggio Emilia pedagogy. The practical significance of these methodologies in the development of critical thinking, creativity, collaboration, and communication in preschool children is scientifically substantiated through the principles of organizing project activities and the educational environment.*

Keywords: *4C competencies, STEAM education, Reggio Emilia approach, interdisciplinary integration, preschool education, project-based activity, educational environment, Loris Malaguzzi, student-centered learning.*

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi tub burilishlar davrini boshdan kechirmoqda. Axborot oqimining tezlashishi va raqamli texnologiyalarning hayotimizga chuqur kirib borishi ta'lim paradigmasini "tayyor bilimlarni yodlash" modelidan "ko'nikmalarni shakllantirish va amaliyotda qo'llash" modeliga o'tkazishni talab etmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, inson shaxsiyati va intellektual poydevori shakllanadigan maktabgacha ta'lim davrida nihoyatda muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ilgari surilayotgan eng samarali global tendensiyalar qatoriga 4K modeli (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya), STEAM ta'lim tizimi va Italiyaning erkin, tabiatga uyg'un hamda shaxsga yo'naltirilgan Reggio Emilia pedagogik yondashuvi kiradi. Ushbu uchta tizim alohida-alohida o'rganilganda ham yuqori natija beradi, biroq ularning o'zaro didaktik integratsiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutlaqo yangicha, kreativ va samarali o'quv-tarbiya muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada ushbu uchta innovatsion pedagogik konseptning o'zaro bog'liqlik mexanizmlari, integratsiyalashuv metodologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishdagi amaliy ahamiyati ilmiy va empirik jihatdan tahlil qilinadi.

4K modeli zamonaviy bolaning ijtimoiy-intellektual portretini belgilab beruvchi asosiy kompetensiyalar majmuasidir. Maktabgacha yosh davrida ushbu

ko‘nikmalarni maqsadli rivojlantirish bolaning kelajakda maktab ta’limiga muvaffaqiyatli moslashishini (adaptatsiyasini) ta’minlaydi.

Tanqidiy fikrlash: Bu yoshda tanqidiy fikrlash bolaning "Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi savollarni bera olishi va atrof-muhitdagi oddiy qonuniyatlarni mustaqil tushunishga urinishida namoyon bo‘ladi. Bola tayyor ma’lumotni qabul qilmasdan, tajriba o‘tkazish orqali sabab va oqibat aloqalarini tahlil qiladi.

Ijodkorlik: Bu faqatgina rasm chizish yoki kuy chalish emas, balki muammoli vaziyatlarda nostandart, originallikka ega bo‘lgan yechimlarni topish qobiliyatidir. Masalan, o‘yin davomida yetishmayotgan detalning o‘rnini boshqa bir tabiiy ashyo bilan almashtira olish kreativlikning dastlabki kurtagidir.

Kollaboratsiya: Jamoada ishlash, tengdoshlarining fikrini hurmat qilish, umumiy maqsad yo‘lida o‘z xohishlarini boshqara olish (samarali murosaga kelish) ko‘nikmasidir. Bolalar birgalikda o‘yin o‘ynash, umumiy maket yoki loyiha ustida ishlash jarayonida ushbu ko‘nikmani shakllantiradilar.

Kommunikatsiya: O‘z hissiyotlari, fikrlari va g‘oyalarini til vositalari hamda nutq orqali aniq, tushunarli va madaniyatli tarzda ifoda eta olish. Muloqot jarayonida suhbatdoshni tinglash va unga adekvat munosabat bildirish ham kommunikatsiyaning ajralmas qismidir.

STEAM ta’limi: Tabiiy-ilmiy va estetik bilimlarning sintezi.

STEAM yondashuvi (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San’at va Matematika) bolaga atrofimizdagi olamni qismlarga bo‘lingan holda emas, balki yaxlit va tizimli tushunishga yordam beradi. Traditsion ta’limda matematika yoki rasm darslari alohida o‘tilgan bo‘lsa, STEAMda bular bitta loyiha doirasida birlashtiriladi. Maktabgacha yoshdagi STEAM faqatgina murakkab texnik qurilmalar bilan ishlash degani emas. U oddiy elementar tajribalardan boshlanadi: suvning holatlari (muz, suyuqlik, bug‘), jismlarning suvda cho‘kishi yoki qalqishi, ranglarning o‘zaro aralashuvidan yangi tuslar hosil bo‘lishi va hokazo.

Muhandislik bloki bolalarda fazoviy tafakkurni rivojlantiradi. Konstruktorlar, lego elementlari, qog‘oz va karton qutilar yordamida turli binolar, ko‘priklar, minoralar yasash orqali bolalar elementar geometriya va mexanika qonunlarini o‘rganadilar. San’at komponentining mavjudligi esa texnik loyihalarga estetik go‘zallik va dizayn element larini olib kiradi, bu esa o‘z navbatida bolaning hissiy intellektini o‘stiradi.

Reggio Emilia pedagogikasi va “Bolaning yuzta tili” falsafasi.

Italiyalik mashhur pedagog va psixolog Loris Malaguzzi tomonidan asos solingan Reggio Emilia yondashuvi bolani huquq va ulkan salohiyatga ega bo‘lgan faol shaxs sifatida ko‘radi. Bu tizimning fundamental g‘oyasi bolaning “yuzta tili” konsepsiyasiga tayanadi. Bola o‘zini, o‘z dunyoqarashini va his-tuyg‘ularini

faqatgina so‘z orqali emas, balki loy, qum, bo‘yoqlar, teatr, raqs, soya o‘yinlari, qurilish materiallari, asboblar va hatto raqamli vositalar orqali ifodalashga haqlidir.

Reggio Emilia yondashuvining o‘ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat. “Muhit - uchinchi tarbiyachi”: Xonalar tabiiylik, yorug‘lik va ochiqlik prinsiplari asosida jihozlanadi. Tayyor, funksiyasi chegaralangan plastik o‘yinchoqlar o‘rniga bolalarga erkin ijod qilish uchun tabiiy materiallar (toshlar, chig‘anoqlar, daraxt shoxlari, barglar, turli matolar) taqdim etiladi. Hujjatlashtirish: Tarbiyachilar bolalarning ijodiy jarayonlarini, gapirgan qiziqarli gaplarini suratga olib, devorlarga panel ko‘rinishida osib boradilar. Bu bolaga o‘z rivojlanish trayektoriyasini ko‘rishga, ota-onalarga esa bolasining ichki dunyosini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Loyiha asosida o‘qitish: Mavzular tarbiyachi tomonidan majburiy tiqishtirilmaydi, balki bolalarning o‘zlari qiziqqan savollar va subyektlardan kelib chiqib, haftalab yoki oylab davom etadigan loyihalar shaklida o‘rganiladi.

4K, STEAM va Reggio Emilia yondashuvlarining integratsiyalashuv mexanizmi. Ushbu uchta tizim bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldiradi va har tomonlama mukammal pedagogik modelni hosil qiladi. Ularning integratsiyasini amaliy zanjir ko‘rinishida tasvirlash mumkin: Reggio Emilia loyiha uchun erkin, tabiiy va ilhomlantiruvchi muhit hamda mavzuni (bolaning qiziqishini) ta’minlab beradi. STEAM – ushbu loyihani amalga oshirish uchun fanlararo (tadqiqotchi va muhandislik) vositalarni hamda metodologiyani taqdim etadi. 4K modeli – loyihani bajarish jarayonida bolalarda shakllanadigan va amaliyotda charxlanadigan yakuniy hayotiy ko‘nikmalarni belgilaydi. Amaliy misol: Tarbiyalanuvchilar sayr paytida qushlarning uyasiga qiziqib qolishdi (Reggio Emilia tamoyili - boladan boshlanadigan qiziqish). Tahlil darsi (STEAM): Bolalar qush uyasining tuzilishini, qanday materiallardan (g‘ovaklar, loy, barglar) tayyorlanishini o‘rganishadi. Uyaning o‘lchamlarini, chuqurligini o‘lchashadi.

Loyiha faoliyati (4K & STEAM): Bolalar jamoaga bo‘linadilar (Kollaboratsiya). Har bir jamoa qushlar uchun sun’iy uya (inkubator yoki in) loyihasini chizadi. Ular bir-biri bilan qaysi material yaxshiroq ekanini muhokama qiladilar. Yakunda esa san’at vositalari bilan uyani bezatadilar.

Ushbu amaliy faoliyat jarayonida bola shunchaki qushlar haqida ma’lumot olib qolmay, balki hayotiy muammolarni hal qilish tizimini amalda boshdan kechiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim jarayoniga 4K modeli, STEAM texnologiyasi va Reggio Emilia yondashuvini integratsiyalashgan holda tatbiq etish bugungi kun talabidir. Ushbu metodologiya bolalarni maktabga va umuman kelajak hayotiga tayyorlashda faqatgina intellektual emas, balki ijodiy, ijtimoiy va hissiy poydevor yaratadi. Mazkur yondashuv asosida tarbiya topgan

bolalar kelajakda har qanday murakkab vaziyatda ham mustaqil, kreativ va tizimli qarorlar qabul qila oladigan innovatson fikrlovchi shaxslar bo‘lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, “Iste’dod”, 2015.
2. Mirziyoyeva Sh.Sh. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning pedagogik asoslari. Monografiya. - Toshkent, 2021.
3. Sharipov Sh.S. STEAM ta’limi asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020.
4. Edwards C., Gandini L., Forman G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation. - Praeger, 2012.
5. Yakubova M.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda 4K kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik xususiyatlari. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy jurnali. - Buxoro, 2023.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA EVRISTIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONINING INNOVATSION SHAKLLARI

Z.O.Choriyeva
BuxDPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Evristik texnologiyalar aynan shu jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular bolaga bilimni tayyor holda berishdan ko‘ra, uni mustaqil kashf etuvchi subyekt sifatida shakllantirishga asoslanadi.Maqolada shu haqda ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, intellektual, ma’lim, bola, tadqiqiy bilish, Reggio Emilia, rivojlantiruvchi muhit, shakllantirish.*

Аннотация: *В статье рассматривается развитие эвристических технологий, ориентированных на то, чтобы ребенок выступал в роли самостоятельного субъекта познания, а не просто получал готовые знания.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, образование, ребенок, исследовательский подход, Реджо-Эмилия, интеллектуально стимулирующая среда, окружающий мир.*

Abstract: Heuristic technologies are specifically aimed at fostering these processes; rather than simply delivering knowledge to the child in a ready-made form, they are based on shaping the child into an independent discoverer. This article discusses these concepts.

Keywords: *preschool education, intellectual, education, child, exploratory learning, Reggio Emilia, developmental environment, shaping.*

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Chunki bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirishda, ya’ni intellektual anglash malakalarini rivojlantirish, elementar ilmiy malakalarni shakllantirish, tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatni kuchaytirishda ishtirok etuvchi barcha psixik jarayonlar idrok, tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur va nutq kabilar bolaning kognitiv rivojlanishiga uyg‘un birlikda amalga oshadi.

Evristik texnologiyalar aynan shu jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular bolaga bilimni tayyor holda berishdan ko‘ra, uni mustaqil kashf etuvchi subyekt sifatida shakllantirishga asoslanadi. Evristik jarayonda yaratiladigan turli vaziyatlar bolada yuzaga keladigan savollar, mustaqil izlanish va tajribaning qo‘llab-

quvvatlanishi, refleksiyaga qaratiladigan asosiy urg‘u bu texnologiyalarning mazmunini o‘zida aks ettiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimidagi asosiy pedagogik faoliyat bolalarning ong va dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi zarur. Shu bois ham evristik texnologiyalarni qo‘llash bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu maqsadda mamlakatimiz ta’lim tizimida xorijiy tajribalar integratsiyasi kuchaytirilmoqda.

Ta’lim olamida ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos falsafa va metodologiyaga ega. Eng ilhomlantiruvchilaridan biri Reggio Emilia pedagogikasidir. Ikkinchi Jahon urushidan keyin kichik Italiya shaharchasida paydo bo‘lgan bu usul bolalarni o‘qitish va tarbiyalash usulini o‘zgartirib, demokratik va gumanistik ta’limning ramziga aylandi.

Reggio Emilia pedagogikasi XX asrning ikkinchi yarmida Italiyada shakllangan innovatsion ta’lim tizimi bo‘lib, uning asoschisi Loris Malaguzzi hisoblanadi. Ushbu yondashuv quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi**.** Birinchidan, bola faol bilish subyekti hisoblanadi. Ta’lim jarayoni esa hamkorlik va muloqotga asoslanadi. Yondashuvda muhit “uchinchi o‘qituvchi” sifatida qaraladi. Bolalar o‘z fikrlarini turli vositalar orqali ifodalaydi (“yuz (100) til” konsepsiyasi).

Ikkinchi Jahon urushidan keyin Italiyaning Reggio Emiliya shahri aholisi yangi ta’lim tizimini yaratish uchun birlashdilar. Ushbu harakatning ilhomi va rahbari italiyalik o‘qituvchi va psixolog Loris Malaguzzi edi. Ta’lim sohasida bitirgan Malaguzzi urush paytida maktablarda dars berdi va ko‘p yillar davomida nogiron bolalarga yordam berdi.

Malaguzzi o‘zining yangi falsafasini rivojlantirishda Mariya Montessori, Lev Vigotskiy va Jan Piaje g‘oyalaridan ilhomlangan. Malaguzzi va uning hamkasblari har bir bolaning ijtimoiy mavqei yoki nogironligidan qat’i nazar, ta’lim va tarbiya olishning so‘zsiz huquqiga ishonishgan. Loris Reggio Emiliya aholisi bilan birgalikda ta’limga demokratik yondashuvni o‘zida mujassam etgan bolalar bog‘chalariga asos solgan va maktabgacha ta’limga yangi yondashuv - Reggio pedagogikasini ishlab chiqqan.

Bir necha o‘n yillar o‘tgach, 1991-yilda Newsweek Reggio Emilia yondashuvini dunyodagi eng yaxshi deb atadi. Ushbu maqola maktabgacha ta’lim muassasalariga tarqaldi va Qo‘shma Shtatlar bo‘ylab pedagoglarning qiziqishini uyg‘otdi. Shu bilan birga, Reggio Emilia pedagogikasining vatani bo‘lgan joyda Reggio Bolalar Jamg‘armasi va Loris Malaguzzi Xalqaro Markazi tashkil etildi.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab minglab bolalar bog‘chalari Reggio Emilia yondashuvidan foydalanadilar, uning falsafasini o‘z ehtiyojlariga moslashtiradilar va amalga oshiradilar.

Mazkur pedagogika evristik texnologiyalar bilan bevosita uyg‘unlashadi. Chunki bu yondashuvda bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki bolalar tomonidan mustaqil ravishda ochiladi, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

Reggio Emilia pedagogikasida evristik texnologiyalarning innovatsion shakllari quyidagilardan iborat.

Loyihaviy-tadqiqot faoliyati. Reggio Emilia tizimida ta’lim jarayoni ko‘pincha loyihalar asosida tashkil etiladi. Bu loyihalar bolalarning qiziqishlariga asoslanadi va uzoq muddat davom etishi mumkin.

Evristik jihatdan bu loyihalar muammo qo‘yish, taxmin (gipoteza) ilgari surish, tajriba o‘tkazish, natijani tahlil qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, Suv atelyesida “Suv nima uchun oqadi?” mavzusida bolalar tajriba o‘tkazib, sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglaydilar.

“Bolaning yuz (100) tili” konsepsiyasi asosida tafakkurni rivojlantirish. Reggio Emilia yondashuvida bola o‘z fikrini faqat nutq orqali emas, balki rasm, qurish, harakat, musiqa va boshqa vositalar orqali ifodalaydi. Bu bolaning kreativ tafakkurni rivojlantiradi. Muammoga turli nuqtai nazardan qarashni o‘rgatadi va bilish jarayonini chuqurlashtiradi.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish. Reggio Emilia pedagogikasida muhit “uchinchi o‘qituvchi” sifatida muhim rol o‘ynaydi. Muhit shunday tashkil etiladiki, u bolani izlanishga undaydi. Evristik nuqtai nazardan bu mustaqil tajriba faoliyatini kuchaytiradi. Predmetlar orqali o‘rganishni ta’minlaydi. Bolada qiziqish va motivatsiyani oshiradi.

Reggio Emilia pedagogikasida **atelyelar (atelier)** bolalarning ijodiy, kognitiv va kommunikativ rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi markaziy muhit hisoblanadi. Bu yondashuvda bola “100 tilga ega shaxs” sifatida qaraladi, ya’ni u fikrini nafaqat so‘z bilan, balki rasm, harakat, konstruktsiya, ovoz va boshqa shakllar orqali ham ifoda etadi. Shu bois atelyelar – bu oddiy ijodiy burchak emas, balki tadqiqot, tajriba va o‘zini ifoda etish makonidir.

Maktabgacha ta’lim tizimida atelyelarni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning, xususan, Reggio Emilia yondashuvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Atelye – bu nafaqat ijodiy faoliyat olib boriladigan makon, balki bolaning bilish jarayonlari, estetik didi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi ko‘p funksiyali pedagogik muhitdir. Shu nuqtai nazardan, atelye tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1.“Ilk qadam” milliy davlat o‘quv dasturi. 2026-yil
2.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoyiladigan Davlat talablari

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

N. Rahimberdiyeva
BuxDPI maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari, mazmuni va metodik xususiyatlari yoritilgan. Bolalarning jismoniy rivojlanishida harakatli o'yinlar, jismoniy mashqlar, ertalabki badantarbiya, sayr va sport elementlaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, harakat faolligi, jismoniy sifatlar, harakatli o'yinlar, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, sog'lom turmush tarzi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогические основы, содержание и методические особенности развития физических качеств у детей дошкольного возраста. Анализируется важность использования активных игр, физических упражнений, утренней физической культуры, прогулок и спортивных элементов в физическом развитии детей.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, физическая культура, физическое развитие, двигательная активность, физические качества, активные игры, ловкость, скорость, выносливость, здоровый образ жизни.*

Abstract: *This article examines the pedagogical foundations, content, and methodological aspects of developing physical skills in preschool-aged children. It analyzes the importance of active play, exercise, morning physical education, walks, and sports activities in children's physical development.*

Keywords: *preschool education, physical education, physical development, motor activity, physical skills, active play, agility, speed, endurance, healthy lifestyle.*

Jismoniy tarbiya bolalarning salomatligini mustahkamlash, harakat faoliyatini rivojlantirish, organizmning funksional imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash va jismoniy mashqlarni bajarishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Muntazam tashkil etilgan harakatli faoliyat bolalarning yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, muvozanatni saqlash va harakatlarni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tarbiya faqat muayyan mashqlarni bajarish bilan cheklanmaydi. U bolalarda intizom, qat'iyatlilik, mustaqillik, hamkorlik va qoidalarga rioya qilish kabi ijtimoiy sifatlarni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, harakatli o'yinlar bolalarning tabiiy harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, ularning hissiy holati va jamoada faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mavzuning dolzarbligi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy faollikni oshirish,

jismoniy sifatlarni izchil rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirish zarurati bilan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya masalalari pedagogika, fiziologiya, psixologiya va jismoniy madaniyat nazariyasida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarda bolaning harakat faoliyati uning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, bilish jarayonlari va ijtimoiy tajribasining shakllanishi bilan ham bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasida jismoniy sifatlar insonning harakat faoliyatini samarali amalga oshirishiga yordam beradigan xususiyatlar sifatida izohlanadi. Ularga kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik kiritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu sifatlarni rivojlantirishda yoshga mos mashqlar, harakatli o‘yinlar va turli jismoniy faoliyatlardan foydalanish muhimdir.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarga haddan tashqari katta jismoniy yuklama berish o‘rniga, mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, dam olish oralig‘ini ta’minlash va faoliyatni qiziqarli shaklda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining besh yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun jismoniy faollik, kamharakatlik va uyqu bo‘yicha tavsiyalarida harakatning bolaning sog‘lom rivojlanishidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Tavsiyalarda yoshga mos jismoniy faollik, yetarli uyqu va uzoq vaqt harakatsiz qolishni cheklash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim sohasida qo‘llaniladigan “Ilk qadam” milliy dasturida bolalarning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim rivojlanish yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Dastur mazmuni jismoniy faollikni kundalik rejim, o‘yinlar, sayrlar va maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish uzluksiz, izchil va bolaga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lishi lozim. Bunda jismoniy mashqlarning mazmuni, bajarilish sur’ati, yuklama darajasi va xavfsizlik shartlari bolaning yoshi hamda individual imkoniyatlariga moslashtirilishi kerak.

Metodik yondashuvda bolalarning yoshi, sog‘lig‘i, jismoniy tayyorgarligi va individual ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Mashg‘ulotlar davomida xavfsiz muhit yaratish, jihozlarning sozligini tekshirish, bolalarga tushunarli ko‘rsatmalar berish va zarur hollarda dam olish uchun imkoniyat yaratish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish ularning kundalik harakat faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi. Har bir jismoniy sifat

o‘ziga xos mashqlar va metodik yondashuvlarni talab qiladi. Tezkorlik harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarish qobiliyatidir. Uni rivojlantirishda qisqa masofaga yugurish, signal bo‘yicha harakatni boshlash, “Kim tez topadi?” va “Belgilangan joyga yetib bor” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. Mashqlar bolalarning yoshiga mos, qisqa davomiylikda va xavfsiz masofada tashkil etilishi lozim.

Chaqqonlik harakatlarni tez va aniq muvofiqlashtirish, o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish qobiliyatidir. To‘siqlar orasidan yurish, belgilangan yo‘nalishda harakatlanish, koptok bilan o‘ynash va yo‘nalishni o‘zgartirishga oid mashqlar chaqqonlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Kuch mushaklarning qarshilikni yengish yoki unga qarshi harakat qilish imkoniyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuchni rivojlantirish tabiiy harakatlar, o‘z tana vaznidan foydalaniladigan yengil mashqlar, emaklash, tirmashish va xavfsiz buyumlarni ko‘tarib-ko‘chirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu davrda og‘ir yuklamalar va bolalarning imkoniyatidan tashqari mashqlardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Chidamlilik jismoniy faoliyatni muayyan vaqt davomida davom ettira olish qobiliyatidir. Uni rivojlantirishda ochiq havodagi harakatli o‘yinlar, sayrlar, yoshga mos harakatlar ketma-ketligi va faol dam olishdan foydalanish mumkin. Yuklama asta-sekin oshirilib, bolaning holati muntazam kuzatilishi zarur.

Egiluvchanlik bo‘g‘imlar harakatchanligi va mushaklarning cho‘zilish imkoniyati bilan bog‘liq. Qo‘llarni yuqoriga ko‘tarish, gavdani yengil egish, yon tomonlarga burilish va boshqa umumrivojlantiruvchi mashqlar egiluvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashqlar keskin harakatlarsiz, og‘riq keltirib chiqarmaydigan tarzda bajarilishi kerak.

Mazkur jismoniy sifatlar alohida mashqlar orqali rivojlantirilishi mumkin bo‘lsa-da, amaliyotda ular ko‘pincha o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Masalan, to‘siqlar orasidan yugurib o‘tish tezkorlik, chaqqonlik va harakatlarni muvofiqlashtirishni birgalikda talab qiladi.

Harakatli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy faollikni tashkil etishning qiziqarli va samarali vositalaridan biridir. O‘yin jarayonida bola harakatlarni bajarish bilan birga, qoidalarga rioya qilish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va topshiriqlarni tushunish ko‘nikmalarini ham egallaydi. Masalan, “Quyonlar va bo‘ri” o‘yinida bolalar belgilangan hudud ichida sakrash, yugurish va signalga mos ravishda harakatlanishni bajaradilar. Ushbu o‘yin tezkorlik, chaqqonlik va harakatga javob qaytarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. “Rangli bayroqchalar” o‘yinida tarbiyachi muayyan rangni aytadi, bolalar esa shu rangdagi bayroqcha tomon harakatlanadilar. O‘yin bolalarning tezkor harakatlanishi, diqqatini jamlashi va ko‘rsatmalarni bajarishiga ko‘maklashadi.

“Koptokni uzat” o‘yinida bolalar doira bo‘lib turib, koptokni bir-birlariga uzatadilar. Bu faoliyat qo‘l harakatlarini muvofiqlashtirish, harakat aniqligi va jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi.

O‘yinlarni tashkil etishda tarbiyachi ularning maqsadini oldindan belgilashi, qoidalarni tushunarli bayon qilishi va barcha bolalarning faol ishtirok etishiga sharoit yaratishi lozim. O‘yin jarayonida g‘oliblikdan ko‘ra, harakatlarni to‘g‘ri bajarish, o‘zaro yordam va faol qatnashish rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya metodikasining samaradorligi mashqlarning ko‘pligiga emas, balki ularning maqsadga muvofiqligi, izchilligi, xavfsizligi va bolalarning individual imkoniyatlariga mosligiga bog‘liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish ularning sog‘lom o‘sishi, harakat ko‘nikmalarining takomillashuvi va jismoniy faollikka ijobiy munosabatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya jarayonini maqsadli tashkil etish bolalarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini yosh xususiyatlariga mos ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyani ilmiy asoslangan, izchil va bolaga yo‘naltirilgan metodlar asosida tashkil etish sog‘lom avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Jismoniy mashqlarni o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtirish bolalarning harakatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va jismoniy rivojlanish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ-595, 2019-yil 16-dekabr.
2. Ilk va makltabgacha yoshdagi bola rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. - Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” milliy dasturi. - Toshkent, 2026.
4. K.Mahkamdjanov, R.Salamov, I.Ikramov. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. 2018.

BOLALARDA DIALOGIK VA MONOLOGIK NUTQNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

M.Q. Avezmurodova
BuxDPI maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik va monologik nutqni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari, mazmuni va metodik xususiyatlari yoritilgan. Bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda suhbat, didaktik va rolli o‘yinlar, hikoya tuzish, rasmlar*

asosida bayon qilish, badiiy adabiyot namunalari bilan ishlash hamda muammoli vaziyatlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, nutq o‘stirish, dialogik nutq, monologik nutq, kommunikativ kompetensiya, bog‘lanishli nutq, didaktik o‘yin, hikoya tuzish, tarbiyachi, nutqiy rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы, содержание и методические особенности формирования диалогической и монологической речи у детей дошкольного возраста. Анализируются возможности использования беседы, дидактических и ролевых игр, рассказывания историй, повествования на основе картинок, работы с примерами художественной литературы и проблемных ситуаций в развитии устной речи детей.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, развитие речи, диалогическая речь, монологическая речь, коммуникативная компетентность, связная речь, дидактическая игра, рассказывание историй, педагог, развитие речи.*

Abstract: *This article examines the pedagogical and psychological foundations, content, and methodological features of developing dialogic and monologue speech in preschool children. It analyzes the potential of using conversation, didactic and role-playing games, storytelling, picture-based narratives, and working with examples of fiction and problematic situations in developing children’s oral speech.*

Keywords: *preschool education, speech development, dialogic speech, monologue speech, communicative competence, coherent speech, didactic play, storytelling, teacher, speech development.*

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy-hissiy va nutqiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning atrof-muhitni anglash, o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish ko‘nikmalari shakllanib boradi. Nutq bolaning fikrlashi, bilish faoliyati va ijtimoiy munosabatlarining rivojlanishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq o‘stirish ishlarini samarali tashkil etish bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarligini ta’minlash bilan ham chambarchas bog‘liq. Bola maktabga kelguniga qadar o‘z fikrini tushunarli ifodalash, savollarga mazmunli javob berish, suhbatda ishtirok etish, eshitgan yoki ko‘rgan voqeasini izchil bayon qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Nutqni rivojlantirish jarayonida dialogik va monologik nutq alohida ahamiyatga ega. Dialogik nutq ikki yoki undan ortiq suhbatdosh o‘rtasidagi muloqot orqali namoyon bo‘lsa, monologik nutq bir shaxsning muayyan mavzu yuzasidan izchil, mazmunli va nisbatan mustaqil bayonidir. Har ikkala nutq shakli bolaning lug‘at boyligi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishi, fikrlar izchilligini saqlashi va kommunikativ faolligi bilan bevosita bog‘liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim o‘rin egallaydi. L.S.Vigotskiyning psixologik qarashlarida nutq va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit hamda kattalar bilan muloqotning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Ushbu qarashlar asosida nutqni rivojlantirish faqat so‘zlarni o‘rgatish bilan cheklanmasdan, bolaning fikrlashi va ijtimoiy tajribasini boyitishga xizmat qilishi zarurligini anglash mumkin.

Maktabgacha ta’lim metodikasida dialogik nutqni rivojlantirish suhbat, savol-javob, kundalik muloqot va rolli o‘yinlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Monologik nutqni shakllantirishda esa hikoya tuzish, qayta hikoyalash, rasmlar asosida voqealarni bayon etish va shaxsiy taassurotlarni ifodalash usullari muhim hisoblanadi. Bu metodlar bolalarning mustaqil nutqiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalashiga yordam beradi.

N. Erxonova va Z. Ro‘ziyevaning “Tarbiyachi kitobi. Nutq o‘stirish” nomli qo‘llanmasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirishga doir metodik materiallar berilgan. Mazkur manba tarbiyachining kundalik ta’limiy faoliyatini rejalashtirish va nutq o‘stirish ishlarini izchil tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llaniladigan “Ilk qadam” milliy dasturida bolaning rivojlanish sohalari, jumladan, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Dastur mazmunidan kelib chiqib, nutqiy rivojlanishni kundalik faoliyat, o‘yin, badiiy adabiyot, kuzatish va o‘zaro muloqot bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalar nutqini rivojlantirishda ijtimoiy muloqot, mazmunli nutqiy vaziyatlar, o‘yin faoliyati va bolaning mustaqil bayoniga imkon berish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli dialogik va monologik nutqni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Maqolani tayyorlashda pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyoslash, metodik yondashuvlarni umumlashtirish hamda maktabgacha ta’lim amaliyotiga mos tavsiyalarni ishlab chiqish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodik asosini bolaga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatga asoslangan yondashuv, o‘yin orqali o‘rganish va nutqiy muloqotni rag‘batlantirish tamoyillari tashkil etadi.

Dialogik va monologik nutqni shakllantirish metodikasi quyidagi yo‘nalishlar asosida ko‘rib chiqildi:

- dialogik nutqni rivojlantirish: savol-javob, suhbat, juftlik va kichik guruhlarda muloqot, rolli o‘yinlar.
- monologik nutqni rivojlantirish: rasmlar asosida hikoya tuzish, qayta hikoyalash, kuzatish natijalarini bayon qilish va mustaqil hikoya yaratish.
- lug‘at va grammatik qurilishni rivojlantirish: yangi so‘zlarni mazmunli vaziyatlarda qo‘llash, gaplarni to‘g‘ri tuzish va fikrni aniqlashtirish.
- nutqiy faollikni baholash: bolaning suhbatda ishtiroki, savolga mos javobi, fikrlar izchilligi, so‘zlardan foydalanishi va mustaqil bayon qilish darajasini kuzatish.

Metodik yondashuvda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari, nutqiy rivojlanish darajasi va qiziqishlarini hisobga olish muhimdir. Mashg‘ulotlarda barcha bolalarga bir xil talab qo‘yish o‘rniga, ularning imkoniyatlariga mos savollar, ko‘rgazmali vositalar va topshiriqlar tanlanishi lozim.

Dialogik nutq bolaning suhbatdoshini tinglashi, uning fikrini tushunishi, savol berishi, javob qaytarishi va suhbat mazmuniga mos ravishda o‘z fikrini ifodalashini nazarda tutadi. Dialog jarayonida bola nafaqat so‘z va gaplardan foydalanishni, balki muloqot qoidalariga rioya qilishni, suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ham o‘rganadi.

Dialogik nutqni rivojlantirishda turli metodlardan foydalanish mumkin.

Tarbiyachi bolalarga kundalik hayot, oila, tabiat, kasblar, transport va bayramlar kabi mavzularda savollar beradi. Masalan, “Kuz faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?”, “Siz kuzda qanday mevalarni iste’mol qilasiz?” kabi savollar bolalarni o‘z tajribalariga tayanib fikr bildirishga undaydi. Savollar bolaning yoshiga mos, tushunarli va ochiq javob berishga imkon yaratadigan shaklda tuzilishi lozim.

“Kim nima qiladi?”, “Kasbni top”, “Nima uchun?”, “Davom ettir” kabi o‘yinlar bolalarning so‘z boyligini kengaytirish, savol-javob ko‘nikmalarini mustahkamlash va muloqotga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, “Kasbni top” o‘yinida bir bola muayyan kasb egasining faoliyatini tasvirlaydi, ikkinchi bola esa kasbni topib, o‘z javobini izohlaydi.

“Do‘kon”, “Shifoxona”, “Mehmon kutish”, “Oilamiz” kabi o‘yinlarda bolalar turli ijtimoiy rollarni bajaradilar. Bunda ular salomlashish, iltimos qilish, savol berish, minnatdorlik bildirish va xayrlashish kabi nutqiy muomala shakllarini amalda o‘zlashtiradilar.

Tarbiyachi bolalar oldiga fikrlash va muloqot qilishni talab etadigan vaziyatlarni qo‘yadi. Masalan: “Agar guruhingizdagi do‘stingiz o‘yinchoqni topa olmasa, unga qanday yordam berasiz?” Ushbu savol bolani vaziyatni tushunish, fikr bildirish va o‘z taklifini asoslashga yo‘naltiradi.

Dialogik nutqni shakllantirishda tarbiyachining savollarni ketma-ket berishi bilan cheklanib qolmasligi muhim. Bolaning javobiga munosabat bildirish, aniqlashtiruvchi savol berish va suhbatni davom ettirish uchun imkon yaratish lozim. Tarbiyachi bolaning javobini darhol to‘g‘rilashga shoshilmasdan, to‘g‘ri nutq namunasini tabiiy ravishda ko‘rsatishi mumkin.

Monologik nutq bolaning biror mavzu yoki voqea haqida mustaqil, izchil va mazmunli bayon qilishi bilan tavsiflanadi. Bunda bola fikrlarini muayyan ketma-ketlikda ifodalashi, gaplar o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlikni saqlashi va tinglovchiga tushunarli tarzda hikoya qilishi zarur.

Monologik nutqni rivojlantirishda ham bir nechta metodlar samarali hisoblanadi.

Rasmlar asosida hikoya tuzish. Bolalarga bitta rasm yoki voqealar ketma-ketligi aks etgan rasmlar taqdim etiladi. Dastlab tarbiyachi rasmda kimlar tasvirlanganini, ular nima qilayotganini va voqea qayerda sodir bo‘layotganini aniqlashtiradi. Keyinchalik bolalar rasmlarga tayangan holda mustaqil hikoya tuzadilar. Bu usul kuzatuvchanlik, so‘z boyligi va voqealarni izchil bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qayta hikoyalash. Tarbiyachi bolalarga yoshiga mos ertak yoki hikoyani ifodali o‘qib yoki aytib beradi. Dastlab asarning asosiy mazmuni, qahramonlari va voqealar ketma-ketligi muhokama qilinadi. So‘ng bolalar eshitganlarini o‘z so‘zlari bilan qayta bayon qiladilar. Zarur hollarda tayanch rasmlar, savollar va kalit so‘zlardan foydalaniladi.

Kuzatish asosida hikoya qilish. Sayr, tabiat burchagi yoki guruhdagi amaliy faoliyat davomida bolalar muayyan hodisalarni kuzatadilar. Masalan, o‘simlikning o‘sishi, qushlarning harakati yoki ob-havodagi o‘zgarishlar haqida keyinchalik hikoya tuzadilar. Bunda bola bevosita kuzatgan voqealarini so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi.

Ijodiy hikoya tuzish. Bolalarga “Agar men sehrli bog‘ga borsam...”, “Yo‘qolgan o‘yinchoqning sarguzashtlari” kabi mavzular taklif qilinadi. Bola o‘z tasavvuriga asoslanib voqea yaratadi. Ushbu metod ijodiy fikrlash, mustaqil bayon va obrazli ifodalash qobiliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Monologik nutqni rivojlantirishda hikoyaning boshlanishi, asosiy qismi va yakuniga e’tibor qaratish kerak. Tarbiyachi bolalarga “Avval nima bo‘ldi?”, “Keyin qanday voqea yuz berdi?”, “Hikoya qanday yakunlandi?” kabi tayanch savollar orqali voqealar izchilligini anglashga yordam beradi.

Dialogik va monologik nutq turli shakllarda namoyon bo‘lsa-da, ular bir-birini to‘ldiradi. Dialog jarayonida bola yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, fikrini aniqlashtiradi va boshqalarning bayonini tinglaydi. Ushbu tajriba keyinchalik mustaqil hikoya tuzish va voqealarni izchil bayon qilish uchun zamin yaratadi. Aksincha, monologik nutqni rivojlantirish jarayonida shakllangan lug‘at boyligi va grammatik ko‘nikmalar suhbatda erkinroq ishtirok etishga yordam beradi.

Masalan, “Kuzgi sayr” mavzusidagi mashg‘ulotni uch bosqichda tashkil etish mumkin. Birinchi bosqichda bolalar kuz fasli haqida savol-javob orqali suhbatlashadilar. Ikkinchi bosqichda kuzgi tabiat tasvirlangan rasmlar asosida kichik hikoya tuzadilar. Uchinchi bosqichda bolalar o‘z hikoyalarini tengdoshlariga aytib berib, bir-birlariga savollar beradilar. Shu tariqa bir mashg‘ulotning o‘zida dialogik va monologik nutq o‘zaro uyg‘un rivojlantiriladi.

Bundan tashqari, 2022-yilda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri e’lon qilingan.Bu jarayon maktabgacha ta’lim mazmunini zamonaviy pedagogik talablar asosida qayta ko‘rib chiqish uchun muhim metodik zamin yaratadi.

Shu sababli maktabgacha ta’limni transformatsiyalash masalasini faqat texnik yoki tashkiliy yangilanish sifatida emas, metodologik va pedagogik tizimning yangilanishi sifatida tadqiq etish dolzarbdir.

Asosiy qism. Maktabgacha ta’lim jarayonini transformatsiyalash, avvalo, ta’lim mazmunini bolaning tayyor bilimni qabul qilishi asosidan faol izlanishi, kuzatishi, savol berishi, tajriba o‘tkazishi, fikrini ifodalashi va mustaqil xulosa chiqarishi asosiga o‘tkazishni anglatadi. Bunday yondashuvda pedagogning asosiy

vazifasi faqat ma’lumot berish bilan cheklanmaydi, balki bolaning faoliyatini tashkil etish, uning tashabbusini qo‘llab-quvvatlash va rivojlanish jarayonini pedagogik jihatdan yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. 2022-yilgi takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ham bola shaxsiga yo‘naltirilganlik, bolaning fikrini tinglash, uning ta’lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirish, loyiha faoliyatida bolalar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash hamda individual va kichik guruhlarda ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan.

Transformatsiyaning muhim jihatlaridan biri ta’lim jarayonini integratsiyalashdir. Maktabgacha yoshdagi bola atrof-muhitni alohida fanlar orqali emas, balki o‘zaro bog‘liq hodisalar sifatida idrok etadi. Shu sababli matematika, nutq rivojlantirish, tabiat bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat, konstruksiyalash, musiqa va harakatli faoliyatni yagona mazmuniy vazifa atrofida birlashtirish bolaning bilimlarni real faoliyatda qo‘llashiga imkon beradi. Masalan, “Suvning xususiyatlari” mavzusida bolalar suvni kuzatishi, uning shakli va hajmini taqqoslashi, suv haqida gapirib berishi, oddiy tajribada qaysi predmet cho‘kishi yoki suzishini aniqlashi, kuzatuv natijasini rasm orqali ifodalashi mumkin. Bunda bitta mavzu doirasida tabiiy-ilmiy kuzatuv, matematik tasavvur, nutqiy faoliyat, ijodkorlik va ijtimoiy hamkorlik birlashadi.

Innovatsion pedagogik yondashuvning yana bir muhim jihati faoliyatga asoslangan ta’limni kuchaytirishdir. Bola bilimni faqat tinglash orqali emas, balki faol harakat qilish jarayonida o‘zlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan kuzatish, tajriba, modellashtirish, konstruksiyalash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va kichik loyihalar maktabgacha ta’limning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kengaytiradi. “Ilk qadam” dasturida ham bolalarning individual va kichik guruhlarda faoliyat yuritishi, rivojlanish markazini tanlashi hamda pedagog bilan hamkorlikda ta’lim faoliyatini rejalashtirishga e’tibor qaratilgan.

Transformatsiya jarayonida rivojlantiruvchi muhit alohida metodologik ahamiyatga ega. Rivojlantiruvchi muhit bolaning mustaqil tanlov qilishi, turli materiallardan foydalanishi, tengdoshlari bilan hamkorlik qilishi va o‘z g‘oyalarini amaliy faoliyatda sinab ko‘rishi uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shu sababli rivojlanish markazlarini faqat jihozlar joylashtiriladigan xona sifatida emas, balki bolaning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etuvchi pedagogik muhit sifatida qarash zarur. O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim davlat standartida ham davlat o‘quv dasturi bilan bir qatorda MTTlarni o‘yinlar, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa vositalar bilan ta’minlash me’yorlari davlat standartining tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilangan.

Innovatsion yondashuvlarning muhim yo‘nalishlaridan biri loyiha faoliyatidir. Maktabgacha ta’limda loyiha faoliyati murakkab ilmiy loyiha shaklida emas, balki

bolalarning yosh imkoniyatlariga mos kichik izlanish va ijodiy faoliyat sifatida tashkil etiladi. Masalan, “Bizning bog‘imiz”, “Urug‘dan o‘simlikkacha”, “Suvni asraymiz”, “Kasblar olami”, “Mening shahrim” kabi mavzularda bolalar kuzatish olib borishi, rasmlar yig‘ishi, savollar tuzishi, oddiy tajribalar o‘tkazishi, maket yoki ijodiy mahsulot yaratishi mumkin. Bunday jarayonda yakuniy mahsulotdan ko‘ra bolaning savol berishi, fikr bildirishi, guruhda ishlashi, muammoni tushunishi va faoliyat davomida yangi xulosaga kelishi pedagogik jihatdan muhim hisoblanadi.

Muammoli ta’lim elementlaridan foydalanish ham transformatsiyaning muhim mexanizmlaridan biridir. Pedagog bolaga tayyor javobni bermasdan, uni fikrlashga undaydigan vaziyat yaratadi. “Nima uchun muz eriydi?”, “Nima uchun ayrim buyumlar suvda suzadi?”, “O‘simlikka suv berilmasa nima bo‘ladi?”, “Qanday qilib kubiklardan balandroq minora qurish mumkin?” kabi savollar bolani sabab-oqibat munosabatlarini izlashga yo‘naltiradi. Bunday savollar bolaning tabiiy qiziquvchanligini pedagogik faoliyatga aylantirish imkonini beradi.

Tadqiqotchilikka asoslangan yondashuv ham maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogikaning muhim tarkibiy qismidir. Bunda bola kichik tadqiqotchi sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayoni kuzatish, savol qo‘yish, taxmin qilish, tajriba o‘tkazish, natijani kuzatish va sodda xulosa chiqarish bosqichlarida tashkil qilinishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilmiy tafakkurning boshlang‘ich elementlari aynan shunday amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Bunda tajriba murakkab laboratoriya faoliyati emas, balki bolaning kundalik hayoti va atrof-muhitni o‘rganishiga mos sodda, xavfsiz va pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lishi kerak.

STEAM yondashuvi ham maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalash uchun qo‘llanishi mumkin. Uning mazmuni fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika elementlarini o‘zaro bog‘lashga asoslanadi. Maktabgacha yoshda STEAM alohida fan sifatida emas, balki integratsiyalashgan faoliyatni tashkil etish usuli sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarga “qog‘ozdan ko‘prik qurish” topshirig‘i berilganda ular materialni tanlaydi, konstruksiya yaratadi, uning mustahkamligini tekshiradi, predmetlarni sanaydi va o‘z ishini tasviriy vositalar orqali bezatadi. Shu tarzda muhandislik fikrlashi, matematik tasavvur, ijodkorlik va muammoli vaziyatni hal qilish ko‘nikmalari birgalikda rivojlanadi.

Transformatsiyaning yana bir muhim jihati pedagog rolini o‘zgartirishdir. An’anaviy modelda pedagog ko‘proq axborot beruvchi va faoliyatni boshqaruvchi sifatida namoyon bo‘lsa, zamonaviy pedagogik modelda u tashkilotchi, kuzatuvchi, fasilitator va bolaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. “Ilk qadam” dasturining takomillashtirilgan nashrida ham

pedagog va bola o‘rtasidagi hamkorlik, bolaning “ovozi”ni eshitish, uning fikrini hurmat qilish va ta’lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirishga alohida e’tibor berilgan.

“Ilk qadam” dasturida bolalarning rivojlanish markazini tanlashi va individual yoki kichik guruhlarda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish aynan shu yo‘nalish bilan bog‘langan. Innovatsion pedagogik yondashuvlar baholash mazmunining o‘zgarishini ham talab qiladi. Maktabgacha ta’limda baholashning asosiy maqsadi bolalarni bir-biri bilan taqqoslash emas, balki bolaning individual rivojlanish dinamikasini aniqlash va keyingi pedagogik faoliyatni rejalashtirishdir. Shu sababli pedagogning kundalik kuzatuvlari, bolaning faoliyat mahsulotlari, suhbatlari, amaliy topshiriqlarni bajarishi va rivojlanishidagi o‘zgarishlar muhim pedagogik ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Davlat standarti va “Ilk qadam” dasturining mazmuni ham ta’lim-tarbiya jarayonini bolaning rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik ham transformatsiyalashgan maktabgacha ta’limning muhim komponentidir. Zamonaviy yondashuvda ota-ona faqat bolaning davomatini yoki kundalik xulqini kuzatuvchi emas, balki bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi ta’limiy hamkor sifatida qaraladi. Pedagog ota-onaga bolaning qiziqishlari, erishgan natijalari va keyingi rivojlanish imkoniyatlari haqida ma’lumot berishi, uy sharoitida bajarish mumkin bo‘lgan oddiy rivojlantiruvchi faoliyatlarni tavsiya qilishi mumkin. Raqamli aloqa vositalari bunday hamkorlikni muntazamlashtirish imkonini beradi, biroq bunda bolaning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va raqamli xavfsizlik talablariga rioya qilish zarur. O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida bunday transformatsiya uchun me’yoriy asos mavjud. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti tasdiqlangan bo‘lib, uning tarkibida davlat talablari, davlat o‘quv dasturi hamda MTTlarni jihozlash me’yorlari kabi tarkibiy qismlar belgilangan. 2022-yilgi takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi esa maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan natijalari, mazmuni va tashkil etilishini belgilovchi tayanch hujjat sifatida ishlab chiqilgan.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim jarayonini transformatsiyalash zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga mos ravishda pedagogik maqsad, mazmun, metod, vosita, rivojlantiruvchi muhit va pedagog-bola munosabatlarini tizimli ravishda yangilashni nazarda tutadi. Transformatsiya jarayonining asosiy mohiyati ta’lim jarayoniga alohida innovatsion vositalarni kiritish bilangina cheklanmay, bolaning ta’limdagi faol ishtirokini ta’minlaydigan yaxlit pedagogik tizimni shakllantirishdan iborat. Bunda bola tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki kuzatuvchi, izlanuvchi, savol

beruvchi, tajriba qiluvchi, muloqot qiluvchi va ijodiy mahsulot yaratuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limni transformatsiyalashning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy, integrativ, konstruktivistik va inklyuziv yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi tashkil etadi. Mazkur yondashuvlarni loyiha faoliyati, muammoli ta’lim, tadqiqotchilik faoliyati, STEAM elementlari, o‘yin texnologiyalari, rivojlantiruvchi markazlar va maqsadli raqamli vositalar bilan integratsiyalash maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligi, ijodkorligi, mustaqilligi, muloqot kompetensiyasi va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi.

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimining amaldagi me’yoriy-metodik asoslari, xususan, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti hamda 2022-yilgi takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi mazmunida bolaning individual rivojlanishi, kompetensiyalarni shakllantirish, pedagog va bolaning hamkorligi, bolalar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan innovatsion pedagogik yondashuvlarni maktabgacha ta’lim amaliyotiga joriy etish mavjud me’yoriy asoslar bilan uyg‘un holda olib borilishi va bolaning yosh hamda individual xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ularning yangiligi yoki texnik imkoniyatlari bilan emas, balki aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Raqamli vositalar real predmetlar bilan ishlash, o‘yin, tajriba, harakat, jonli muloqot va ijodiy faoliyatni almashtirmasligi, aksincha, ularni boyituvchi vosita sifatida qo‘llanishi zarur. Shu sababli zamonaviy pedagogdan texnologiyani shunchaki qo‘llash emas, balki uni bolaning rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda tanlash, pedagogik vaziyatga integratsiya qilish va natijasini kuzatib borish kompetensiyasi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: Tafakkur, 2019. — 684 b.
2.Ishmuhamedov R.J. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2025. — 108 b.
3.Usmonboyeva M., Nishonova Z. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. — 100 b.
4.Avliyoqulov N.H. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2015. — 128 b.
5.Quchqorova N.M., Nuraddinova R.S. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi namunasida o‘tkaziladigan mavzuli faoliyatlarni tashkil etish. — Toshkent: Bookmany Print, 2022. — 202 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA LOGOPEDIYA MASHG‘ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TURKUMLASH VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Dilnoza Jo‘rayeva O‘ktam qizi
BuxDPI Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Tolamurodova Sarvara To‘qin qizi
BuxDPI maktabgacha ta’lim talabasi

Annotatsiya. *Inson psixologiyasi shunday tuzilganki, har qanday yangi ma"lumot qaysidir ma’noda endilikda ma’lumini tegib o‘tadi ya’ni assotsiatsiya kelib chiqadi. Yangi ma"lumot har qanday narsa to‘g‘risida eslatishi mumkin. Bu bu bilimlari, malakasi, yoshi, intiluvchanligi, intellektual rivojlanish darajasi, aktual psixik holati va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *bolalar logopediyasi,o‘g‘zaki o‘yinlar,xotira,hayol,mashg‘ulot jarayonlari.*

Аннотация. *Психология человека устроена таким образом, что любая новая информация так или иначе затрагивает уже известное, то есть возникает ассоциация. Новая информация может напомнить о чем угодно. Это зависит от знаний, навыков, возраста, стремлений, уровня интеллектуального развития ребенка, текущего психического состояния и т. д.*

Ключевые слова: *логопедия детей, вербальные игры, память, воображение, тренировочные процессы.*

Abstract. *Human psychology is structured in such a way that any new information somehow influences what is already known, creating an association. New information can remind one of anything. This depends on the child’s knowledge, skills, age, aspirations, level of intellectual development, current mental state, etc.*

Keywords: *speech therapy for children, verbal games, memory, imagination, training processes.*

Har bir bola indivudial bir olam uning o‘zini psixologiyasi dunyo qarashi va olami bor har bir pedagog buni to‘liq anglab yetgan holatda bola bilan jamoada ham indivudial ham ishlay olish lozim. Mashg‘ulotlar jarayonida bolalar xotirani rivojlantirish maqsadida bu xususiyatlardan foydalanish uchun bolaga savol berish yetarli bo‘ladi:

- Bu rasm senga nimani eslatayapdi, bu so‘z?
- Bu rasm nimaga o‘xshaydi, dog‘lar, tasvirlar?

Shuning uchun bola aytayotgan assotsiatsiyalarni o‘xshamasa, qoniqarli yoki qiyin bo‘lgan holda ham u taklif qilganlarini rad etish, tanqid qilish va inkor qilish darkor bo‘ladi.

Shakllantiruvchi eksperimentda ishtirok etgan barcha bolalar uchun assotsiativ og‘zaki o‘yinlar tanlangan bo‘lib, ular uzoq muddatli xotiradan so‘zlarni tanlab olishni faollashtirishga va bolalar lug‘atini tizimlashga yo‘naltirilgan. Bunday o‘yinlar xotirani hamda nutqni rivojlantirish vazifalarini hal etishga imkon berdi. Bunday o‘yinlarni logopedik amaliyotga kiritishning

dolzarbligi, lug‘atni to‘plashning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatuvchi faoliyat sifatida qurilganligi haqidagi zamonaviy tasavvurlar bilan tushuntiriladi. Lug‘at

ustidagi ish sohasidagi eng muhim muammo bolada mavjud semantik guruhlar bo‘yicha so‘zlarni guruhlashdadir. Aynan ma’no va vaziyatli bog‘liqliklar bo‘yicha xotirada lug‘atni to‘g‘ri tashkil etish faol nutqda uning faol qo‘llanilishini ta’minlaydi.

Qiyinchilik tug‘ilgan holatlarda bolalarga rasmlarni yoki harakatlarni namoyish etish ko‘rinishidagi yordam ko‘rsatilishi mumkin. Har qanday ma‟lumot hamisha yodda olib qolish uchun tayanch bo‘lishi mumkin bo‘lgan axborotni saqlaydi. Bu sana, odatdan tashqari so‘z birikmalari, tanish yoki notanish so‘zlar, voqealarning kutilmagan rivoji, metaforalar, ismlar, rasmlar, formulalar, sxemalar bo‘lishi mumkin. So‘zlarni yoki matnlarni eslab qolish uchun bir nechta tayanch vositalarni qo‘llash zarur. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu predmetli yoki syujetli rasmlar bo‘lishi mumkin. Bu qaysidir ma‟noda yodga tushirish uchun reja bo‘ladi.

Qayta hikoyada xatolarning oldini olish uchun analogiya usulidan foydalanish mumkin. Bunda predmet, hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik, umumiylik o‘rnatiladi. Bunday usul nutq-tafakkur faoliyati rivojlanishining ma’lum bosqichida bola uchun tushunarli bo‘ladi. Yangi so‘zlarni ularni birlashtirgan, biron-bir bog‘lanishlarni o‘ylab topgan holda yodda olib qolish osonroq. Bunday usul materialni qurib bitkazish deb nomlanadi.

Materialni strukturalash va tizimlash murakkab usullardan hisoblanadi. Strukturalash usuli yodda olib qolinayotgan ma’lumotning ichki shaklini, tuzilishini aniqlashni anglatadi. Tizimlash usuli material ichidagi aloqani o„‘natishga qaratilgan bo‘lib, buning natijasida u butun sifatida idrok etiladi. Tizimlash va strukturalash usullari insonga har qanday ma‟lumotlarni yaxshi yodda olib qolish, saqlash va taqdim etish imkonini beradi. Qayta kodlash usuli ma’lumotni obrazli shakldan verbal va noverbal shaklga aylantirishni bildiradi. Har qanday verbal ma‟lumotni rasm ko‘rinishida, obrazlar ko‘rinishida taqdim etish mumkin. O‘z navbatida har qanday obrazli ma‟lumotni so‘z bilan tasvirlash mumkin. Ketma-ketlikni o‘rnatish usuli – turli belgilarga ko‘ra predmet va hodisalar qatorini, ketma-ketligini qurishni anglatadi. Masalan, soddadan murakkabga, kichikdan kattaga, yengildan qiyinga va hakozo.

Psixologik adabiyotlarda quyidagi mnemotexnik usullar ajratiladi: assotsiatsiyalar; guruhlash; tasniflash; analogiyalar; sxemalashtirish; strukturalash; tizimlash; mnemo reja; qayta kodlash; ketma-ketlikni o‘rnatish.

Mazkur usullar bolalar bilan olib borilgan korreksion ishlarda qo‘llanilgan Rinolaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar uchun yodda olib qolishning barcha usullari tushunarli emas. Shuning uchun xotirani rivojlantirish jarayoni – bir necha bosqichlardan iborat bo‘lgan uzoq muddatli jarayondir.

1. Birinchi bosqichda bola xotirasining boshlang‘ich rivojlanish darajasini aniqlash kerak.
2. Bola usulning mazmunini bilishi, mazkur usulni yodda olib qolish uchun qo‘llashni bilishi kerak. Masalan, materialni qismlarga bo‘lish nima ekanligi, buni qanday amalga oshirish mumkinligini, materialni qismlarga bo‘lib yodda olib qolish osonroq ekanligini bilishi kerak.
3. Bolani aniq ma’lumotni eslab qolish va taqdim etishning u yoki bu usullarini qo‘llashga o‘rgatish.

Doimiy mashqlar xotira imkoniyatlaridan maksimal foydalanish imkonini beradi. Korreksion ish mnestik xotirani rivojlantirish yo‘llarini tinmay izlashni nazarda tutadi.

Boshqa psixik jarayonlarni amalga oshirilishidagi xotiraning integrativ roli shundan iboratki, ko‘pgina korreksion-rivojlantiruvchi mashqlar va didaktik o‘yinlar xotirani rivojlanishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Biroq rinolaliya nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar mnestik xotirasining inertligi, mnestik faoliyatning nofaolligi (perseveratsiya, kontaminatsiya, proaktiv tormozlanish) zo‘riqqanligi, bir maromda emasligi, mnestik faoliyatning impulsivligi; mnestik faoliyatni boshqarish va nazorat etishning buzilganligi (zo‘riqish miqdoriga ko‘ra xatolar sonining ortishi) singari sifat xususiyatlarini hisobga olgan holda eshituv nutqiy va ko‘ruv xotirasining hajmi va mustahkamligini oshirishga maxsus yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarga didaktik o‘yinlarni qo‘shish zarur.

Bir nechta misollar keltiramiz.

“Shakllar” o‘yini

Maqsad – semantik ifodalash yordamida ko‘ruv xotirasining hajmini kengaytirish.

Qo‘laniladigan material: qog‘oz varoqlari va sanoq cho‘plari.

Pedagog boladan ko‘zini yumishini so‘raydi va cho‘plardan shakl hosil qiladi, so‘ng 30 soniya davomida uni bolaga ko‘rsatadi, shundan so‘ng uni ro‘molcha bilan yopadi va bolaga qog‘oz varag‘ining ustida shaklni yasashni so‘raydi, so‘ngra natija bilan namuna solishtiriladi.

Maqsad – eshituv nutqiy xotiraning hajmini ko’paytirish.

Pedagog sozlarni talaffuz qiladi (3 so‘zdan 5 so‘zgacha), bola esa cho‘plardan aytilgan predmetni eslatuvchi shaklni yasaydi. Masalan: archa- uchburchak, kitob-to‘g‘riburchak, bolg‘acha-t harfini eslatuvchi shakl.

“Kvartira” o‘yini

Maqsad – og‘zaki materialni mantiqiy va polisensor ifodalamoq. Material: qo‘g‘irchoq xonasining maketi va o‘yinchoq mebel jihozlari.

a) Pedagog mebel jihozlarini aytadi, bola so‘zlarni eslab qolishi va mebel jihozlarini o‘z joyiga qo‘yishi kerak.
b) Bolaga bir nechta geometrik shakllar beriladi va qaysi shakl qanday mebel jihozini bildirishi haqida oldindan kelishib olinadi. Bundan so‘ng pedagog so‘zlarni aytadi, bola esa qog‘oz varag‘iga shakllarni joylashtirib, “mebellarni qo‘yib chiqadi”.

Vazifa bajarib bo‘lingach, bola so‘zlarni qayta takrorlashi muhim bo‘lib, shuningdek ularni 30 daqiqadan so‘ng qaytarish taklif etiladi.

Maktabgacha yoshda bola o‘zining aqliy faolligini boshqarishdan ko‘ra tashqi stimullar va tashqi regulyatorlarga ko‘proq quloq soladi. Intellektual faollikning ichki boshqaruv mexanizmlarini – o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish zarur. Eslab qolish va qayta takrorlash jarayonlarini boshqarish qobiliyatlarini eslab qolinayotgan axborotni qayta ishlashni boshqarish deb ta’riflash mumkin. Xotirani boshqarish asosida analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiya singari aqliy operatsiyalar yotadi. Xotirani fikrlash operatsiyalari va nutq nisbatan rivojlangan holatda mnestik jarayonlar tizimida eslab qolinayotgan ma‘lumotlarni qayta ishlash usullari paydo bo‘lgan hollarda boshqarish mumkin. Shuni alohida ta’kidlash joizki, eslab qolish maqsadida materialni qayta ishlashning mazkur yo‘llari va usullari avval tashqi va undan so‘ng esa ichki tomondan amalga oshirilishi kerak.

Demak, eslab qolinayotgan materialni qayta ishlash usullarining mavjudligi, bolaning xotirasini boshqarish qobiliyatining asosini tashkil etadi. Biroq, eslab qolinayotgan materialni qayta ishlash usullari ishga tushirish mexanizmiga muhtoj bo‘ladi. Nutq jarayonlarini boshqarish uchun taxminan bunday funksiyani quyidagi harakatlar bajaradi: maqsad qo‘yish mahorati; harakatlarni rejalashtirish mahorati; qaror qabul qilish mahorati; eslab qolish va qayta takrorlash jarayonini nazorat qilish mahorati; olingan natijani baholash mahorati; kelgusida bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarni oldindan ko‘ra bilish mahorati.

Mazkur harakatlar o‘zaro birlikda xotiraning boshqaruvchilik mexanizmlarini tashkil etadi. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan, ko‘pincha bu rejalashtirilgan nutqning boshqaruvchi, rejalashtiruvchi funksiyasining rivojlanmaganligi natijasida kuzatiladi. Amaliy, produktiv va tajriba-sinov tayanch faoliyati o‘z-o‘zini boshqarish samaradorligini oshiruvchi sharoitni ta’minlaydi.

Biz nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar xotirasini rivojlantirish maqsadida logopedik mashg‘ulotlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ba’zi o‘yin va mashqlarni tanlab oldik. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati

ko‘pincha nutqning boshqaruvchi, rejalashtiruvchi funksiyasining rivojlanmaganligi bois, yetarlicha shakllanmagan bo‘ladi.

Bola nutqi va xotirasini rivojlantirish uchun predmet-amaliy faoliyatni og‘zaki ifodalashning ahamiyati. Amaliy faoliyatni og‘zaki ifodalashning roli ko‘pgina tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan (L.S.Vigotskiy, N.I.Jinkin, R.YE.Levina, V.I.Lubovskiy, A.R.Luriya, D.B.Elkonin). Ularda idrok, diqqat, xotira va umumlashtirish jarayoniga og‘zaki ifodalashning ijobiy ta’siri o‘rnatilgan.

Shu tariqa korreksion ishda didaktik o‘yinlar va nutqiy mashqlar bilan bir qatorda predmet-amaliy faoliyatni qo‘llagan holda leksik va ko‘rgazmali materialni samarali shakllantirish, rivojlantirish va kelajakda yodda olib qolish ko‘nikmasini takomillashtirish mumkin.

Bola faoliyat ko‘rsatadigan va u tomonidan produktiv faoliyat natijasida yaratiladigan barcha predmetlar xotira va nutqiy mashqlar uchun ko‘rgazmali tayanch rolini bajaradi. Mnemojadval yodda olib qolish va gap yoki hikoyani qurilishini ko‘rgazmali-grafik rejasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuni ham unitish kerak emaski, predmet-amaliy faoliyatda bola bir vaqtning o‘zida bir necha analizatorlarga (ko‘ruv, eshituv, teri-taktil) tayanadi, bu esa nutq rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g‘risida»gi Qonuni //O’RQ-637-son 23.09.2020.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g‘risida»gi PF–60-son Farmoni https://lex.uz/pdfs/5841063
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qarori.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi qarori.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g‘risida” PF-6108-son Farmoni https://lex.uz/docs/5085999

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Raxmatova Gulnoz Komilovna
Osiyo Xalqaro Universiteti

Kirish. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida bolaning bilimlarni tayyor holda qabul qilishi emas, balki ularni kuzatish, savol berish, tajriba o‘tkazish, taqqoslash va mustaqil xulosa chiqarish orqali egallashi muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bilishga bo‘lgan tabiiy qiziqishni saqlab qolish va uni maqsadli ta’limiy faoliyatga yo‘naltirish kelgusidagi ta’lim muvaffaqiyati uchun muhim zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan innovatsion yondashuvlardan foydalanish ta’lim jarayonini bolaga yo‘naltirish, uning mustaqilligi va ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash faqat raqamli vositalardan foydalanish bilan cheklanmaydi. Muammoli vaziyatlar, ta’limiy o‘yinlar, kichik loyihalar, STEAM elementlari, tajriba va kuzatishlar, ijodiy topshiriqlar ham innovatsion pedagogik yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridir. Ularning umumiy jihati bolani faol harakat qiluvchi, izlanadigan va fikr yuritadigan subyekt sifatida namoyon etishidir.

Maqsad — maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlar yordamida bolalarning bilish faolligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ta’limiy faoliyatni samarali tashkil etish yo‘llarini asoslashdan iborat.

Vazifalar:

— maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligi mazmunini yoritish;

— innovatsion yondashuvlarning ta’limiy imkoniyatlarini aniqlash;

— muammoli vaziyat, ta’limiy o‘yin va loyiha faoliyatining bilish jarayoniga ta’sirini tahlil qilish;

— STEAM va raqamli resurslardan foydalanishning yosh xususiyatlariga mos jihatlarini belgilash;

— tarbiyachilar uchun innovatsion faoliyatni tashkil etishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Maktabgacha yoshdagi bolaning bilish faolligi, avvalo, uning atrofdagi hodisalarga qiziqishi va ularni anglashga bo‘lgan ichki ehtiyojida namoyon bo‘ladi. Bola “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Agar shunday bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi savollar orqali mavjud bilimlarini yangi vaziyat bilan bog‘laydi. Demak, ta’lim jarayonida bunday savollarni cheklash emas, aksincha, ularni pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarur.

INNOVATSION YONDASHUVLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILISH FAOLLIGIGA TA’SIRI

Innovatsion yondashuvning muhim belgisi ta’lim jarayonida bolaning faol ishtirokini ta’minlashdir. Bunda tarbiyachi tayyor bilimni yetkazib beruvchi emas,

balki bolaning bilish jarayonini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat olib boradi. Bola esa kuzatuvchi, savol beruvchi, tajriba qiluvchi va xulosa chiqaruvchi subyektga aylanadi.

Bilish faolligini rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Masalan, tarbiyachi bolalarga turli materiallardan tayyorlangan buyumlarni ko‘rsatib, “Qaysi buyum suv yuzida qoladi va nima uchun?” degan savolni beradi. Bolalar avval taxmin qiladilar, keyin tajriba orqali o‘z fikrlarini tekshiradilar. Bunda kuzatish, taqqoslash, taxmin qilish, tekshirish va xulosa chiqarish jarayonlari izchil amalga oshadi.

Ta’limiy o‘yinlar ham innovatsion faoliyatning samarali vositalaridan biridir. O‘yin jarayonida bolaning tabiiy qiziqishi pedagogik maqsad bilan birlashtiriladi. “Sirli quti”, “Ortiqchasini top”, “Nimani o‘zgartirdim?”, “Qaysi yo‘l to‘g‘ri?” kabi o‘yinlar orqali bolalarning diqqat, xotira, tasavvur, mantiqiy fikrlash va nutqiy faolligi rivojlantirilishi mumkin.

INNOVATSION YONDASHUVLARNING ASOSIY TURLARI VA VAZIFALARI

Yondashuv turi	Asosiy pedagogik vazifasi
Muammoli ta’lim	Savol va muammoli vaziyat orqali mustaqil fikrlashni faollashtirish
Ta’limiy o‘yin	Bilim va ko‘nikmalarni qiziqarli, faol hamda tabiiy faoliyat orqali shakllantirish
Loyiha faoliyati	Kuzatish, rejalashtirish, hamkorlik va amaliy natija yaratishni rivojlantirish
STEAM elementlari	Fanlararo bog‘liqlik, konstruktiv fikrlash va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash
Raqamli resurslar	Vizual va interaktiv materiallar orqali qiziqish hamda idrokni kuchaytirish

Jadvaldan ko‘rinadiki, innovatsion yondashuvlarning har biri alohida pedagogik vazifani bajaradi. Shu sababli tarbiyachi biror texnologiyani uning nomi yoki yangiligi uchun emas, balki aniq ta’limiy maqsadga erishish imkoniyatiga qarab tanlashi lozim.

BOLALARNING IZLANISH VA IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning samaradorligi ko‘p jihatdan bolaga mustaqil harakat qilish imkoniyati berilishiga bog‘liq. Agar bola faqat tarbiyachi ko‘rsatmasini bajaruvchi sifatida ishtirok etsa, uning faoliyati reproduktiv xarakterda qolishi mumkin. Aksincha, tanlash, sinab ko‘rish va natijani baholash imkoniyati berilganda bilish faolligi kuchayadi.

Loyiha faoliyati ana shunday imkoniyatni yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun loyiha murakkab ilmiy izlanish emas, balki qisqa muddatli, amaliy va

yoshga mos faoliyat shaklida tashkil etiladi. Masalan, “Bizning kichik bog‘imiz” loyihasida bolalar urug‘ ekish, uni kuzatish, suv berish, o‘sish jarayonini rasm orqali qayd etish va o‘zgarishlar haqida suhbatlashish orqali yagona faoliyatni amalga oshiradilar.

STEAM elementlari ham bolalarning amaliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Masalan, “Qog‘ozdan mustahkam ko‘prik quramiz” topshirig‘ida bola qog‘ozning xususiyatini kuzatadi, turli konstruksiyalarni sinab ko‘radi, buyumlarni taqqoslaydi, natijani tekshiradi va o‘z yechimini tushuntiradi. Mazkur faoliyatda matematik tasavvurlar, konstruktiv qobiliyat, tasavvur va muammoli fikrlash o‘zaro bog‘lanadi.

Innovatsion faoliyatda raqamli vositalardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin. Biroq raqamli texnologiya bolaning amaliy faoliyatini almashtirmasligi kerak. Masalan, tabiat haqidagi qisqa videolavha namoyish etilgach, bolalarga “Nimani ko‘rdingiz?”, “Qanday o‘zgarish yuz berdi?”, “Buning sababi nimada?” kabi savollar berilishi mumkin. Shunda raqamli material kuzatish va fikrlashni faollashtiruvchi vositaga aylanadi.

INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

— Maqsadni belgilash — bolalarda qanday bilim, ko‘nikma yoki faoliyat tajribasi shakllanishini aniqlash.

— Muammoli vaziyat yaratish — bolaning qiziqishi va savol berish ehtiyojini uyg‘otadigan vazifani taklif qilish.

— Mustaqil izlanishni tashkil etish — kuzatish, tajriba, o‘yin yoki ijodiy faoliyat orqali yechim izlash.

— Natijani muhokama qilish — bolalarning taxminlari va amaliy natijalarini taqqoslash.

— Refleksiya — “Men nimani bildim?”, “Nimani sinab ko‘rdim?”, “Menga nima qiziq bo‘ldi?” kabi savollar orqali faoliyatni anglash.

Mazkur bosqichlarning izchil tashkil etilishi bolaning nafaqat bilimini, balki bilish jarayonining o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi ularning o‘z-o‘zidan qo‘llanishi bilan emas, balki muayyan pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi bilan belgilanadi. Birinchi navbatda, ta’lim muhiti bolaning mustaqil tanlovi va faol harakatiga moslashtirilishi kerak. Guruh xonasida tadqiqot, konstruktorlik, ijodiy faoliyat va kitob bilan ishlash uchun kichik markazlarning mavjudligi bolalarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ikkinchi shart — topshiriqlarning bolaning yosh va individual imkoniyatlariga mosligi. Bir xil vazifani barcha bolalarga aynan bir shaklda berish o‘rniga, turli murakkablik darajasidagi topshiriqlarni taklif qilish maqsadga muvofiq. Bu usul faol bolaga qo‘shimcha izlanish, qiynalayotgan bolaga esa bosqichma-bosqich yordam berish imkonini yaratadi.

Uchinchi shart — tarbiyachining metodik kompetentligidir. Innovatsion texnologiyani bilish uning nomini yod olish bilan chegaralanmaydi. Tarbiyachi texnologiyaning maqsadini, qaysi vaziyatda samarali bo‘lishini, bolalar faoliyatini qanday tashkil etishni va natijani qanday kuzatishni bilishi zarur.

To‘rtinchi shart — erkin fikrlash muhitini yaratish. Bola noto‘g‘ri javob berishdan qo‘rqmasligi kerak. Tarbiyachi bolaning xatosini darhol rad etish o‘rniga “Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?”, “Buni qanday tekshirishimiz mumkin?” kabi savollar orqali uni qayta fikrlashga yo‘naltirishi maqsadga muvofiq.

TARBIYACHINING INNOVATSION FAOLIYATDAGI ROLI

— bolalarning savol va taxminlarini qo‘llab-quvvatlash;
— mustaqil tanlov va tajriba qilish uchun sharoit yaratish;
— har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish;
— kichik guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish;
— raqamli vositalardan maqsadli va yoshga mos foydalanish;
— bolalar faoliyatini kuzatish va natijalarni tahlil qilish;
— faoliyat yakunida refleksiv suhbatni tashkil etish.

Shunday qilib, innovatsion pedagogik texnologiyalar tarbiyachining an’anaviy rolini ham boyitadi. U pedagogik jarayonni boshqaruvchi, bolaning izlanishiga yo‘l ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi va maslahat beruvchi sifatida faoliyat olib boradi. Bunday yondashuv bolalarning tashabbuskorligi va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

BILISH FAOLLIGINI KUZATISH MEZONLARI

Mezon	Kuzatiladigan ko‘rsatkich
Qiziqish	Yangi vazifaga ixtiyoriy va faol kirishishi
Savol berish	Mazmunli savollar berishi va javob izlashga urinishi
Mustaqillik	Vazifani yordamni kamaytirgan holda bajarishi
Tadqiqotchilik	Taxmin qilishi, tekshirishi va natijani taqqoslashi
Ijodkorlik	Bir vazifaga turli yechim taklif qilishi
Hamkorlik	Tengdoshlar bilan fikr almashishi va umumiy natijaga hissa qo‘shishi

NATIJALAR, XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’limiy faoliyatni pedagogik jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bolalarning bilish faolligi, avvalo, faoliyatning mazmuni va tashkil etilish usuliga bog‘liq. Tayyor javobni kutishdan ko‘ra, javobni izlashga undovchi vazifalar bolada yuqori darajadagi qiziqish va tashabbusni yuzaga keltiradi.

Muammoli vaziyatlar bolani fikrlashga, ta’limiy o‘yinlar faol ishtirok etishga, loyiha faoliyati uzoqroq muddatli kuzatishga, STEAM topshiriqlari esa turli faoliyatlarni birlashtirishga undaydi. Shu bilan birga, raqamli vositalar vizual materialni boyitishi mumkin, ammo ular bolaning real predmetlar bilan amaliy harakatini to‘liq almashtirmasligi lozim.

Innovatsion yondashuvlardan foydalanish natijasida bolalarda savol berish, taqqoslash, kuzatish, taxmin qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini tushuntirish kabi faoliyatlar kuchayadi. Bunday ko‘nikmalar 197eying ta’lim bosqichida bolaning o‘quv faoliyatiga moslashishi uchun muhim tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan tarbiyachilarga har bir mashg‘ulotda kamida bitta izlanishga yo‘naltirilgan savol yoki topshiriqdan foydalanish, bolalarga bir nechta yechimni sinab ko‘rish imkonini berish, natijani tayyor aytmaslik va faoliyat yakunida qisqa refleksiya tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bolalarning bilish faolligini rivojlantirishning muhim vositalaridan biridir. Ularning samaradorligi texnologiyaning yangiligidan ko‘ra, uning pedagogik maqsadga muvofiq tanlanishi, bolaning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirilishi hamda faoliyat jarayonida mustaqil izlanish uchun sharoit yaratilishi bilan belgilanadi.

Innovatsion yondashuvlarni muammoli vaziyatlar, ta’limiy o‘yinlar, loyiha faoliyati, STEAM elementlari, tajriba-kuzatish va maqsadli raqamli resurslar bilan uyg‘unlashtirish bolalarning qiziqishi, ijodkorligi va tadqiqotchilik faolligini kuchaytiradi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion pedagogik jarayonni tashkil etishda “texnologiya markazda” emas, balki “bola markazda” tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonun. — Toshkent, 2019.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. — Toshkent, 2022.
3. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.K., Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika.
4. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. — Toshkent.
5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. — Toshkent: Fan, 2006.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Iste’dod, 2008.
7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Harvard University Press, 1978.
9. Поддьяков Н.Н. Мышление дошкольника. — Москва: Педагогика.
10. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — Москва: Просвещение.

NEYROLINGVISTIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi,
Osiyo xalqaro universiteti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich ta’limda, xususan, ona tili darslarida o‘quv topshiriqlarini neyrolingvistik yondashuv asosida ishlab chiqishning didaktik tamoyillari ilmiy-metodik jihatdan yoritilgan. O‘quv topshirig‘ining mazmuni, bajarish usuli va kutiladigan natijasini o‘quvchining nutqiy-kognitiv faoliyati bilan uyg‘unlashtirish zarurati asoslangan. Miyaning tabiiy o‘rganish mexanizmlariga moslik, multimodallik, assotsiativlik, bosqichlilik, individuallashtirish, faol nutqiy faoliyat va refleksiv teskari aloqa tamoyillari o‘zaro bog‘liq didaktik tizim sifatida tavsiflangan. Mazkur tamoyillar til birliklarini yodlashdan ko‘ra ularni anglash, semantik tarmoqlarga joylashtirish, turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llash va mustaqil nutq mahsulini yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *neyrolingvistik yondashuv, o‘quv topshirig‘i, didaktik tamoyil, ona tili ta’limi, multimodal ta’lim, assotsiativ o‘rganish, individuallashtirish, kognitiv jarayon, nutqiy faoliyat, refleksiya.*

Аннотация: *В статье раскрываются научно-методические основы разработки учебных заданий для начального образования на основе нейролингвистического подхода. Обоснована необходимость согласования содержания задания, способа его выполнения и ожидаемого результата с речевой и когнитивной деятельностью ученика. Принципы соответствия естественным механизмам обучения мозга, мультимодальности, ассоциативности, поэтапности, индивидуализации, активной речевой деятельности и рефлексивной обратной связи рассматриваются как взаимосвязанная дидактическая система. Показано, что такие задания обеспечивают осмысленное усвоение языковых единиц, формирование устойчивых смысловых связей и перенос знаний в новые речевые ситуации.*

Ключевые слова: *нейролингвистический подход, учебное задание, дидактический принцип, начальное образование, обучение родному языку, мультимодальность, ассоциативное обучение, индивидуализация, речевая деятельность.*

Abstract: *The article examines the scientific and methodological foundations for designing learning tasks in primary education through a neurolinguistic approach. It substantiates the need to align task content, modes of performance and expected outcomes with pupils’ speech and cognitive activity. The principles of compatibility with natural learning mechanisms, multimodality, association, gradual progression, individualization, active speech production and reflective feedback are described as an integrated didactic system. The proposed approach shifts language learning from mechanical reproduction toward meaningful processing, semantic networking and flexible application in communicative contexts.*

Keywords: *neurolinguistic approach, learning task, didactic principle, primary education, native language teaching, multimodality, association, individualization, speech activity.*

Boshlang‘ich ta’limda o‘quv topshirig‘i ta’lim mazmunini o‘quvchi faoliyatiga aylantiruvchi asosiy didaktik birliklardan biridir. Ona tili darsida topshiriq o‘quvchini tovush, so‘z, gap va matn ustida amal bajarishga, til hodisalari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga, fikrni ifodalashga hamda nutqiy vaziyatga mos birliklarni tanlashga yo‘naltiradi. Shu sababli topshiriqning sifati uning grammatik jihatdan to‘g‘riligi bilangina emas, balki o‘quvchida qanday kognitiv va nutqiy operatsiyalarni faollashtirishi bilan ham belgilanadi.

An’anaviy metodikada ko‘plab mashqlar namunani takrorlash, tayyor qoida asosida so‘zlarni ajratish, gapni ko‘chirish yoki berilgan shaklni reproduktiv qo‘llashga yo‘naltiriladi. Bunday mashqlar ko‘nikmani avtomatlashtirishda zarur bo‘lsa-da, har doim ham ma’no hosil qilish, semantik bog‘lanish o‘rnatish, tanlov qilish va mustaqil nutq yaratish jarayonlarini yetarli darajada faollashtirmaydi. Neyrolingvistik yondashuv esa til o‘zlashtirishni eshitish, ko‘rish, harakat, xotira, diqqat, emotsiya va nutqiy rejalashtirishning o‘zaro hamkorligi sifatida ko‘rib chiqadi.

Neyrolingvistik nuqtayi nazardan o‘quv topshirig‘i o‘quvchining til materialini qabul qilishi, qayta ishlashi, saqlashi, tiklashi va nutqiy vaziyatga ko‘chirishiga xizmat qiluvchi kognitiv-nutqiy harakatlar zanjirini yaratishi kerak. Demak, topshiriq yaratishda “nima o‘rgatiladi?” bilan birga “o‘quvchi bu bilimni qanday idrok etadi?”, “qaysi sezgi va tafakkur kanallari jalb etiladi?”, “qanday assotsiativ bog‘lanish hosil bo‘ladi?” va “o‘zlashtirilgan birlik yangi vaziyatda qanday qo‘llanadi?” savollari ham metodik mezon bo‘lishi lozim.

Neyrolingvistik yondashuv asosida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish didaktik tamoyillari quyidagilar:

1. Miyaning tabiiy o‘rganish mexanizmlariga moslik tamoyili.

O‘quv materialining hajmi, murakkabligi, takrorlanish chastotasi va taqdim etilish ketma-ketligi bolaning yosh va kognitiv imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi yangi til birliklarini ma’no, obraz va faoliyat bilan bog‘langan holatda yaxshiroq o‘zlashtiradi. Shuning uchun topshiriq qisqa, aniq instruktsiyaga ega, bitta asosiy kognitiv maqsadga yo‘naltirilgan va ortiqcha axborotdan xoli bo‘lishi lozim. Masalan, “Sifatlarni toping” o‘rniga rasmli vaziyat asosida predmet belgisini aniqlash, uni rasm bilan bog‘lash va ikki yangi gap tuzish taklif etiladi.

2. Multimodallik tamoyili.

Ko‘rish, eshitish va harakat komponentlarini uyg‘unlashtirish axborotni bir necha kodda qayta ishlash imkonini beradi. Bu har bir topshiriqqa sun’iy ravishda rasm yoki harakat qo‘shish emas, balki til hodisasiga mos sezgi kanalini maqsadli tanlashdir. Fonetik topshiriqlarda eshitish va artikulyatsiya, leksik topshiriqlarda

obraz va kontekst, imloda ko‘rish-harakat koordinatsiyasi, matn tuzishda esa vizual reja, kalit so‘z va og‘zaki tayyorgarlik uyg‘unlashadi.

3. Assotsiativlik va semantik tarmoqlash tamoyili.

Yangi birlik avvalgi bilimlar bilan bog‘langanda xotirada mustahkamroq saqlanadi. Shu sababli topshiriqlar so‘z va tushunchalar o‘rtasidagi ma’no aloqalarini ochishga xizmat qilishi kerak. “So‘zlar zanjiri”, “ma’no xaritasi”, “bir so‘z – bir necha vaziyat”, “sinonimlar zinapoyasi”, “so‘zdan obrazga, obrazdan gapga” kabi topshiriqlar semantik tarmoq hosil qiladi. Masalan, “bahor” atrofida rang, tovush, harakat, holat va hissiyot bildiruvchi birliklarni jamlash keyingi matn uchun leksik baza yaratadi.

4. Bosqichlilik va kognitiv yuklamani me’yorlash tamoyili.

O‘quv topshirig‘i sodda tanishdan murakkab mustaqil qo‘llashga qarab rivojlanishi kerak. “Idrok etish – farqlash – bog‘lash – qo‘llash – yaratish” ketma-ketligi samarali. Bir vaqtning o‘zida ko‘p yangi qoida va murakkab instruktsiya ishchi xotirani ortiqcha yuklaydi. Shuning uchun murakkab topshiriq kichik operatsiyalarga ajratiladi, yakunda esa yagona nutqiy vazifada birlashtiriladi.

5. Individuallashtirish va variativlik tamoyili.

Bir sinfdagi o‘quvchilar til materialini qayta ishlash tezligi, lug‘at zaxirasi, nutqiy faolligi, ishchi xotirasi va yordamga ehtiyoji bilan farqlanadi. Shu sababli bir didaktik maqsad turli tayanch darajalarida taklif qilinadi: rasm va kalit so‘zlar, faqat reja yoki erkin vaziyat. Maqsad bir xil, pedagogik tayanch miqdori esa turlicha bo‘ladi. Individuallashtirish o‘quvchini qat’iy guruhlarga ajratish emas, ayni vazifadagi ehtiyojiga qarab yordamni moslashtirishdir.

6. Faol nutqiy faoliyat va funksionallik tamoyili.

Ona tili ta’limidagi topshiriq til birligini real kommunikativ vazifaga olib chiqishi kerak. O‘quvchi ot, sifat, fe’l yoki gap bo‘laklarini aniqlash bilangina cheklanmay, ulardan maqsadli nutqiy mahsul yaratishi zarur. Shu bois “toping”, “tagiga chizing”, “ko‘chiring” kabi reproduktiv amallardan keyin “izohlang”, “o‘zgartiring”, “tanlang”, “asoslang”, “vaziyatga mos gap tuzing”, “suhbatni davom ettiring” kabi produktiv amallar beriladi.

7. Refleksiv teskari aloqa tamoyili.

Natijani baholash faqat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobni qayd etish bilan tugamasligi kerak. O‘quvchi qaysi usul yordam berganini, qayerda qiyinchilik yuzaga kelganini va javobini qanday yaxshilashi mumkinligini anglab boradi. “Men qanday topdim?”, “Qaysi belgi yordam berdi?”, “Boshqa usul bilan yechish mumkinmi?” kabi savollar metakognitiv nazoratni shakllantiradi. O‘qituvchi uchun

bunday teskari aloqa keyingi topshiriqning murakkabligi va yordam turini belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur tamoyillar topshiriqning tashqi shaklidan ko‘ra uning ichki kognitiv arxitekturasini belgilaydi. Topshiriq rang-barang yoki o‘yin ko‘rinishida bo‘lishi o‘z-o‘zidan neyrolingvistik xususiyat bermaydi. Asosiy mezon — idrok, xotira, semantik bog‘lanish, tanlov va nutqiy ijro jarayonlarining o‘zaro bog‘langan holda faollashishidir.

Tamoyillarning topshiriqdagi ifodasi va kutiladigan natija

Tamoyil	Topshiriqdagi ifodasi	Faollashadigan jarayon	Kutiladigan natija
Moslik	Qisqa, aniq, yoshga mos vazifa	Diqqat, ishchi xotira	Barqaror idrok
Multimodallik	Ko‘rish, eshitish, harakatni uyg‘unlashtirish	Ko‘p kanalli kodlash	Mustahkam eslab qolish
Assotsiativlik	Ma’no xaritasi, bog‘lash, guruhlash	Semantik tarmoqlash	Tezkor faollashtirish
Bosqichlilik	Idrokdan mustaqil yaratishga o‘tish	Kognitiv yukni boshqarish	Izchil o‘zlashtirish
Individuallashtirish	Bir maqsad – turli pedagogik tayanch	Shaxsiy o‘rganish strategiyasi	Optimal qiyinchilik
Faol nutq	Real vaziyatda gap va matn yaratish	Nutqiy rejalashtirish	Funksional qo‘llash
Refleksiya	O‘z usulini izohlash va tekshirish	Metakognitiv nazorat	O‘zini boshqarish

Jadvaldan ko‘rinadiki, tamoyillar alohida qoidalar emas. Masalan, multimodal topshiriq kognitiv yuk me’yorlanmasa samarasiz bo‘lishi, individuallashtirish esa refleksiv teskari aloqasiz keyingi bosqichga moslashtirilmasligi mumkin. Shuning uchun o‘quv topshirig‘ini loyihalashda tamoyillar kompleks qo‘llanadi.

Neyrolingvistik yondashuv asosida topshiriq ishlab chiqishning amaliy algoritmi quyidagicha: 1) o‘quv natijasini aniqlash; 2) natijaga olib keladigan kognitiv va nutqiy operatsiyani belgilash; 3) mazmunga mos stimulus va sezgi kanalini tanlash; 4) qiyinchilik darajasini me’yorlash; 5) zarur pedagogik tayanchni belgilash; 6) nutqiy mahsul yaratishga olib chiqish; 7) refleksiv teskari aloqani tashkil etish. Bu algoritm mashqni shunchaki “qiziqarli” qilishdan ko‘ra uning psixodidaktik asosini ongli loyihalash imkonini beradi.

3-sinfda sinonimlarni o‘rganishda avval vaziyat tasviri va hissiy holatni ifodalovchi so‘zlar beriladi; “xursand – shod – quvnoq” birliklari ohang va vaziyat bilan taqqoslanadi, ma’no kuchiga ko‘ra joylashtiriladi va har biri boshqa gapda

qo‘llanadi. Yakunda “Qaysi so‘zni nima uchun tanlading?” savoli bilan refleksiya qilinadi. Bunda multimodallik, assotsiativlik, bosqichlilik, faol nutq va refleksiya birlashadi.

4-sinfda “Uch tayanchli qayta hikoyalash” topshirig‘ida voqealar ketma-ketligini bildiruvchi 3–4 kalit so‘z, rasm yoki sxema va asosiy fikrni aniqlovchi savol beriladi. Keyingi mashqlarda tayanchlar bosqichma-bosqich kamaytiriladi. Shu orqali bosqichlilik, individuallashtirish va kognitiv yuklamani me’yorlash birgalikda amalga oshadi.

Mazkur misollar neyrolingvistik yondashuv topshiriqlarni tashqi jihatdan rang-barang qilish bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Uning didaktik qiymati sezgi kanallarining maqsadli tanlanishi, kognitiv operatsiyalarning ketma-ketligi, ma’no aloqalarining shakllantirilishi, yordam darajasining moslashtirilishi va yakuniy nutqiy mahsulning yaratilishida namoyon bo‘ladi.

